As institutions begin drafting these AI governance frameworks, there is a natural opportunity to bring more women into senior academic leadership roles — building on the fact that women already form the majority of students at many of these same institutions. Since AI policy is typically shaped by rectors, senior administrators, and heads of digitalization departments, deliberately including more women in these bodies would help ensure that governance structures reflect the same demographic balance already achieved in the student body, while also drawing on the perspectives of the generation of women who benefited most directly from the region's enrollment gains.

DISCUSSION

First, Central Asia's achievement of gender parity in overall higher education enrollment is a genuine and historically significant accomplishment, and it provides exactly the kind of strong foundation on which further gains in technical fields can be built. The disciplines most relevant to AI readiness, computer science, engineering, and ICT, currently show more room for growth than the region's higher education system overall, with women's representation in Uzbekistan's ICT graduate cohort at 17.8 percent even as the country's overall higher education enrollment has become gender-balanced, a clear, well-defined target for the next phase of policy.

Second, national AI strategies across the five republics are, understandably, in an early and fast-moving stage focused on infrastructure, curriculum sequencing, and

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

international benchmarking. As these strategies mature, there is a natural and low-cost opportunity to layer in explicit gender-equity targets, following the precedent Uzbekistan has already set in its general admissions policy.

Third, and most encouragingly, the region has already demonstrated, through community-level digital skills programming, that women's participation in digital learning is strong and enthusiastic wherever it has been made accessible. This is the most important finding of this paper: the region does not need to solve a demand-side problem, only to extend an already-proven model further along the pipeline, toward competitive STEM admissions, mentorship, and institutional leadership access.

Building on the strong foundation already in place, four directions offer particularly promising next steps for ministries of education and higher education institutions across the region. First, as national AI-in-education strategies continue to develop, incorporating explicit, measurable gender-equity targets for STEM and ICT enrollment, retention, and graduation would extend the same successful, specific-benchmark approach that Uzbekistan has already used to good effect through its dedicated grant quota for women in general admissions. Second, the demonstrated success of community-level digital skills programming in reaching women is a genuine regional strength that could be connected even more deliberately to formal STEM and ICT degree pathways. Bridging programs that convert basic digital literacy participation into competitive STEM admissions preparation would build directly on the momentum already established in Section 6. Third, as institutional AI governance structures, advisory councils, digitalization departments, ethics committees, continue to take shape, encouraging gender-balanced composition would bring the same demographic strength already present in the student body into these leadership bodies as well. Fourth, the regional coordination mechanisms already convening ministries of education and digitalization officials from across Central Asia are well placed to include gender equity in AI readiness as a regular agenda item, building on the region's strong track record of

coordinated policy learning, including the influence that Kazakhstan's fast-moving AI framework is already having on procurement and policy choices in neighboring states.

CONCLUSION

Central Asia's rapid progress toward gender parity in higher education enrollment is a genuine and well-documented achievement, arrived at faster than in almost any other world region, and it stands as one of the strongest foundations any region has built for an equitable digital transformation of higher education. This paper has shown that this foundation is already visible in the region's AI-era policy: targeted grant quotas, fast-moving national AI frameworks, and digital-skills programs reaching women at rates of 65 to 80 percent all point to governments that are taking gender-inclusive digital transformation seriously. The clearest opportunity now is to extend that same intentionality into technical fields, where women's representation in Uzbekistan's ICT graduate cohort, at 17.8 percent, still has considerable room to grow, and into the governance structures that will shape how AI is used in the region's universities. The region's own recent experience with community digital-skills programming is the most encouraging evidence available: it demonstrates clearly that women's interest and capability are not the limiting factor, only the reach of the pipeline connecting basic digital literacy to advanced technical study and institutional leadership. Extending that pipeline is a natural and achievable next chapter in a story that, so far, Central Asia has told better than most of the world.

References

1. UNESCO. (2023). *Guidance for generative AI in education and research*. UNESCO Publishing.
2. UNESCO. (2021). *Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence*. UNESCO Publishing.
3. OECD. (2021). *OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots*. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/589b283f-en
4. World Economic Forum. (2023). *The Future of Jobs Report 2023*. World Economic Forum.
5.United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. United Nations.
6.UNESCO. (2024). *Global Education Monitoring Report 2024/25: Leadership in Education*. UNESCO Publishing.
7.UNESCO Institute for Statistics. (2022). *Women in Science*. UNESCO Institute for Statistics.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

https://uis.unesco.org/
8. European Commission. (2022). *Ethical Guidelines on the Use of Artificial Intelligence and Data in Teaching and Learning for Educators*. Publications Office of the European Union.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA LINGVISTIK MODELLASHTIRISH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Jurabayeva Zarnigor Zoxidjon qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: zarnigorjurabayeva95@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik modellashtirish malakalarini rivojlantirishda raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Wordwall, LearningApps, Quizizz, Google Classroom va Genially platformalaridan foydalanish asosida ishlab chiqilgan topshiriqlarning o'quvchilarning til hodisalarini modellashtirish, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalariga ta'siri o'rganildi. Natijalar raqamli platformalar lingvistik modellashtirish jarayonini interaktiv tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *lingvistik modellashtirish, raqamli ta'lim, boshlang'ich ta'lim, ona tili, Wordwall, LearningApps, Quizizz, interaktiv topshiriqlar.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ В ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. *В данной статье анализируются дидактические возможности использования цифровых образовательных платформ в развитии навыков лингвистического моделирования у учащихся начальных классов. В ходе исследования изучено влияние заданий, разработанных на основе платформ Wordwall, LearningApps, Quizizz, Google Classroom и Genially, на формирование у учащихся умений моделировать, анализировать и обобщать языковые явления. Результаты исследования показали, что использование цифровых образовательных платформ способствует интерактивной организации процесса лингвистического моделирования, развитию самостоятельного мышления учащихся и повышению их учебной мотивации.*

Ключевые слова: *лингвистическое моделирование, цифровое образование, начальное образование, родной язык, Wordwall, LearningApps, Quizizz, интерактивные задания.*

EFFECTIVENESS OF USING DIGITAL EDUCATIONAL PLATFORMS IN FORMING LINGUISTIC MODELING SKILLS IN PRIMARY STUDENTS

Abstract. *This article examines the didactic potential of using digital educational platforms to develop linguistic modeling skills among primary school students. The study investigated the impact of*

learning activities designed through Wordwall, LearningApps, Quizizz, Google Classroom, and Genially on students' abilities to model, analyze, and generalize linguistic phenomena. The findings indicate that digital educational platforms facilitate the interactive organization of the linguistic modeling process, promote students' independent thinking, and enhance their learning motivation.

Keywords: *linguistic modeling, digital education, primary education, mother tongue, Wordwall, LearningApps, Quizizz, interactive learning activities.*

KIRISH

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, ularni tahliliy va mantiqiy fikrlashga o‘rgatishda raqamli ta’lim platformalari muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Lingvistik modellashtirish ona tili ta’limida til birliklari o‘rtasidagi munosabatlarni sxema, jadval, klaster, algoritm hamda grafik modellar orqali ifodalashni anglatadi. Mazkur faoliyat o‘quvchilarning til hodisalarini chuqur anglashiga, qoidalarni umumlashtirishiga hamda nutqiy kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda raqamli ta'lim platformalarining rivojlanishi lingvistik modellashtirishni yanada interaktiv tashkil etish imkonini bermoqda. Jumladan, Sh. Allamova ta’kidlashicha, *“sun’iy intellekt asosidagi raqamli ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarning individual xususiyatlari, bilim darajasi va kognitiv imkoniyatlarini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan ta’lim yo‘nalishlarini yaratishga xizmat qiladi”* [3]. Mazkur fikr boshlang‘ich sinf ona tili darslarida lingvistik modellashtirish topshiriqlarini har bir o‘quvchining individual imkoniyatlariga moslashtirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, OECD ekspertlari raqamli vositalardan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish o‘quvchilarning yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalari, jumladan tahlil qilish, muammoni hal etish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydilar [1]. Shu nuqtayi nazardan, Wordwall, LearningApps, Quizizz, Genially hamda Google Classroom kabi platformalar lingvistik

modellashtirish topshiriqlarini samarali tashkil etish uchun qulay didaktik muhit yaratadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf ona tili darslarida raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish orqali lingvistik modellashtirish malakalarini shakllantirish samaradorligini aniqlashdan iborat.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, diagnostik test, qiyosiy tahlil hamda statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari 4-sinf o‘quvchilari ishtirokida tashkil etildi.

Eksperimental mashg‘ulotlarda quyidagi raqamli platformalar qo‘llanildi:

Wordwall – gap bo‘laklari, so‘z turkumlari va morfologik modellarni interaktiv o‘yinlar orqali mustahkamlash.

4-sinf “Ona tili” darsligining IV qismida o‘rganiladigan kishilik olmoshlari, fe’l so‘z turkumi, fe’lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari, fe’l yasovchi qo‘shimchalar, gap, gapda tinish belgilarining qo‘llanilishi hamda gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari kabi grammatik mavzularni mustahkamlashda **Wordwall platformasi** didaktik jihatdan samarali raqamli vosita hisoblanadi. Platformaning *Match up*, *Group sort*, *Quiz*, *Unjumble*, *Whack-a-mole*, *Maze chase* va *Gameshow Quiz* kabi interaktiv shablonlari asosida o‘quvchilarga grammatik hodisalarni taqqoslash, guruhlash, moslashtirish, tahlil qilish va amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqilishi mumkin. Jumladan, **“***Kishilik olmoshlarini kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llash”* mavzusida olmoshlarni tegishli kelishik shakllari bilan moslashtirish; *“Kishilik olmoshlarini aniqlash”* mavzusida olmoshlarni boshqa so‘z turkumlaridan ajratish; *“Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar”* mavzusida inkor qo‘shimchasi orqali hosil qilingan fe’llarni aniqlash hamda *“Gap”*, *“Gapda tinish belgilarining qo‘llanilishi”* va *“Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari”* mavzularida so‘zlardan grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish, gap oxiriga mos tinish belgilarini qo‘yish va darak, so‘roq hamda buyruq gaplarni farqlash kabi interaktiv mashqlar bajariladi. Bunday

topshiriqlar o‘quvchilarning morfologik va sintaktik bilimlarini amaliy faoliyat orqali mustahkamlash, grammatik modellarni ongli ravishda qo‘llash, tahliliy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, o‘quv motivatsiyasini oshirish hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi [4].

LearningApps – so‘zlarning tuzilishini modellashtirish, moslashtirish va tasniflash mashqlari.

4-sinf “Ona tili” darsligining III qismida o‘rganiladigan sifat so‘z turkumi, sifatlarning otga bog‘lanishi, o‘z va ko‘chma ma’nodagi sifatlar, rang-tus, maza-ta’m bildiruvchi sifatlar, shakl bildiruvchi sifatlar, xil-xususiyat bildiruvchi sifatlar, sifatlarning yozilishi, sifat yasovchi qo‘shimchalar, sifatlarning imlosi, shuningdek, son so‘z turkumi, sonlarning turlari, tartib sonlar va harfiy ifodalar kabi mavzularni o‘qitishda **LearningApps platformasi** so‘zlarning tuzilishini modellashtirish, moslashtirish va tasniflashga asoslangan interaktiv mashqlarni tashkil etish uchun qulay didaktik imkoniyatlarni yaratadi. Platformaning *Matching Pairs, Classification, Group Assignment, Cloze Text, Ordering, Word Grid va Millionaire Quiz* kabi shablonlari yordamida o‘quvchilar grammatik birliklarning tuzilishini tahlil qilish, ularni o‘zaro taqqoslash va belgilari asosida guruhlash ko‘nikmalarini egallaydilar. Jumladan, *“Sifat so‘z turkumi”* hamda *“Sifatlarning otga bog‘lanishi”* mavzularida sifatlarni mos otlar bilan bog‘lash (shirin olma, baland bino, moviy osmon); *“O‘z va ko‘chma ma’nodagi sifatlar”* mavzusida sifatlarni ma’no xususiyatiga ko‘ra tasniflash (shirin meva – o‘z ma’no, shirin suhbat – ko‘chma ma’no); *“Rang-tus, maza-ta’m bildiruvchi sifatlar”*, *“Shakl bildiruvchi sifatlar”* va *“Xil-xususiyat bildiruvchi sifatlar”* mavzularida sifatlarni semantik guruhlarga ajratish; *“Sifat yasovchi qo‘shimchalar”* mavzusida asos va yasovchi qo‘shimchalarni ajratish hamda yangi sifatlar hosil qilish (ish → ishchan, odob → odobli, suv → suvli, mehnat → mehnatkash) kabi modellashtirish mashqlari bajariladi. Shuningdek, *“Sifatlarning imlosi”* va *“Sifatlarning yozilishi”* mavzularida tushirib qoldirilgan harflarni to‘ldirish, imloviy xatolarni aniqlash va to‘g‘ri variantni tanlashga oid interaktiv

topshiriqlar tashkil etiladi. *"Son so'z turkumi"*, *"Sonlarning turlari"* hamda *"Tartib sonlar"* mavzularida esa miqdor va tartib sonlarni guruhlarga ajratish, raqam bilan yozilgan sonlarni harfiy ifodasi bilan moslashtirish yoki sonlarni gap mazmuniga mos ravishda joylashtirish kabi mashqlar bajariladi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning so'z tarkibini tahlil qilish, grammatik belgilarni ajratish, morfologik modellarni anglash, tasniflash va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi, shu bilan birga ularning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tafakkuri va o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi [5].

Quizizz – lingvistik modellar asosida test va refleksiya topshiriqlari.

Quizizz platformasi 4-sinf ona tili darslarida o'rganilgan lingvistik modellarni mustahkamlash va o'quvchilarning bilimlarini refleksiya asosida baholashda samarali raqamli vosita hisoblanadi. Platformada **sifat so'z turkumi**, **sifat yasovchi qo'shimchalar**, **sifatlarning imlosi**, **son so'z turkumi**, **tartib sonlar**, **kishilik olmoshlari**, **fe'l so'z turkumi**, **bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar**, **fe'l yasovchi qo'shimchalar**, **gap bo'laklari** hamda **gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari** kabi mavzular yuzasidan lingvistik modellar asosida test topshiriqlari ishlab chiqildi.





Dars yakunida Quizizz platformasining **Review** va **Reports** funksiyalari yordamida o'quvchilar o'z xatolarini tahlil qiladi, qaysi mavzular bo'yicha qiyinchilikka duch kelganini aniqlaydi hamda o'z bilimini mustaqil baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, mazkur platforma **uyga vazifa** sifatida ham samarali qo'llaniladi. O'qituvchi darsda o'rganilgan mavzular yuzasidan maxsus Quizizz testini yaratib, havolasini yoki kodini o'quvchilarga yuboradi va topshiriqni ma'lum muddat ichida

mustaqil bajarishni belgilaydi. O‘quvchilar testni istalgan joyda va qulay vaqtda bajarishlari, tizim esa ularning natijalari, xatolari va bajarish vaqti bo‘yicha avtomatik hisobotni shakllantirishi mumkin. Bu esa o‘qituvchiga har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini individual tahlil qilish, keyingi darslarda differensial yondashuvni rejalashtirish hamda o‘quvchilarning lingvistik modellarni qay darajada o‘zlashtirganini aniqlash imkonini beradi.

Genially – grafik sxemalar, infografikalar va algoritmik modellar yaratish.

Google Classroom – individual topshiriqlarni taqdim etish va natijalarni monitoring qilish.

Google Classroom platformasi 4-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarga individual topshiriqlarni taqdim etish va ularning bajarilish natijalarini muntazam monitoring qilish imkonini beruvchi samarali raqamli ta’lim vositasidir. Mazkur platforma orqali o‘qituvchi har bir o‘quvchining bilim darajasi va o‘zlashtirish xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial topshiriqlarni taqdim etishi mumkin. Xususan, 4-sinf **“Ona tili”**

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

darsligida o‘rganiladigan *sifat so‘z turkumi, sifat yasovchi qo‘shimchalar, son so‘z turkumi, kishilik olmoshlari, fe’l so‘z turkumi, bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar, fe’l yasovchi qo‘shimchalar, gap bo‘laklari hamda gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari* kabi mavzular yuzasidan individual amaliy mashqlar, testlar, ijodiy topshiriqlar va lingvistik modellashtirishga oid vazifalar joylashtiriladi. O‘quvchilar topshiriqlarni belgilangan muddat ichida elektron shaklda bajarib platformaga yuklaydilar, o‘qituvchi esa ularni masofadan turib tekshiradi, baholaydi va izohlar (feedback) beradi. Google Classroom platformasining monitoring imkoniyatlari yordamida har bir o‘quvchining topshiriqni bajarish vaqti, topshirilgan yoki topshirilmagan vazifalari, olgan baholari hamda o‘zlashtirish dinamikasi avtomatik qayd etiladi. Ushbu ma’lumotlar asosida o‘qituvchi o‘quvchilarning qaysi grammatik mavzularni yaxshi o‘zlashtirgani yoki qaysi ko‘nikmalarni rivojlantirish zarurligini aniqlaydi hamda keyingi darslar uchun individual yoki differensial ta’lim strategiyasini ishlab chiqadi. Shu jihatdan Google Classroom platformasi o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etish, individual yondashuvni ta’minlash, tezkor teskari aloqani yo‘lga qo‘yish va ta’lim natijalarini uzluksiz monitoring qilishga xizmat qiluvchi samarali raqamli ta’lim muhiti hisoblanadi [6].

Quyidagi 1-jadvalda “Lingvistik modellashtirish ko‘nikmalarini baholash mezonlari” keltirilgan:

№	Baholash mezoni	Mazmuni
1.	**Modelni to‘g‘ri tuzish**	O‘quvchining berilgan grammatik hodisani (so‘z tarkibi, so‘z turkumi, gap modeli va boshqalar) lingvistik model asosida to‘g‘ri ifodalay olishi.
2.	**Modelni sharhlash**	Tuzilgan modelning tarkibiy qismlarini izohlashi, grammatik bog‘lanishlarni asoslab bera olishi va model mazmunini tushuntirishi.

3.	**Model asosida yangi misollar yaratish**	O‘quvchining berilgan lingvistik modelga mos ravishda mustaqil yangi so‘z, so‘z birikmasi yoki gaplar tuza olishi.
4.	**Mustaqil modellashtirish ko‘nikmalari**	O‘quvchining tayyor namunadan foydalanmasdan yangi lingvistik modelni mustaqil yaratishi va uni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishi.

NATIJALAR

Tajriba natijalari raqamli platformalardan foydalanish o‘quvchilarning lingvistik modellashtirish malakalarini sezilarli rivojlantirganini ko‘rsatdi.

Kuzatishlar davomida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi:

lingvistik sxemalarni tuzish tezligi ortdi;

grammatik hodisalarni umumlashtirish ko‘nikmalari yaxshilandi;

interaktiv topshiriqlarga qiziqish kuchaydi;

mustaqil ishlash faolligi oshdi;

xatolar soni kamaydi.

Ayniqsa, Wordwall va LearningApps platformalarida bajarilgan modellashtirish mashqlari o‘quvchilarning analiz va sintez operatsiyalarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko‘rsatdi.

Quizizz platformasi asosida diagnostik testlar tashkil etilib, ular orqali o‘quvchilarning lingvistik modellashtirishga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini tezkor hamda obyektiv baholash imkoniyati yaratildi. Tajriba-sinov ishlari Namangan shahridagi 3-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining 4-sinfida tahsil olayotgan 28 nafar o‘quvchi ishtirokida amalga oshirildi. Diagnostik baholash natijalari asosida har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi, uchrayotgan tipik xatolari va individual ta’lim ehtiyojlari aniqlandi. Olingan ma’lumotlar tajriba-sinov ishlarining keyingi bosqichlarini ilmiy asosda rejalashtirish, o‘quv topshiriqlarini differensiallashtirish hamda lingvistik

modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim empirik asos bo‘lib xizmat qildi.

Google Classroom esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muntazam qayta aloqani ta’minladi.

MUHOKAMA

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, raqamli platformalar lingvistik modellashtirishni oddiy reproduktiv mashqlardan interaktiv konstruktiv faoliyatga aylantiradi. O‘quvchilar tayyor qoidalarni yodlash o‘rniga ularni mustaqil ravishda modellashtirish orqali o‘zlashtiradilar.

Bu esa konstruktiv ta’lim nazariyasining asosiy g‘oyalariga mos keladi. Chunki bilim o‘quvchi tomonidan faol quriladi.

Shuningdek, raqamli platformalar differensial ta'limni tashkil etish, individual topshiriqlar yaratish hamda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

1. UNESCO ekspertlari ham **raqamli ta’lim vositalari o‘quvchilarning XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini** alohida ta’kidlaydilar [2].

Demak, lingvistik modellashtirishni raqamli platformalar bilan uyg‘unlashtirish boshlang‘ich ta'lim sifatini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA

Raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik modellashtirish malakalarini samarali rivojlantiradi.

Interaktiv topshiriqlar o‘quvchilarning analiz qilish, taqqoslash, umumlashtirish va modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Wordwall, LearningApps, Quizizz, Genially va Google Classroom platformalarini kompleks qo‘llash ona tili darslarining samaradorligini oshiradi hamda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Kelgusida sun'iy intellekt elementlari bilan boyitilgan adaptiv raqamli platformalar asosida lingvistik modellashtirish metodikasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023.
2. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO Publishing, 2023.
3. Allamova Shohista Shavkat qizi. Raqamli ta'lim muhitida talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish texnologiyasi // Zamonaviy ta'lim. – 2025. – №12. – B. 23–30. – DOI: https://doi.org/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_12_3.
4. Baynazarova D.D., Toirova M.E. *Ona tili. 4-sinf. IV qism: umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik.* – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 88 b.
5. Baynazarova D.D. *Ona tili. 4-sinf. III qism: umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik.* – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 86 b.

UDK: 796:061.2/3

TRENERLIK FAOLIYATINI TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHDA «LIDER–TRENER» 6 MODELI METODIKALARINING SAMARADORLIGI (BASKETBOL MISOLIDA)

Norkulov Doniyorbek Rahmiddinovich
Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali «Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi» kafedrasi v.b. professori, PhD
doninorkulov@gmail.com
Orcid: 0009-0003-5137-6585

Annotatsiya. *Maqolada trenerlik faoliyatini tizimli yondashuv asosida takomillashtirishga qaratilgan «Lider–Trener» 6 modeli tarkibidagi olti tizimli metodikaning (TF"IS"2, DIM/1+7, TF–Y8, RT/N+10, RAMP-17, XMI+2/20) tajriba-sinov asosidagi samaradorligi asoslangan. Tajriba O'zbekistonning bir necha hududida, 120 dan ortiq basketbol treneri va qariyb 400 nafar yosh sportchi ishtirokida, tajriba (EG) va nazorat (NG) guruhlari qiyosida olib borildi. Natijalar har bir metodika bo'yicha tajriba guruhda statistik ahamiyatga ega o'sishni (P<0,05–0,001), nazorat guruhda esa ishonchsiz o'zgarishlarni (P>0,05) ko'rsatdi. «Lider–Trener» 6 modelining yuqori samaradorligi va amaliy ahamiyati tasdiqlandi.*

Kalit so'zlar: *trenerlik faoliyati, tizimli yondashuv, «Lider–Trener» modeli, basketbol, pedagogik eksperiment, kasbiy kompetensiya, reyting tizimi, raqamli texnologiyalar, samaradorlik, sport pedagogikasi.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕТОДИК МОДЕЛИ «ЛИДЕР–ТРЕНЕР» 6 В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ТРЕНЕРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА (НА ПРИМЕРЕ БАСКЕТБОЛА)

Аннотация. *В статье экспериментально обоснована эффективность шести системных методик (TF"IS"2, DIM/1+7, TF–Y8, RT/N+10, RAMP-17, XMI+2/20) модели «Лидер–Тренер» 6, направленных на совершенствование тренерской деятельности на основе системного подхода. Эксперимент проведён в нескольких регионах Узбекистана с участием более 120 тренеров и около 400 юных спортсменов. Результаты показали статистически значимый рост в экспериментальной группе (P<0,05–0,001) и недостоверные изменения в контрольной (P>0,05).*

Ключевые слова: *тренерская деятельность, системный подход, модель «Лидер–Тренер», баскетбол, педагогический эксперимент, профессиональная компетенция, рейтинговая система, цифровые технологии, эффективность, спортивная педагогика.*

THE EFFECTIVENESS OF THE «LEADER–COACH» 6 MODEL METHODOLOGIES IN IMPROVING COACHING ACTIVITY BASED ON A SYSTEMATIC APPROACH (THE CASE OF BASKETBALL)

Annotation. *The article provides an experimental justification of the effectiveness of six systematic methodologies (TF"IS"2, DIM/1+7, TF–Y8, RT/N+10, RAMP-17, XMI+2/20) of the "Leader–Coach" 6 model, aimed at improving coaching activity based on a systematic approach. The experiment was conducted in several regions of Uzbekistan, involving more than 120 basketball coaches and about 400 young athletes, comparing experimental (EG) and control (NG) groups. The results revealed statistically significant improvement in the experimental group (P<0.05–0.001) and unreliable changes in the control group (P>0.05). The high effectiveness and practical significance of the "Leader–Coach" 6 model were confirmed.*

Keywords: *coaching activity, systematic approach, "Leader–Coach" model, basketball, pedagogical experiment, professional competence, rating system, digital technologies, effectiveness, sports pedagogy.*

KIRISH

Jahon miqyosida jismoniy tarbiya va sport sohasining jadal rivojlanishi trenerlik faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish masalasini dolzarb ilmiy muammoga aylantirmoqda. Yuqori sport natijalari, sportchilarning uzoq muddatli rivojlanishi va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bevosita trenerlarning kasbiy kompetensiyasi hamda mashg'ulot jarayonining tizimli tashkil etilishiga bog'liqdir. Biroq amaliyotda trenerlik faoliyati ko'pincha an'anaviy, fragmentar va subyektiv yondashuvlar asosida olib borilmoqda, bu esa pedagogik samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Mazkur muammoni hal etish maqsadida tizimli yondashuv asosida «Lider–Trener» 6 modeli ishlab chiqildi. Model trenerlik faoliyatining olti yo'nalishini qamrab oladi: uzoq muddatli strategik rejalashtirish (TF"IS"2), ichki liga musobaqalarini tashkil etish (DIM/1+7), faoliyatni tahlil qilish va yangilash (TF–Y8), raqamli texnologiyalar va nostandart jihozlardan foydalanish (RT/N+10), reyting va mukofotlash tizimi (RAMP-17) hamda xalqaro me'yorlarga mos indikatorlar asosida takomillashtirish (XMI+2/20).

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish, raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash hamda trener-pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda trenerlar faoliyatiga zamonaviy pedagogik va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligi alohida

ta'kidlangan. Shu nuqtai nazardan, trenerlik faoliyatini tizimli yondashuv asosida ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish sport pedagogikasining dolzarb vazifalaridan biriga aylanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi «Lider–Trener» 6 modeli tarkibidagi olti tizimli metodikaning trenerlik faoliyati samaradorligiga ta'sirini ko'p hududli pedagogik eksperiment natijalarining qiyosiy tahlili asosida tajribalarda asoslashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi har bir metodika bo'yicha tajriba va nazorat guruhlari natijalari o'rtasidagi farqni statistik ahamiyatlilik darajasida aniqlash hamda olti yo'nalishni yagona pedagogik tizim sifatida birlashtirishda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Trenerlik faoliyatini tizimli tashkil etish va sport tayyorgarligini davrlashtirish masalalari R. Martens (2012), T. Bompa va G. Haff (2009) hamda V.N. Platonov (2015) ishlarida nazariy jihatdan asoslangan. Basketbol tayyorgarligining texnik-taktik komponentlari J.V. Krause (2005) tomonidan tizimli bayon qilingan. Mahalliy ilmiy maktabda jismoniy tarbiya nazariyasi va trenerlik faoliyatini boshqarishning metodologik asoslari Sh.X. Xankeldiyev hamda muallifning o'zi (Norkulov, 2024) tomonidan rivojlantirilgan; xususan, «Lider–Trener» dasturi va patentlangan to'rt darajali mashqlar zinasi (SAP 02411) amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tajriba-sinov ishlari O'zbekistonning bir necha hududida (Farg'ona, Andijon, Namangan, Sirdaryo/Guliston, Toshkent viloyati hamda Nukus) o'tkazildi. Jami tajribalarga 120 dan ortiq basketbol treneri va qariyb 400 nafar 14–16 yoshli yosh sportchi jalb etildi. Har bir metodika alohida tajriba (EG) va nazorat (NG) guruhlari qiyosida sinovdan o'tkazildi; nazorat guruhlari an'anaviy uslubda, tajriba guruhlari esa tegishli metodika asosida faoliyat yuritdi. Sinov muddatlari metodika xususiyatiga ko'ra 12 haftadan 2 yilgacha bo'ldi.

Baholash mezonlari sifatida sportchilarning texnik-taktik (3, 2 va 1 ochkolik to'p tashlash aniqligi, pas aniqligi, aldamchi harakatlar) va jismoniy (10/20/30 m yugurish,

vertikal sakrash, dribbling, chidamlilik) ko‘rsatkichlari, shuningdek trenerlik faoliyatining ekspert-baholash ballari (1–10 shkala) qo‘llanildi. Statistik tahlilda o‘rtacha qiymat (X), standart og‘ish (σ), variatsiya koeffitsiyenti (V%) va Student t-mezoni hisoblandi; ahamiyatlilik darajasi P<0,05 sifatida qabul qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

TF“IS”2 — ikki yillik strategik rejalashtirish. Strategik reja asosida olib borilgan mashg‘ulotlar tajriba guruhda basketbolchilarning texnik aniqligini sezilarli oshirdi. 3 ochkolik to‘p aniqligi tajriba guruhda 38,5% (nazoratda 34,9%), 2 ochkolik aniqlik 52,8% (48,7%), erkin to‘p aniqligi 70,5% (63,2%) ni tashkil etib, barcha farqlar ishonchli bo‘ldi (P<0,05). Natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. TF“IS”2 metodikasi bo‘yicha texnik-taktik ko‘rsatkichlar (EG va NG qiyosi, n=24)

Ko‘rsatkich	Nazorat (X̄)	Tajriba (X̄)	t	P
3 ochko aniqligi, %	34,90	**38,50**	2,08	**<0,05**
2 ochko aniqligi, %	48,70	**52,80**	2,08	**<0,05**
Erkin to‘p aniqligi, %	63,20	**70,50**	2,10	**<0,05**
Aldamchi harakatlar, marta	1,32	**1,62**	2,09	**<0,05**

Variatsiya koeffitsiyentining pasayishi (masalan, 3 ochkolik aniqlikda 21,5%→18,2%) tajriba guruhi sportchilarida texnik elementni bajarishda barqarorlik oshganini ko‘rsatadi. Bu natijalar mashg‘ulot jarayonida hujum harakatlarini ratsional tashkil etish, oldindan rejalashtirilgan oraliq maqsadlarni bosqichma-bosqich baholab borish va har oy texnik ko‘rsatkichlar jadvalini taqqoslash kabi strategik rejalashtirish elementlarining samaradorligini tasdiqlaydi.

DIM/1+7 — ichki liga musobaqalari. Muntazam ichki musobaqalar yosh sportchilarning jismoniy va texnik ko‘rsatkichlarini sezilarli yaxshiladi. Tajriba guruhda 10 m yugurish, vertikal sakrash, zarba aniqligi, dribbling va pas aniqligi ko‘rsatkichlari nazorat guruhidan ustun bo‘lib, farqlar ishonchli darajada (asosan P<0,01) qayd etildi (2-

jadval). Ichki liga o'tkazilmagan hududlarda esa o'sish 1–2% atrofida saqlanib, statistik ahamiyatga ega bo'lmadi (P>0,05).

2-jadval. DIM/1+7 metodikasi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar (EG va NG qiyosi, n=70)

Ko'rsatkich	Nazorat (X̄)	Tajriba (X̄)	t	P
10 m yugurish, s	1,9	**1,7**	5,3	**<0,01**
30 m yugurish, s	4,9	**4,4**	7,3	**<0,01**
Vertikal sakrash, sm	49,1	**60,7**	11,5	**<0,05**
3 ballik zarba aniqligi, %	35,4	**45,4**	9,8	**<0,01**
20 m dribbling, s	6,9	**6,0**	9,7	**<0,01**
Pas aniqligi, %	70,0	**81,6**	10,9	**<0,01**

Mazkur natijalar ichki liga musobaqalari trenerning faqat o'rgatuvchi emas, balki tashkilotchi, motivator va raqobat muhitini yaratuvchi sifatidagi rolini kuchaytirishini ko'rsatadi. Muntazam o'yin amaliyoti orqali yosh sportchilar texnik ko'nikmalarni real bellashuv sharoitida sinab ko'radi, bu esa ko'nikmalarning o'yinga ko'chishini va psixologik barqarorlikni ta'minlaydi.

TF–Y8 — faoliyatni tahlil qilish va yangilash. Bir yillik tajriba davomida tajriba guruhda barcha olti mezon bo'yicha ishonchli o'sish (P<0,05) va variatsiya koeffitsiyentining pasayishi kuzatildi, bu natijalarning barqarorlashganini ko'rsatadi. Nazorat guruhda ijobiy siljishlar statistik jihatdan tasdiqlanmadi (P>0,05). Tajriba guruhining yakuniy (TO) ko'rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. TF–Y8 metodikasi bo'yicha tajriba guruhi dinamikasi (TB → TO, n=5)

Ko'rsatkich	TB (X̄±σ)	TO (X̄±σ)	t	P
Vertikal sakrash, sm	28,9±5,3	**33,8±5,0**	2,21	**<0,05**
1 ochkolik zarba, %	59,2±10,8	**68,3±9,5**	2,29	**<0,05**

Ko'rsatkich	TB (X̄±σ)	TO (X̄±σ)	t	P
2 ochkolik zarba, %	46,9±9,8	**54,1±9,0**	2,18	**<0,05**
3 ochkolik zarba, %	32,1±9,3	**38,4±8,5**	2,31	**<0,05**
Dribbling (20 m), s	5,30±0,51	**4,95±0,47**	2,36	**<0,05**
Pas aniqligi, %	68,2±11,8	**76,2±10,5**	2,42	**<0,05**

TF–Y8 natijalari trenerlik faoliyatida «tahlil → reja → qo'llash → nazorat → yangilash» siklini odatiy ish uslubiga aylantirish zarurligini tasdiqlaydi. O'yinga o'xshash mashg'ulot dizayni, qaror qabul qilishni majburlovchi cheklovli vazifalar (2×2, 3×3 formatlari, vaqt va makon bosimi) hamda bosqichma-bosqich monitoring texnik ko'nikmalarning real o'yinga ko'chishini tezlashtirdi. Aynan shu sababli tajriba guruhda 3 ochkolik zarba aniqligi +6,3 foiz band va pas aniqligi +8 foiz band oshgani holda, nazorat guruhda izolyatsiyalangan mashqlar bunday transferni ta'minlay olmadi.

RT/N+10 — raqamli texnologiyalar va nostandart jihozlar. Patentlangan to'rt darajali zina (SAP 02411), ko'chma zina hamda raqamli monitoring va videoanalizning kompleks qo'llanilishi 6 oy ichida tajriba guruhda barcha jismoniy va texnologik ko'rsatkichlarni ishonchli oshirdi (P<0,001; Cohen d ≈ 1,7–2,8). Nazorat guruhda o'zgarishlar ahamiyatsiz bo'ldi (4-jadval).

4-jadval. RT/N+10 metodikasi bo'yicha ekspert-baholash ballari dinamikasi (1–10; EG va NG, n=12)

Ko'rsatkich	NG dastlabki→yakuniy	EG dastlabki→yakuniy	t (EG)	P (EG)
Kuch	5,2 → 5,3	**5,2 → 6,0**	5,2	**<0,001**
Portlovchi kuch	4,9 → 5,0	**4,9 → 5,8**	4,9	**<0,001**
Chidamlilik	5,3 → 5,4	**5,3 → 6,2**	5,6	**<0,001**
Muvozanat	4,6 → 4,7	**4,6 → 5,5**	5,4	**<0,001**

Ko'rsatkich	NG dastlabki→yakuniy	EG dastlabki→yakuniy	t (EG)	P (EG)
Raqamli monitoring	3,4 → 3,5	**3,4 → 4,5**	5,8	**<0,001**
Videoanaliz	3,3 → 3,4	**3,3 → 4,4**	5,5	**<0,001**

RT/N+10 doirasida nostandart jihozlar va raqamli vositalarning uyg'unligi sinergetik ta'sir berdi: to'rt darajali zinaning zonalashgan ishlash diapazonlari kuch va portlovchi kuchni to'g'ri taqsimladi, yurak urish monitoringi yuklamani individuallashtirib, ortiqcha charchashni erta aniqlash imkonini berdi, videoanaliz esa qo'nish mexanikasi va gavda holati kabi texnik detallarni tuzatdi. Tajriba guruhda variatsiya koeffitsiyentining pasayishi (masalan, kuchda 8,5%→7,5%) natijalarning barqarorlashganini, ya'ni mashqlar bir xil sifat bilan bajarila boshlaganini ko'rsatadi.

RAMP-17 — reyting va mukofotlash tizimi. KPI asosidagi baholash va rag'batlantirish tajriba guruhda texnik mahorat, jarohat profilaktikasi, funksional holat va ichki motivatsiyani sezilarli oshirdi. 3 ochkolik aniqlik +7,1%, jarohatsiz oylar +2,2 oy, yurak urishining me'yoriy holati +10,9%, ichki motivatsiya balli +9,8% ga oshdi (barchasi P<0,001–0,001); nazorat guruhda esa o'zgarish deyarli kuzatilmadi (5-jadval).

5-jadval. RAMP-17 metodikasi bo'yicha KPI ko'rsatkichlari (EG va NG, n=12)

KPI	Guruh	Dastlabki	Yakuniy	t	P
3-lik aniqligi, %	EG	73,9	**81,0**	**5,52**	**<0,001**
	NG	73,8	74,0	—	>0,05
Jarohatsiz oylar	EG	5,3	**7,5**	**4,31**	**<0,01**
	NG	5,2	5,2	—	>0,05
YUN normada, %	EG	50,1	**61,0**	**7,99**	**<0,001**
	NG	49,9	50,0	—	>0,05
IMB motivatsiya	EG	81,2	**91,0**	**8,54**	**<0,001**

KPI	Guruh	Dastlabki	Yakuniy	t	P
	NG	81,0	81,0	—	>0,05

XMI+2/20 — xalqaro me'yorlar indikatorlari. 12 haftalik intensiv dastur tajriba guruh sportchilarini xalqaro me'yorlarga yaqinlashtirdi: barcha o'nta indikator bo'yicha ishonchli o'sish qayd etildi. 6-jadvalda asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan.

6-jadval. XMI+2/20 metodikasi bo'yicha asosiy indikatorlar (EG va NG yakuniy, n=14)

Ko'rsatkich	Tajriba (yakuniy)	Nazorat (yakuniy)	t	P
10 m sprint, s	**2,10**	2,28	4,70	**<0,001**
5×5 m mokkisimon, s	**7,3**	7,8	3,50	**<0,01**
Pas aniqligi (5 dan)	**4,2**	3,2	5,10	**<0,001**
3 ochkolik tashlash (10 dan)	**4,0**	2,5	3,90	**<0,01**
Qaror qabul qilish, s	**3,2**	3,8	6,00	**<0,001**
Himoyadagi samaradorlik (5 dan)	**3,8**	3,0	4,00	**<0,001**

Umumiy muhokama. Olti metodikaning natijalari yagona qonuniyatni namoyon etdi: tizimli yondashuv asosida tashkil etilgan tajriba guruhlarida barcha ko'rsatkichlar statistik ahamiyatga ega darajada yaxshilandi, an'anaviy yondashuvdagi nazorat guruhlarida esa o'zgarishlar ishonchsiz bo'lib qoldi. Bu «Lider–Trener» 6 modelining kompleks (texnik, jismoniy, tashkiliy, psixologik va boshqaruv) ta'sirini tasdiqlaydi. Olingan natijalar yetakchi sport maktablarida qo'llanilayotgan ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) trenerlik tamoyillari bilan hamohang bo'lib, mahalliy sharoitda ham yuqori samaradorlik berishini ko'rsatadi.

Modelning afzalligi uning olti yo'nalishni bir-birini to'ldiruvchi yagona tizim sifatida birlashtirishidadir: strategik rejalashtirish (TF"IS"2) izchillikni ta'minlaydi, ichki

liga (DIM/1+7) raqobat amaliyotini beradi, reflektiv tahlil (TF–Y8) trenerning kasbiy o‘sishini ta’minlaydi, raqamli vositalar (RT/N+10) mashg‘ulotni obyektivlashtiradi, reyting tizimi (RAMP-17) motivatsiyani kuchaytiradi, xalqaro indikatorlar (XMI+2/20) esa tayyorgarlikni jahon mezonlariga yo‘naltiradi. Tajriba guruhlarida variatsiya koeffitsiyentining pasayishi nafaqat o‘rtacha natijalar, balki ularning barqarorligi ham oshganini ko‘rsatadi — bu amaliy jihatdan o‘yin yuklamalari ostida zarur sifatni saqlab turish ehtimolini oshiradi.

Tadqiqot natijalari trenerlik faoliyatini boshqarishda an’anaviy va fragmentar yondashuvdan tizimli, rejalashtirilgan va natijaga yo‘naltirilgan modelga o‘tish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Model nafaqat sportchilar natijalarini, balki trenerlarning kasbiy mas’uliyati, ichki motivatsiyasi va metodik salohiyatini ham oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston sport ta’limi tizimida trener-pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va sport pedagogik amaliyotni xalqaro standartlarga moslashtirishga zamin yaratadi.

XULOSA

Tajriba-sinov natijalari «Lider–Trener» 6 modeli tarkibidagi olti tizimli metodikaning yuqori samaradorligini ishonchli tarzda tasdiqladi. Har bir metodika trenerlik faoliyatining muayyan jabhasini takomillashtirishga xizmat qildi: TF“IS”2 uzoq muddatli rejalashtirish madaniyatini shakllantirdi, DIM/1+7 raqobat muhitini va o‘yin amaliyotini kuchaytirdi, TF–Y8 reflektiv tahlil ko‘nikmasini rivojlantirdi, RT/N+10 mashg‘ulot jarayonini raqamli vositalar bilan zamonaviylashtirdi, RAMP-17 motivatsion muhit yaratdi, XMI+2/20 esa tayyorgarlikni xalqaro me’yorlarga yaqinlashtirdi.

Barcha metodikalar bo‘yicha tajriba guruhlarida statistik ahamiyatga ega o‘sish ($P<0,05–0,001$), nazorat guruhlarida esa ishonchsiz o‘zgarishlar ($P>0,05$) qayd etilishi tizimli yondashuvning an’anaviy, fragmentar yondashuvdan ustunligini tajribalarda darajada isbotlaydi. Tajriba guruhlarida variatsiya koeffitsiyentining pasayishi natijalarning barqarorlashganini ham ko‘rsatadi.

Olingan natijalar «Lider–Trener» 6 modelini O‘zbekiston Respublikasi sport maktablari va klublari amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqligini asoslab beradi va sport pedagogikasi nazariyasiga trenerlik faoliyatini tizimli boshqarishning yangi konseptual modeli sifatida hissa qo‘shadi. Modelni boshqa sport turlari va yosh toifalariga moslashtirish hamda uzoq muddatli kuzatuv tashkil etish keyingi tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Norkulov D.R. Basketbol va uni o‘qitish metodikasi. — Toshkent, 2024. — 196 b.
2. Norkulov D.R., Jabbarov A.S., Nematov M., Qambarov O.F. Lider-Trener dasturi. — Toshkent, 2024. — 124 b.
3. Norkulov D.R., Uraimov R.S. To‘rt darajali jismoniy mashg‘ulotlar zinasi (FLEL). Sanoat namunasi patenti SAP 02411. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2023.
4. Martens R. Successful Coaching. — 4th ed. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2012. — 528 p.
5. Bompa T.O., Haff G.G. Periodization: Theory and Methodology of Training. — 5th ed. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2009. — 480 p.
6. Krause J.V., Meyer D., Meyer J. Basketball Skills & Drills. — 3rd ed. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2005. — 247 p.
7. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. — Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2015. — 680 s.
8. Platonov V.N. Podgotovka kvalifitsirovannykh sportsmenov. — M.: Fizkultura i sport, 1986. — 286 s.
9. Xankeldiyev Sh.X. O‘quvchi-yoshlarning jismoniy tayyorgarligini boshqarish. — Toshkent: Fan, 2019. — 184 b.
10. Côté J., Gilbert W. Towards a definition of coaching expertise // International Journal of Sports Science & Coaching. — 2009. — Vol. 4(3). — P. 307–323.

UDK: 796.332.071:796.012.6:572.087

13–14 YOSHLI YOSH FUTBOLCHILARDA STATIK VA DINAMIK MASHQLARDAN FOYDALANGAN HOLDA TOPGA ZARBA BERISH TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Abduvositov Sardorbek Baxtiyor o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: abduvositovsardorbek192@gmail.com
ORCID 0009-0004-1026-8569

Annotatsiya. *Maqolada 13–14 yoshli yosh futbolchilarda topga zarba berish texnikasini statik (statodinamik) va dinamik (Sakrash mashqlari) mashqlarni kontrast trening prinsipi (PAP effekti) asosida birlashtirgan «Statik–Dinamik Texnik Tayyorgarlikning Integratsiyalashgan Modeli» (SDTTI-Model) va uning amaliy ifodasi bo'lgan 24 haftalik tayyorgarlik dasturi orqali takomillashtirish metodikasi taklif etiladi. Tadqiqotda 4 ta sport bazasidagi 205 nafar yosh futbolchi ishtirok etdi (eksperimental guruh n=103, nazorat guruhi n=102). 12-haftalik oraliq natijalar shuni ko'rsatdiki, eksperimental guruhda 11 m masofadan zarba aniqligi o'rtacha 7,5–8,25% ga, 6 daqiqalik yugurish ko'rsatkichi 78–85,8 m ga oshdi (P<0,001), nazorat guruhda esa statistik ahamiyatga ega o'zgarishlar kuzatilmadi (P>0,05). Ishlab chiqilgan SDTTI-Model va 24 haftalik dastur yoshlar futboli amaliyotida samarali pedagogik vosita sifatida tavsiya etiladi.*

Kalit so'zlar: *yosh futbolchi, topga zarba berish texnikasi, statik mashqlar, dinamik mashqlar, kontrast trening, SDTTI-Model, post-aktivatsion potentsiya, sport pedagogikasi, 13–14 yosh, jismoniy tayyorgarlik, 24 haftalik dastur, biomexanika.*

МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕХНИКИ УДАРА ПО МЯЧУ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СТАТИЧЕСКИХ И ДИНАМИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ У ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ 13–14 ЛЕТ

Аннотация. *В статье предложена методика совершенствования техники удара по мячу у юных футболистов 13–14 лет на основе «Интегрированной модели статико-динамической технической подготовки» (СДТТП-модель), объединяющей статические (статодинамические) и динамические (плиометрические) упражнения по принципу контрастной тренировки (эффект PAP), и её практической реализации в виде 24-недельной программы. В исследовании приняли участие 205 юных футболистов с четырёх спортивных баз (экспериментальная группа n=103, контрольная n=102). Промежуточные результаты на 12-й неделе показали, что в экспериментальной группе точность удара с 11 м повысилась в среднем на 7,5–8,25%, показатель 6-минутного бега — на 78–85,8 м (P<0,001), тогда как в контрольной группе статистически значимых изменений не выявлено (P>0,05). Разработанная СДТТП-модель и 24-недельная программа рекомендуются как эффективное педагогическое средство в практике юношеского футбола.*

Ключевые слова: *юный футболист, техника удара по мячу, статические упражнения, динамические упражнения, контрастная тренировка, СДТТП-модель, постактивационная потенциация, спортивная педагогика, 13–14 лет, физическая подготовка, 24-недельная программа, биомеханика.*

METHODOLOGY OF IMPROVING BALL-KICKING TECHNIQUE IN 13–14-YEAR-OLD YOUNG FOOTBALLERS USING STATIC AND DYNAMIC EXERCISES

Abstract. *The article proposes a methodology for improving ball-kicking technique in 13–14-year-old young footballers based on the «Static–Dynamic Technical Training Integrated Model» (SDTTI-Model), which combines static (statodynamic) and dynamic (plyometric) exercises through the contrast-training principle (PAP effect), implemented as a 24-week training programme. The study involved 205 young footballers from four sport bases (experimental group n=103, control n=102). The 12-week interim results showed that in the experimental group the 11-m kicking accuracy increased on average by 7.5–8.25%, the 6-min run by 78–85.8 m (P<0.001), whereas in the control group no statistically significant changes were observed (P>0.05). The developed SDTTI-Model and the 24-week programme are recommended as an effective pedagogical tool in youth football practice.*

Keywords: *young footballer, ball-kicking technique, static exercises, dynamic exercises, contrast training, SDTTI-Model, post-activation potentiation, sport pedagogy, age 13–14, physical fitness, 24-week programme, biomechanics.*

KIRISH

Zamonaviy futbolda topga zarba berish texnikasi nafaqat individual texnik mahoratning, balki butun jamoaviy taktikaning yakuniy va eng aniq o'lchanadigan komponenti hisoblanadi. Xalqaro miqyosdagi musobaqalar tahlili shuni ko'rsatadiki, gol bilan yakunlangan hujumlarning aksariyat qismi so'nggi zarbaning bajarilish sifatiga bog'liq, va aynan shu komponent boshqa texnik elementlardan ajralgan holda chuqur ilmiy o'rganilishini taqozo etadi. Yosh futbolchilarni tayyorlash bosqichida zarba berish texnikasini takomillashtirish — bo'lajak professional sportchining harakatlanish ko'nikmalarining poydevorini quradi va uning kelajakdagi sport mahoratini sezilarli darajada belgilab beradi.

13–14 yosh oralig'i sport pedagogikasi nazariyasida alohida ahamiyatga molik davr sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yoshda inson organizmida bir vaqtning o'zida bir nechta

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

jiddiy o'zgarishlar yuz beradi: pubertat davrining pikiga yaqinlashuv, gormonal tizimning qayta moslashuvi, suyak–mushak apparatining jadal o'sishi, asab–mushak koordinatsiyasining yangi sifat darajasiga ko'tarilishi. Aynan shu yosh oralig'i kuch–tezlik sifatlarining va texnik ko'nikmalarning sensitiv davri bilan to'g'ri keladi va texnik takomillashtirish uchun «oltin yosh» deb e'tirof etiladi (Williams & Hodges, 2005; Vaeyens et al., 2008; Ford et al., 2010).

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda futbolni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son va 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bolalar va o'smirlar futboli sohasida tarkibiy o'zgarishlarni va ilmiy asoslangan pedagogik metodikalarning ishlab chiqilishini taqozo etadi. Shu bilan birga, mahalliy ilmiy maktabda yosh futbolchilarni tayyorlashning zamonaviy metodologik asoslari, ayniqsa statik va dinamik mashqlarni texnik tayyorgarlik bilan kompleks integratsiyalashtirgan pedagogik yondashuvlar yetarli darajada empirik tasdiqlanmagan, Farg'ona vodiysining mintaqaviy iqlim sharoitlari ta'siri masalasi ham alohida ilmiy tahlilni taqozo etadi.

Key words: *Specialized motor preparation, physical and technical conditioning, applied gymnastics exercises, principal gymnastic tools for developing coordination and strength endurance, practical competencies and theoretical knowledge.*

DEVELOPMENT OF MOTOR SKILLS, PROFESSIONAL KNOWLEDGE, AND COMPETENCIES IN BASIC GYMNASTICS

Annotatsiya. *The article examines the organization of educational and methodological activities for future gymnastics teachers and coaches. Particular attention is given to implementing didactic principles that are essential to physical education, including integrity, optimality, and the professional-pedagogical orientation of instruction.*

Ключевые слова: *Специальная двигательная подготовка, физическая и техническая подготовленность, упражнения прикладной гимнастики, основные гимнастические средства развития координации и силовой выносливости, практические умения и теоретические знания.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

КИРИШ

Гимнастика бўйича келажакда фаолият юритадиган ўқитувчи ва педагог-мураббийларнинг ўқув-методик ишларини ташкил этиш жисмоний тарбия амалиёти учун муҳим саналган дидактик тамойиллар — яхлитлик, мақбуллик ҳамда таълимнинг касбий-педагогик йўналтирилганлигини рўёбга чиқаришни тақозо этади.

Шу нуқтаи назардан, педагогика соҳасида тадқиқот жараёнларининг сифати ва натижадорлигини ошириш масаласи алоҳида аҳамият касб этади. аниқланган зиддиятлар мамлакатимиз таълим муассасаларида жисмоний тарбия ва спорт, хусусан гимнастика йўналиши учун юқори малакали кадрларни касбий тайёрлашни ўрганиш билан боғлиқ муаммолар доирасини белгилаб беради. Келтирилган ҳолатлар танланган тадқиқот йўналишининг долзарблигини асослайди.

Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университетида гимнастика бўйича ихтисослашаётган талабаларда касбий билим ва кўникмаларни босқичма-босқич шакллантириш дастурини ишлаб чиқиш ҳамда уни тажриба-синовда асослаш.

Тадқиқот фарази. Гимнастикани ўқитишга касбий тайёргарлик яхлит педагогик жараён сифатида қаралиб, унинг асосини ўқув-машғулот жараёнини самарали бошқариш орқали амалга ошириладиган ҳаракат тайёргарлигини табақалаштириш ташкил этади, деб фараз қилинди.

Тадқиқот мақсадига мувофиқ қуйидаги вазифа белгиланди:

ўқув ва педагогик амалиёт натижалари асосида талабаларнинг назарий билимлари ҳамда амалий кўникмаларини баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш.

МЕТОДОЛОГИЯ

Тадқиқот методлари: назарий манбаларни таҳлил қилиш ва умумлаштириш; педагогик кузатиш; гимнастика ихтисослиги талабаларининг

жисмоний ҳамда спорт-техник тайёргарлик ҳолатини баҳолаш; математик статистика методлари.

Тадқиқот 2022 йил январь-май ойларида Чирчиқ шаҳридаги Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия университетининг Гимнастика назарияси ва услубияти кафедрасида амалга оширилди. Унда гимнастика бўйича ихтисослашаётган 1-4 босқич талабалари иштирок этди. Тадқиқот ишлари уч босқичда ташкил қилинди.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ

Педагогик кузатишлар натижаларига кўра, ўқитувчилар машғулотлар давомида саф ва умумривожлантирувчи машқларни ўзлаштириш ҳамда такомиллаштириш учун белгиланган вақтни асоссиз равишда оширган. Натижада снарядлардаги машқларни ўргатиш ва такомиллаштиришга мўлжалланган вақт 23,5% га қисқарган. Шу сабабли курс раҳбарлари кўпкурашнинг уч тури ўрнига фақат икки тури бўйича машғулот ўтказишга мажбур бўлган. Бу ҳолат талабаларнинг дастурда режалаштирилган машқларни ўзлаштириши ва ўқув амалиётини тўлиқ ҳажмда бажариш имкониятини чеклаган **(1-2-расмлар).**



1-расм. «Гимнастика» ихтисослиги талабаларининг саккиз семестр давомида саф машқларини ўтказишга оид назарий билимлари ва амалий кўникмалари кўрсаткичларининг ўзгариш динамикаси

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37



2-расм. «Гимнастика» ихтисослиги талабаларининг саккиз семестр мобайнида УРМ ўтказиш бўйича назарий билимлари ва амалий кўникмалари кўрсаткичларининг динамикаси

Хронометрик маълумотларга биноан, ўқув машғулотларида сафда бажариладиган УРМга режада назарда тутилганига нисбатан етарли вақт ажратилган бўлса-да (мос равишда 13.8±1.23 ва 21.7±0.63%), талабалар комплексларни назарий жиҳатдан етарлича ўзлаштира олмаган. Улар бўлинмаларда, айниқса педагогик ва ташкилий амалиёт даврида, машқларни аниқ асослаш, ифодали кўрсатиш ва методик жиҳатдан тўғри ўтказишда жиддий камчиликларга йўл қўйган. амалий кўникмалар кўрсаткичи педагогик амалиёт бошида ошган (6-семестрда 6.2±0.77 балл), аммо ўқув йили охирига келиб яна пасайган (8-семестрда 5.75±0.73 балл). Назарий билимлар даражаси эса таълимнинг барча босқичларида сезиларли даражада паст бўлиб қолган (3.98±0.64 ва 5.23±0.54 балл).

Гимнастика назарияси ва методикасига кўра, амалий гимнастика (аГ) машқлари инсон жисмоний фаолиятининг турли йўналишларида амалий аҳамиятга эга бўлиш билан бирга, куч, тезкорлик, чидамлилик ва эпчиллик сифатларини ривожлантиришда ҳам муҳим ўрин тутади. Энг катта пасайиш «Тирмашиб чиқиш машқлари» ҳамда «Мувозанат машқлари» бўйича қайд

этилган. 4-босқич талабаларининг 70% дан зиёди синов вазифаларини нафақат техника, балки аГга оид назорат машқини ўргатиш методикаси бўйича ҳам жиддий хатолар билан бажарган (5.75±0.67 балл) (3-расм).



3-расм. Талабаларнинг амалий машқларни ўтказишга оид назарий билимлари ва амалий кўникмалари кўрсаткичларининг ўзгариш динамикаси

Назорат синовлари натижалари координацион қобилиятлар (5.89±0.89 балл), динамик куч (6.7±1.02 балл), статик куч (6.97±0.97 балл), шунингдек, координацион ва куч чидамлилиги (6.67±0.79 балл) кўрсаткичлари талаб этиладиган даражадан анча паст эканини кўрсатди (4-расм). Шу боис МЖТнинг паст даражаси талабаларга машқланганлик ва махсус ҳаракат тайёргарлигининг режалаштирилган кўрсаткичларига эришиш имконини бермаган.



4-расм. 2 ва 3-босқич талабаларининг жисмоний тайёргарлиги бўйича назорат мусобақаларини эксперт баҳолаш натижалари

Мураккаб ҳаракат координациясига асосланган спорт турлари бўйича етакчи назариётчилар тавсиялари ва дастлабки тадқиқот натижалари қуйидагиларни белгилаш имконини берди: асосий гимнастика воситаларининг семестрлар ҳамда ўқув йиллари кесимидаги фоиз нисбатлари; уларни СПМо курси, академик ва ўқув-машқ машғулотларида мақбул тақсимлаш; махсус ҳаракат тайёргарлиги даражаси (5-расм). Ушбу маълумотлар асосида 1-4 босқич талабаларида ҳаракат малакалари, касбий-педагогик билим ва кўникмаларни изчил шакллантиришга қаратилган комплекс дастур ишлаб чиқиш имконияти яратилди.



5-расм. 1-4 босқич талабаларининг ўқув дастури машқлари ва кўпкураш малакавий дастури элементларини ўзлаштириш бўйича амалий кўникма ҳамда назарий билим кўрсаткичлари динамикаси

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ХУЛОСА

Снарядларда бажариладиган машқларни ўзлаштириш технологияси, махсус ҳаракат (хореографик), жисмоний ва техник тайёргарликка оид дастур элементларини ўргатиш, шунингдек, ўқув ва машқ машғулотларини ташкил этиш восита ҳамда методларидан фойдаланишга доир касбий-педагогик вазифалар энг кам даражага туширилган, айрим ҳолларда эса умуман амалга оширилмаган. Шу сабабли талабалар ўқув амалиёти жараёнида асосий гимнастика воситалари ва усулларини танлашда, шунингдек, гимнастика кўпкураши машғулотларини ўтказишда қийналган (3.6-расм). Жисмоний ва махсус ҳаракат тайёргарлигига оид машғулотларни ташкил қилиш ҳамда ўтказиш борасидаги ҳолат ҳам етарли даражада эмас. Мазкур билимлар гимнастика бўйича бўлажак мутахассиснинг мамлакатимиздаги ўқув ва соғломлаштириш муассасаларида фаолият юритиши учун зарур ҳисобланади.

ФоЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

бдуллаев а., Ханкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усулияти: Дарслик., - Т.,2005. – 231 б.

shtayeva.K. Sport gimnastikasi mashgulotining nasariy asoslari (uslubiy qo'llanma). O`DJTI nashriyot-matbaa bo`limi. T.: 2009. – 113 b.

усаев Б.Р. олий педагогик таълим муассасалари талабаларининг гимнастика бўйича касбий-педагогик кўникмаларини шакллантириш. Дисс. … канд. пед. наук. - Ташкент: УзГИФК, 2011. - 180 б..

маров Д.Х. Ёш гимнастикачилар жисмоний сифатларини тайёр-гарлик босқичида ривожлантириш технологияси.Дисс… канд. пед. наук.- Т.: УзГИФК, 2007. -187 б.

5. Xaytmetov I.S. "Sport pedagogik maxoratini oshirish" (Badiiy gimnastika) Xoreografik mashqlarini o'tkazish uslubiyoti O'quv-qo'llanma –T.: « Davr matbuot savdo», 2020 y 176 bet.

PRINCIPLES FOR FOSTERING INDEPENDENT THINKING IN GRADES 7-8 THROUGH ENGLISH EDUCATION

Khamidova Irodakhon Bobir kizi
PhD student, Namangan State University
E-mail: irodaxonbobirqizi@gmail.com
Tel: +99893 506-19-96

Abstract: *This article explores the foundations for fostering independent thinking in 7th- and 8th-grade students through English language education. Drawing on perspectives from both Uzbek and international experts, the research outlines four primary categories of principles: linguistic, didactic-pedagogical, psychological-psycholinguistic, and methodological. Each category contributes to enhancing students' critical reflection, creativity, autonomy, and problem-solving skills. The research highlights that principles such as student-centered instruction, the integration of teaching and learning, awareness, engagement, clarity, accessibility, sustainability, and a scientific basis form a strong groundwork for encouraging higher-order thinking in secondary education. By consistently implementing these principles, English lessons become more than just a means of language acquisition; they serve as an effective platform for cultivating independent, self-directed thinkers.*

Keywords: *independent thinking, English language teaching, secondary school learners, linguistic principles, didactic-pedagogical principles, psychological-psycholinguistic principles, methodological principles, critical reflection.*

ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ НЕЗАВИСИМОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧЕНИКОВ 7-8 КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: *В данной статье рассматриваются основы развития независимого мышления у учащихся 7-8 классов посредством изучения английского языка. Опираясь на мнения узбекских и международных экспертов, исследование выделяет четыре основные категории принципов: лингвистические, дидактически-педагогические, психолого-психолингвистические и методологические. Каждая категория способствует развитию у учащихся критического мышления, креативности, самостоятельности и навыков решения проблем. Исследование подчеркивает, что такие принципы, как ориентированное на ученика обучение, интеграция преподавания и обучения, осведомленность, вовлеченность, ясность, доступность, устойчивость и научная основа, формируют прочную основу для развития мышления более высокого порядка в средней школе. Последовательное применение этих принципов делает уроки английского языка не просто средством усвоения языка, а эффективной платформой для воспитания независимых, самостоятельных мыслителей.*

Ключевые слова: *независимое мышление, преподавание английского языка, учащиеся средней школы, лингвистические принципы, дидактически-педагогические принципы, психолого-психолингвистические принципы, методологические принципы, критическое осмысление.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

7-8-SINFLARDA INGLIZ TILI TA'LIMI ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Annotatsiya*: Ushbu maqolada 7 va 8-sinf o'quvchilarida ingliz tili ta'limi orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish asoslari o'rganiladi. O'zbek va xalqaro mutaxassislarning nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, tadqiqot tamoyillarning to'rtta asosiy toifasini ajratib ko'rsatadi: lingvistik, didaktik-pedagogik, psixologik-psixolingvistik va metodologik. Har bir toifa o'quvchilarning tanqidiy mulohazalarini, ijodkorligini, mustaqilligini va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirishga hissa qo'shadi. Tadqiqotda o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim, o'qitish va o'rganishni integratsiyalash, xabardorlik, ishtirok, aniqlik, kirish imkoniyati, barqarorlik va ilmiy asos kabi tamoyillar o'rta ta'limda yuqori darajadagi fikrlashni rag'batlantirish uchun mustahkam zamin yaratishi ta'kidlangan. Ushbu tamoyillarni izchil amalga oshirish orqali ingliz tili darslari shunchaki tilni o'zlashtirish vositasidan ko'proq narsaga aylanadi; ular mustaqil, o'zini o'zi boshqaradigan fikrlovchilarni tarbiyalash uchun samarali platforma bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *mustaqil fikrlash, ingliz tilini o'qitish, o'rta maktab o'quvchilari, lingvistik tamoyillar, didaktik-pedagogik tamoyillar, psixologik-psixolingvistik tamoyillar, metodologik tamoyillar, tanqidiy mulohaza.*

INTRODUCTION

This article provides important insights and suggestions on how to implement effective strategies for encouraging independent thinking in 7th and 8th grades through English teaching. These strategies assist both educators and students in delivering quality lessons and cultivating future independent thinkers. Consequently, students are able to engage in authentic language usage and enhance their critical thinking abilities. Promoting independent thinking is a primary goal in modern education as it equips students to think critically, evaluate information, and make independent choices. This research, which incorporates both Uzbek and global academic perspectives, highlights the significance of organized teaching strategies. These strategies not only enhance language skills but also contribute to the development of advanced cognitive abilities.

LITERATURE REVIEW

Scholars from both international and local backgrounds, along with Professor Jamol Jalolovich Jalolov, clarify that the rules and guidelines for educating students are

known as principles. A principle denotes a systematic idea, whereas a method represents a broader overview of a collection of principles. The guidelines they implement in their teaching are essential principles that influence the learning process. These principles are formulated based on the chosen methods and approaches pertinent to particular instruction. In contemporary teaching methodology, the term "principle of teaching" frequently suggests that both educators and learners have a significant role in foreign language education. However, the learning process is a multifaceted system that encompasses the actions of both the teacher and the student. Effective organization of this process is unattainable without a solid foundation of clearly defined principles. These principles are fundamental to the interactions between the teacher and the student. It is important to note that many researchers and scholars have identified various principles for developing methods and techniques in the domain of foreign language teaching methodology. We categorize them as follows: Muhabbat Shakirovna Ruzmetova emphasizes in her research that the principles of foreign language instruction are grounded in the foundational work of E.I. Passov (1965–1970). This structure builds upon the general didactic principles suggested by Ya.A. Kamensky and also incorporates contemporary linguistic, didactic-pedagogical, psychological-psycholinguistic, and methodological perspectives specific to foreign language teaching. These interconnected principles facilitate the achievement of educational and methodological goals. The selection and implementation of teaching methods and techniques are guided by these principles to ensure alignment with their intended objectives. According to international scholars, Larsen-Freeman and S.L. Mackay assert that linguistic, didactic, and psychological factors are vital in foreign language instruction.

METHODOLOGY

The research employs a theoretical and analytical framework that incorporates perspectives from prominent authorities in linguistics, pedagogy, psychology, and methodology. The principles of teaching foreign languages are classified into four

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

distinct categories: linguistic, didactic-pedagogical, psychological-psycholinguistic, and methodological. Each category is assessed for its potential to foster independent, reflective, and creative learners within secondary education. We examined the writings of J.J. Jalolov, M.Sh. Ruzmetova, SH. Tajibayev, E.I. Passov, V.E. Peshkova, L.P. Solonsova, Larsen-Freeman, and S.L. Mackay concerning the methodologies for teaching foreign languages. Based on their insights, we identified and emphasized the key principles that are most relevant to teaching English at the secondary school level.

I: Linguistic Principles: These principles focus on the systematic advancement of language abilities, concentrating on the structure, sounds, grammar, and vocabulary of the English language. They ensure that teaching approaches are in line with the language's linguistic features, fostering both precision and fluency.

II. Didactic-Pedagogical Principles: These principles are grounded in established educational theories. They underline the significance of organized lesson planning, clear goals, and the gradual development of independent thinkers. Key concepts include accessibility, consistency, and intentional learning. These notions guarantee that instruction is structured and effective.

The didactic principles relevant to teaching foreign languages can be summarized as follows:

1. L.P. Solonsova emphasizes that **the Principle of Personally Oriented Teaching** is essential for promoting independent thinking. By prioritizing personalized learning, this principle empowers students to become self-sufficient thinkers who define their own educational objectives. It fosters creativity, improves self-awareness, and cultivates personal characteristics that support self-growth. This method shifts the interaction between teachers and students into a partnership based on shared knowledge instead of authoritarian dominance, motivating learners to express their thoughts, consider diverse perspectives, and engage in meaningful conversations. Such a setting promotes critical

reflection and decision-making, thereby developing the skills necessary for independent and self-directed thinking.

2. **The Principle of Integrating Teaching and Learning.** In fostering independent thinking, the teacher plays a vital role and remains an active participant in the educational experience. The teacher's professional impact is crucial, as they guide, demonstrate, and support the development of students' cognitive and reflective skills. By implementing the principle of "Integration of Teaching and Learning," educators not only deliver knowledge but also encourage cultural awareness, ethical reasoning, and critical thinking. They provide learners with opportunities to share their thoughts, assess various viewpoints, and make independent choices. In our study, this principle was included because promoting independent thinking necessitates the teacher's intentional and professional involvement in nurturing self-directed, reflective, and responsible learners.

3. **The Principle of Consciousness** is essential as students must understand what they are studying.

4. Alongside the principles mentioned earlier, **the Principles of Activity and Clarity** are commonly implemented in Uzbekistan's general secondary education for foreign language instruction. The Principle of Activity promotes active engagement of learners, motivating students to take part in hands-on tasks, discussions, and problem-solving activities that boost their cognitive and communication skills. The Principle of Clarity is vital for educators to present educational materials in a well-organized and understandable way, aiding comprehension and retention. Collectively, these principles effectively contribute to the cultivation of independent thinking by allowing learners to actively engage with content, clearly grasp concepts, and autonomously apply knowledge in meaningful situations.

5. **The Principle of Durability** ensures that educational content remains memorable and can be applied in various communication situations. Retaining material

effectively involves making it accessible, implementing a range of exercises, and presenting it in a way that evokes an emotional response from learners. This principle is linked to the principle of consciousness: what students understand and grasp is more likely to be memorized successfully. A key factor in the durability of material retention is providing ample practice with the educational content to allow for its free reproduction and application in communicative and verbal contexts.

6. **The Principle of Accessibility and Feasibility** asserts that educational materials should be designed according to the students' age and cognitive abilities from the start. This principle reflects how training is organized to align with students' skills, ensuring they do not face overwhelming challenges. However, this does not mean challenges should be absent; facing difficulties is essential for fostering a sense of achievement. It is important to maintain an acceptable level of difficulty, following the guideline of one challenge at a time. This strategy helps achieve a fundamental aim of education: to cultivate a desire to learn rather than stifle it. Feasibility is indicated by the amount of content presented, the required level of understanding, and the pace of advancement. This principle should also guide decisions regarding the quantity and type of homework assigned.

7. **The Principle of Scientific Basis in Learning** emphasizes that education should be grounded in the latest developments in language science, pedagogy, didactics, psycholinguistics, psychology, and related fields.

8. **The Principle of Purposefulness and Motivation** in education asserts that the learning process, which involves a complex and interconnected interaction between teachers and students, must be directed towards specific goals and motivations that align with the personal ambitions of the students.

The learning process is steered by overarching objectives established by society and educational curricula, along with particular aims set by the educator for each part of the educational journey, which take into account the nature of the educational institution.

It is crucial for teachers to accurately pinpoint specific objectives for every category of activity—educational, formative, and developmental—and to focus all their efforts on achieving these goals.

This intentionality is mirrored in the selection of teaching methods, the organization of lessons, the content of instructional strategies, and the educational resources used.

In essence, the whole educational process should be directed at reaching the established objectives efficiently and with minimal expenditure of time and effort from both educators and students (i.e., in an optimal manner).

9. **The principle of a personalized approach to learners** necessitates the creation of ideal conditions for each student's successful learning during both group and whole-class activities. To effectively carry out this principle, the teacher examines the unique characteristics of every student, as well as the contexts in which they live and study, and incorporates these factors into the organization of the educational process.

III. Psychological-Psycholinguistic Principles: These principles center on the cognitive and emotional dimensions of language learning, taking into account aspects such as learners' motivation, memory, and personal learning styles. They highlight the importance of fostering a supportive environment that promotes active participation and alleviates anxiety when using the language.

IV. Methodological Principles: Within the realm of foreign language instruction, these principles inform the selection of communicative, task-oriented, and immersive strategies designed to achieve practical language skills. They advocate for interactive, student-centered methods tailored to the specific objectives of language teaching. Collectively, these principles influence the planning and execution of English language instruction, ensuring that the approaches and techniques align deliberately with educational goals. By following these guidelines, teachers can promote effective and lasting language learning.

RESULTS

The analysis indicates that principles such as individualized instruction, the blending of teaching and learning, awareness, active participation, clarity, accessibility, durability, and a scientific foundation create a strong basis for promoting independence. These principles inspire learners to actively engage with the material, share their viewpoints, consider various perspectives, and utilize their knowledge in real-world situations. By methodically integrating these principles, English lessons evolve from simple language teaching into a tool for fostering intellectual autonomy.

DISCUSSION

The results imply that English instruction for grades 7–8, influenced by these principles, aids in developing independent thinkers who can reflect critically, solve problems, and pursue lifelong learning. This underscores the dual purpose of language education: enhancing communicative skills while also nurturing independent and creative individuals.

CONCLUSION

To summarize, the foundations for fostering independent thinking among learners in grades 7–8 through English language instruction include linguistic, didactic-pedagogical, psychological-psycholinguistic, and methodological aspects. Researchers from Uzbekistan and internationally—such as J.J. Jalolov, M.Sh. Ruzmetova, E.I. Passov, L.P. Solonsova, D. Larsen-Freeman, and S.L. Mackay—stress the necessity of balancing language structure with communicative practices. They further highlight the importance of merging clear didactic approaches with creativity while promoting motivation along with learner autonomy.

These principles not only facilitate organized and focused teaching but also establish an atmosphere where students are motivated to actively participate, think critically, and make independent choices throughout their educational journey. As a result, implementing these principles in secondary education transforms language classes into

a space for nurturing self-sufficient, analytical, and innovative thinkers equipped for lifelong learning.

REFERENCES

1. Jalolov, J.J "Foreign Language Teaching Methodology". Tashkent. 2012. pp. 17-18.
2. Jalolov, J.J "Foreign Language Teaching Methodology". Tashkent. 2012. pp. 89-90.
3. Larsen-Freeman, D. "Techniques and Principles in Language Teaching". 2nd edn. Oxford: Oxford University Press. 2000. p.252.
4. Lyakhovitsky, M.V. "On some basic categories of methods of teaching foreign languages" // IYASh. 1973.
5. Makhkamova, G.T. "Reflections on the Communicative-Cumulative Method of Teaching a Foreign Language". Foreign Philology. No. 1, 2019, Tashkent. pp. 13–18.
6. McKay, S.L. "Teaching English as an International Language". Oxford: Oxford University Press, 2002, 381 p.
7. Milrud, R.P. "English Teaching Methodology". Moscow. 2005. 254 p.
8. Palmer, H.E. "The Principles of Language Study". Yonkers-on-Hudson, New York: World Book Company. 1921. 196 p.
9. Passov, E.I. "Foreign Language Lesson in High School". Moscow: Education. 1988. 223 p.
10. Peshkova, V.E. "Lecture Course: Theory of Teaching (Didactics)". Maikop, 2010. p. 25.
11. Richards, J.C., Rodgers, Th.S. "Approaches and Methods in Language Teaching". Second edition. Cambridge: Cambridge University Press. 2009. 270 p.
12. Rogova, G.V. "Methods of Teaching English". Moscow: Prosveshchenie. 1975.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Xojikulova Oltinoy Akramovna
Andijon davlat tibbiyot instituti o`qituvchisi
E-mail: akramovnaoltinoy@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Mustaqil ta'limni tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni, raqamli platformalarning pedagogik imkoniyatlari hamda talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga ta'siriyoritilgan. Shuningdek, mustaqil ta'limni samarali tashkil etishning metodik asoslari va mavjud muammolari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim, mustaqil ta'lim, kompetensiya, innovatsion texnologiyalar,elektron ta'lim, masofaviy ta'lim, ta'lim sifati, pedagogik texnologiyalar.*

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы развитиякомпетенций самостоятельного обучения студентов в условиях цифровой. -образовательной среды Рассмотрены роль современных информационно,коммуникационных технологий в организации самостоятельного обученияпедагогические возможности цифровых платформ и их влияние на. повышение учебной активности студентов Также освещены методическиеосновы эффективной организации самостоятельного обучения и.существующие проблемы в данной области:*

Ключевые слова: *цифровое образование самостоятельное обучение, компетенция инновационные технологии электронное обучение, дистанционное образование качество образования педагогические.технологии.*

DEVELOPING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING COMPETENCES IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

Abstract: *This article analyzes the development of students' self-learning competencies in adigital educational environment. The role of modern information and communication technologiesin organizing independent learning, the pedagogical opportunities of digital platforms, and theirimpact on increasing students' learning activity are examined. The methodological foundations ofeffective independent learning and existing challenges in this field are also discussed.*

Keywords: *digital education, self-learning, competence, innovative technologies, e-learning,distance education, educational quality, pedagogical technologies.*

KIRISH

Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimida mustaqil ta'limning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda talabalardan nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish, balkimustaqil ravishda yangi bilimlarni izlash, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalariga egabo'lish talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli ta'lim muhiti mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Talabalar elektron kutubxonalar, onlayn kurslar, ta'limplatformalari va ilmiy ma'lumotlar bazalari orqali mustaqil bilim olish imkoniyatiga egabo'lmoqdalar. Raqamli ta'lim muhiti o'quv jarayonining moslashuvchanligini ta'minlab,talabalarga o'zlari uchun qulay vaqt va joyda ta'lim olish imkonini yaratadi. Bu esa ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar talabalarning axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va undan samaralifoydalanish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Mustaqil ta'lim jarayonida zamonaviy raqamlivositalardan foydalanish talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham takomillashtiradi. Natijada ular o'z kasbiy faoliyatida uchraydigan muammolarni mustaqil haletish malakasiga ega bo'ladilar. Raqamli ta'lim muhiti orqali tashkil etilgan mustaqil ta'lim talabalarning mas'uliyat hissini oshiradi va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, talabalarda uzluksiz ta'lim olishga bo'lgan ehtiyoj va motivatsiya kuchayadi. Oliyta'lim muassasalarida raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirish hamda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim omillaridan birihisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimida mustaqil ta'limning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda talabalardan nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish, balki mustaqil ravishda yangi bilimlarni izlash, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalariga egabo'lish talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli ta'lim muhiti mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Talabalar elektron kutubxonalar, onlayn kurslar, ta'lim platformalari va ilmiy ma'lumotlar bazalari orqali mustaqil bilim olish imkoniyatiga egabo'lmoqdalar. Raqamli ta'lim muhiti o'quv jarayonining moslashuvchanligini ta'minlab, talabalarga o'zlari uchun qulay vaqt va joyda ta'lim olish imkonini yaratadi. Bu esa ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek,raqamli texnologiyalar talabalarning axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va undan samaralifoydalanish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Mustaqil ta'lim jarayonida zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini hamtakomillashtiradi. Natijada ular o'z kasbiy faoliyatida uchraydigan muammolarni mustaqil haletish malakasiga ega bo'ladilar. Raqamli ta'lim muhiti orqali tashkil etilgan mustaqil ta'limtalabalarning mas'uliyat hissini oshiradi va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.Shu bilan birga, talabalarda uzluksiz ta'lim olishga bo'lgan ehtiyoj va motivatsiya kuchayadi. Oliyta'lim muassasalarida raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ta'lim sifatinioshirish hamda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim omillaridan birihisoblanadi. Raqamli platformalar yordamida talabalarning bilim darajasini muntazam monitoringqilish va natijalarini tahlil etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ta'lim jarayonini individuallashtirish va har bir talabaning ehtiyojlariga mos yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi. Onlayn ta'lim resurslari talabalarning

mustaqil izlanish olib borishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Raqamli muhitda ishlash jarayonida talabalarda axborot madaniyati va raqamli savodxonlik ko‘nikmalari shakllanadi. Mazkur ko‘nikmalar zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyatyuritish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar talabalarninghamkorlikda ishlash, muloqot qilish va jamoaviy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada mustaqil ta’lim jarayoni yanada samarali, interaktiv va natijador tus oladi. Demak, raqamli ta’lim muhiti talabalarning mustaqil ta’lim kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Onlayn ta’lim platformalari talabalarning o‘quv faoliyatini monitoring qilish, natijalarni baholash va individual tavsiyalar berish imkoniyatini yaratadi. Ushbu platformalar orqali talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligi muntazam nazorat qilib boriladi. Olingan ma’lumotlar asosida har bir talabaning bilim darajasi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Bu esa o‘quvjarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Onlayn platformalar talabalarga o‘zlashtirilmagan mavzular bo‘yicha qo‘shimcha materiallar tavsiya etadi. Natijada talabalarningo‘z ustida ishlash motivatsiyasi ortadi va ta’lim sifati yaxshilanadi. Shuningdek, elektron ta’limvositalari talabalarning mustaqil fikrlash va izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quv jarayonining shaffofligi va natijadorligi ham sezilarli darajada oshadi. Talabalar o‘z bilim darajasini muntazam nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularda mas’uliyat hissining shakllanishiga yordam beradi. Biroq raqamli ta’lim muhitida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, internet tarmog‘idagi axborotlarning haddan tashqari ko‘pligi talabalarni kerakli ma’lumotni tanlashda qiyinchiliklarga duchor qilishi mumkin. Ba’zi hollarda ishonchsiz yoki ilmiy asoslanmaganma’lumotlardan foydalanish holatlari uchrab turadi. Raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi ham ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Talabalarning barcha raqamli vositalardan samarali foydalanish

ko'nikmalariga ega emasligi muammolarni yuzaga keltiradi. Shuningdek, internet resurslaridan maqsadsiz foydalanish vaqtning samarasiz sarflanishiga sababbo'ladi. Ayrim talabalar ijtimoiy tarmoqlar va ko'ngilochar platformalarga ortiqcha vaqt ajratishlarimumkin. Bu esa ularning o'quv faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Raqamli qurilmalar vainternetdan haddan tashqari foydalanish sog'liq bilan bog'liq ayrim muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli pedagoglar tomonidan talabalarning mustaqil faoliyatini metodikjihatdan qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. O'qituvchilar talabalarga axborotlarni tanlash, tahlil qilish va ulardan maqsadli foydalanish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berishlari zarur. Shuningdek, raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar raqamli ta'lim muhitining samaradorligini oshirish vatalabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim muhiti talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish orqali talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, mustaqil fikrlashi vakasbiy kompetensiyalari rivojlanadi

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январда Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномаси. https://uza.uz/oz/politics/ zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevningoliy-25-01-2020.

2. Шаронин Ю.В. Цифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от личностно ориентированной Smart-дидактики к блокчейну в целевой подготовке специалистов // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 1.

3. Xashimova, D. (2019). ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ФАКТОР ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА СТРАН В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Архив научных исследований, 1(1). извлечено от https://journal.tsue.uz/index. php/archive/article/view/291

4.To'xtayev B. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2023. – 256 b.

5.Jo'rayev R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2022. – 312 b.

6.Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2017. – 416 b.
7.UNESCO. Digital Learning and Transformation of Education. – Paris, 2023. – 78 p.
8.Qodirova M.B. Bo'lajak pedagoglarda badiiy-tarixiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarnirivojlantirishda innovatsion yondashuv tamoyillari // Filoloji ve Kültür Araştırmaları. – 2025. –B. 71-76

TALABALARNI OMMAVIY SPORT BILAN MUNTAZAM SHUG'ULLANISHGA JALB ETISHDA TANITA BIOIMPEDANS ANALIZATORI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Bobomuradov Abdurafiq Egamuradovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sportda ilmiy tadqiqotlar instituti
E-mail: bobomurodov0709@gmail.com

Annotatsiya: *Talabalar o'rtasida ortiqcha vazn, semizlik va jismoniy passivlikning tarqalishi global muammoga aylanib, ularni ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, Tanita bioimpedans analizatori (BIA) va zamonaviy raqamli texnologiyalardan (mobil ilovalar, kiyiladigan qurilmalar, virtual reallik, gamifikatsiya) birgalikda foydalanishning talabalarni ommaviy sport faoliyati samaradorligi tizimlashtirilgan adabiyotlar tahlili asosida o'rganildi. Tanita BIA texnologiyasi talabalar guruhida tana tarkibini baholashda yuqori ishonchlilik va validlikka ega (r=0,90–0,94), shu bilan birga uni raqamli monitoring, real vaqt qaytar aloqasi va gamifikatsiya elementlari bilan birlashtirilgan holda qo'llash mashqlarga sodiqlikni va tana tarkibi ko'rsatkichlarini sezilarli yaxshilaydi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *bioimpedans analizi; Tanita; tana tarkibi; raqamli texnologiyalar; talabalar; ommaviy sport; jismoniy faollik; gamifikatsiya.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БИОИМПЕДАНСНОГО АНАЛИЗАТОРА TANİTA И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СТИМУЛИРОВАНИИ СТУДЕНТОВ К РЕГУЛЯРНОМУ УЧАСТИЮ В ПОПУЛЯРНЫХ ВИДАХ СПОРТА

Аннотация: *Распространение избыточного веса, ожирения и физической пассивности среди студентов стало глобальной проблемой, привлечение их к регулярным занятиям массовым спортом, эффективность совместного использования анализатора биоимпеданса (BIA) Таниты и современных цифровых технологий (мобильных приложений, носимых устройств, виртуальной реальности, геймификации) была изучена на основе систематизированного анализа литературы. Технология Tanita BIA обладает высокой достоверностью и валидностью (r=0,90–0,94) при оценке состава тела в группе студентов, при этом ее применение в сочетании с цифровым мониторингом, обратной связью в реальном времени и элементами геймификации значительно улучшает приверженность тренировкам и показатели состава тела. Разработаны практические рекомендации для системы высшего образования Узбекистана.*

Ключевые слова: *анализ биоимпеданса; Танита; телосложение; цифровые технологии; студенты; массовый спорт; физическая активность; геймификация.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

EFFECTIVENESS OF USING THE TANITA BIOIMPEDANCE ANALYZER AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN ENCOURAGING STUDENTS TO REGULARLY ENGAGE IN POPULAR SPORTS

Abstract. *The prevalence of overweight, obesity, and physical inactivity among students has become a global problem, and the effectiveness of involving them in regular mass sports, the combined use of the Tanita bioimpedance analyzer (BIA), and modern digital technologies (mobile applications, wearable devices, virtual reality, gamification) has been studied based on a systematized literature analysis. Tanita's BIA technology has high reliability and validity in assessing body composition in the student group (r=0.90–0.94), while its application in combination with digital monitoring, real-time feedback, and gamification elements significantly improves exercise adherence and body composition indicators. Practical recommendations have been developed for the higher education system of Uzbekistan.*

Key words: *bioelectrical impedance analysis; Tanita; body composition; digital technologies; university students; mass sport; physical activity; gamification.*

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida ortiqcha vazn va semizlikning tarqalishi so'nggi o'n yilliklarda barqaror o'sib bormoqda. 22 ta past va o'rta daromadli davlatdagi 22 mingdan ortiq talabani qamrab olgan xalqaro qiyosiy tadqiqotga ko'ra, talabalarning 22 foizi ortiqcha vazn yoki semizlikka ega bo'lib, bu ko'rsatkich erkaklarda 24,7 foizni, ayollarda 19,3 foizni tashkil etadi (2-rasm). Bu holat, o'z navbatida, jismoniy passivlik darajasining yuqoriligi bilan chambarchas bog'liq: 23 davlatni qamrab olgan boshqa bir tadqiqotda talabalar orasidagi o'rtacha jismoniy passivlik darajasi 41,4 foizga yetganligi aniqlangan. Ortiqcha vazn va past jismoniy faollik talabalarning yurak-qon tomir tizimi, metabolik salomatligi va akademik faoliyatiga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shu sababli ularni erta bosqichda ob'ektiv usullar bilan aniqlash va ommaviy sport faoliyatiga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Tana tarkibini baholashning an'anaviy usuli- tana-massa indeksi (BMI)- faqat vazn va bo'yning nisbatiga asoslanib, mushak va yog' massasini farqlay olmaydi, bu esa sportchi yoki faol shug'ullanuvchi shaxslarda noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli so'nggi yigirma yil davomida bioelektrik impedans tahlili (BIA) usuli tana

tarkibini (yog‘ massasi, yog‘siz massa, tana suvi, mushak massasi) baholashning arzon, tezkor va noinvaziv usuli sifatida keng tatbiq etilmoqda. Yevropa klinik oziqlanish va metabolizm jamiyati (ESPEN) tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalarda BIA usulining nazariy asoslari, qo‘llash protokollari va cheklovlari batafsil yoritilgan.

BIA texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan keng tarqalgan tijorat qurilmalaridan biri- Tanita kompaniyasining oyoq-oyoq (foot-to-foot) tizimidagi tana tarkibi analizatorlaridir. Ushbu qurilmalar foydalanuvchining vazn platformasiga oddiygina kirib turishi orqali bir necha soniya ichida tana yog‘i foizi, mushak massasi, suyak massasi va tana suvi miqdorini hisoblab beradi. Keksa yoshdagi kattalar o‘rtasida o‘tkazilgan validatsiya tadqiqotida Tanita tizimi an’anaviy qo‘l-oyoq BIA usuli bilan yuqori korrelyatsiyaga ega ekanligi ($r=0,84$; $p<0,001$) isbotlangan. Bevosita kollej talabalari ishtirokida o‘tkazilgan yaqinroq tadqiqotda esa Tanita, RJL va Omron BIA qurilmalari havo siqilishi pletizmografiyasi (BodPod) natijalari bilan solishtirilgan va Tanita qurilmasining yog‘siz tana massasini bashorat qilishdagi validligi erkaklarda $r=0,934$, ayollarda $r=0,898$ darajasida, ishonchliligi esa 0,92–0,99 oralig‘ida ekanligi aniqlangan (1-rasm). Bu natijalar Tanita BIA qurilmalarining aynan talaba-yoshlar populyatsiyasida tana tarkibini baholash uchun ilmiy jihatdan asoslangan vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, faqat bir martalik o‘lchov o‘tkazishning o‘zi xulq-atvor o‘zgarishini ta’minlay olmaydi. So‘nggi yillarda olimlar tana tarkibi ma’lumotlarini raqamli texnologiyalar- mobil ilovalar, kiyiladigan qurilmalar, virtual reallik (VR) tizimlari va gamifikatsiya elementlari- bilan birlashtirgan holda foydalanuvchiga real vaqtda qaytar aloqa berish konsepsiyasini faol o‘rganmoqda. Bunday “yopiq tsikl” (closed-loop) monitoring-qaytar aloqa modeli, ijtimoiy-kognitiv nazariya va o‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga asoslanib, foydalanuvchining o‘z tana tarkibidagi o‘zgarishlarni real vaqtda ko‘rishi orqali ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va mashqlarga sodiqligini oshiradi.

Tanita bioimpedans analizatori va raqamli texnologiyalarning talabalarni ommaviy sport faoliyatiga jalb etishdagi qo‘shma samaradorligini aniqlash va O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TADQİQOT NATİJALARİ VA ULARNİNG MUHOKAMASİ

Natijada tahlilga jami 17 ta birlamchi manba- metodologik sharhlar, validatsiya tadqiqotlari, randomizatsiyalangan nazorat tadqiqotlari, tizimli sharhlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining tegishli normativ-huquqiy hujjatlari kiritildi (1-jadval).

1-jadval. Tanita/BIA texnologiyasining tana tarkibini baholashdagi ishonchliligi va validligini tasdiqlovchi tadqiqotlar

Muallif(lar), yil	Tadqiq etilgan guruh	Solishtirish mezoni	Asosiy natija
Kyle va boshq. (ESPEN), 2004	Umumiy aholi (uslubiy tavsiya)	Standartlashtirilgan protokollar tahlili	BIA usulining nazariy va amaliy asoslari tasdiqlandi
Ritchie va boshq., 2005	55 yosh va undan katta kattalar (n=50)	An’anaviy qo‘l-oyoq BIA	Tanita bilan foiz tana yog‘i o‘rtasida r=0,84 (p<0,001)
Vasold va boshq., 2019	Kollej talabalari (n=77, 19,1±1,2 yosh)	Havo siqilishi pletizmografiyasi (BodPod)	Tanita validligi: erkaklarda r=0,934, ayollarda r=0,898; ICC 0,921–0,991
Musijowska, Kwilosz, 2024	Universitet talabalari (n=484)	BIA + IPAQ-SF so‘rovnomasi	Faza burchagi mushak va yog‘siz massa bilan ishonchli bog‘liq

Ma’lumotlar tavsiflovchi sintez usuli yordamida umumlashtirildi, validlik va ishonchlilik ko‘rsatkichlari (Pearson r, ICC), statistik ahamiyatlilik (p qiymati) va effekt

kattaligi (η^2) ko'rsatkichlari alohida ajratib tahlil qilindi. BIA usulining nazariy va amaliy asoslarini umumlashtirgan ESPEN ishchi guruhi hisobotiga ko'ra, bioelektrik impedans tahlili tegishli aholi guruhiga mos tenglamalar va standartlashtirilgan protokollar qo'llanilganda yog'siz tana massasi va tana suvini ishonchli aniqlash imkonini beradi. Keksa kattalar o'rtasida o'tkazilgan validatsiya tadqiqotida Tanita oyoq-oyoq tizimi an'anaviy BIA usuli bilan yuqori korrelyatsiya (r=0,84) ko'rsatgan. Bevosita kollej talabalari ishtirokida (n=77, o'rtacha yosh 19,1±1,2) o'tkazilgan so'nggi tadqiqotda Tanita, RJL va Omron qurilmalari havo siqilishi pletizmografiyasi (BodPod) bilan solishtirilgan; barcha uch qurilma ham yuqori ishonchlilik (ICC=0,92–0,99) va validlik (r=0,90–0,94) ko'rsatdi, Tanita esa erkaklarda r=0,934, ayollarda r=0,898 ko'rsatkichga erishdi (1-rasm). Bundan tashqari, 484 nafar universitet talabasini qamrab olgan polshalik tadqiqotda BIA orqali aniqlangan faza burchagi (phase angle) ko'rsatkichi yog'siz tana massasi va mushak massasi bilan statistik jihatdan ishonchli bog'liqligi aniqlangan, bu esa BIA ko'rsatkichlarining talabalar jismoniy faolligi darajasini baholashda qo'shimcha diagnostik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.



1-rasm. Talabalarning uchta bioimpedans qurilmasining yog' tana massasini baholashdagi validligi

22 davlatda o‘tkazilgan keng qamrovli tadqiqotga ko‘ra, talabalarning 22 foizi ortiqcha vazn yoki semizlikka ega, bu ko‘rsatkich erkaklarda 24,7 foiz, ayollarda 19,3 foizni tashkil etadi (2-rasm). Shu bilan parallel ravishda, 23 davlatni qamrab olgan boshqa tadqiqotda talabalarning 41,4 foizi yetarli jismoniy faollikka ega emasligi aniqlangan. Bu ikki ko‘rsatkichning birgalikda yuqori bo‘lishi shuni ko‘rsatadiki, talabalar guruhida tana tarkibi muammolari ko‘pincha jismoniy passivlik bilan birga keladi, demak ularni hal etish uchun ham obyektiv diagnostika (BIA), ham xulq-atvorni o‘zgartiruvchi vositalar (raqamli texnologiyalar) birgalikda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.



2-rasm. 22-davlat talabalari orasida ortiqcha vazn va semizlikning tarqalishi

1. English language teachers working in technical universities should systematically integrate differentiated instruction into ESP classrooms.
2. Civil Engineering curricula should include authentic professional communication tasks reflecting real workplace situations.
3. Greater emphasis should be placed on developing students' oral communicative competence rather than solely grammatical knowledge.

4. Project-Based Learning and collaborative engineering activities should become integral components of ESP instruction.

5. Digital technologies, artificial intelligence, virtual simulations, and multimedia resources should be incorporated to enhance communicative learning.

6. Continuous professional development programs should familiarize university teachers with differentiated instructional strategies.

7. Future research should investigate the long-term effects of differentiated instruction across multiple engineering disciplines and educational contexts.

References:

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A taxonomy for learning, teaching, and assessing*. Longman.
2. Brookhart, S. M. (2017). *How to give effective feedback to your students*. ASCD.
3. Littlewood, W. (2014). *Communicative Language Teaching*. Cambridge University Press.
4. Khaydarova, S. (2025). *Improving Writing Skills of Students in English*. LAP LAMBERT Academic Publishing.
5. Khaydarova, S. (2025). *English Textbook of Food Technology*. LAP LAMBERT Academic Publishing.
6. Khaydarova, S., & Khoshimova, D. (2026). *Textbook for Accounting and Auditing*. LAP LAMBERT Academic Publishing.Khaydarova, S., & Khoshimova, D. (2026). *English Textbook: English for Marketing Students*. LAP LAMBERT Academic Publishing.
7. Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan. (2024). *State Educational Standards for Higher Education*.
8. Khaydarova, S. (2026). *English for Civil Engineering* (Teaching Manual, under review by the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan).

BO'LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARDA KASBIY MASULYATNI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI SHART-SHAROITLAR

Xalimova Ozoda
Namangan davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika (logopediya) bosqich magstranti
E-mail: ozodakhalimova2@gamil.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo'lajak maxsus pedagoglarning — kelajakda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash taqdiriga o'z umrini bag'ishlaydigan defektologlarning — kasbiy mas'uliyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etiladi. Shart-sharoitlarni uch guruhga ajratiladi: tashqi muhit, ichki shaxsiy omillar va o'quv jarayonining didaktik tuzilishi.*

Kalit so'zlar: *kasbiy mas'uliyat, maxsus pedagog, defektolog, shart-sharoitlar, kasbiy shakllanish, pedagogik muhit, empatiya, amaliyot, inklyuziv ta'lim.*

УСЛОВИЯ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО СПЕЦИАЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ.

Аннотация: *В статье исследуются условия формирования профессиональной ответственности у будущих специальных педагогов-дефектологов. Выделяет три группы условий: внешняя среда, личностные качества студента и дидактическая организация учебного процесса.*

Ключевые *слова: профессиональная ответственность, специальный педагог, дефектолог, условия формирования, профессиональное становление, педагогическая среда, эмпатия, практика, инклюзивное образование.*

CONDITIONS AFFECTING THE FORMATION OF PROFESSIONAL RESPONSIBILITY IN FUTURE SPECIAL EDUCATORS

Annotation*: This article scientifically and pedagogically analyzes the conditions that influence the formation of professional responsibility in future special educators - defectologists who will devote their lives to working with children with developmental disabilities. The conditions are divided into three groups: external environment, internal personal factors and didactic structure of the educational process.*

Keywords: *professional responsibility, special educator, defectologist, conditions, professional formation, pedagogical environment, empathy, practice, inclusive education.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Maxsus pedagog — bu oddiy kasbni emas, balki insoniy burchni tanlagan inson. U har kuni rivojlanishida turli xil nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan ishlaydi: eshitmaydiganlar, ko'rmaydigan, nutqi cheklangan, intellektual rivojlanishida qiyinchiliklari bo'lgan bolalar. Bunday bolalarga dars o'tish oddiy bilim uzatish emas — bu har bir bolaning qalbiga yo'l topish, uning imkoniyatlarini ko'ra bilish va shu imkoniyatni rivojlantirib borish santidir. Ana shunday mas'uliyatli vazifani his qilish va uni o'z kasbiy hayot falsafasiga aylantirish — bo'lajak maxsus pedagogning eng muhim sifatiga aylanmog'i lozim.

Biroq tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, kasbiy mas'uliyat o'z-o'zicha paydo bo'lmaydi. Uni shakllantirishga muayyan shart-sharoitlar kerak. A.A.Xoliqov o'zining "Pedagogik mahorat" kitobida [1] o'qituvchining mas'uliyatini kasbiy odobning bosh o'lchovi deb atagan edi. Lekin u bu sifat qanday tarbiyalanadi, degan savolga to'liq javob bermagan. Aynan shu savol — kasbiy mas'uliyatni shakllantiruvchi shart-sharoitlarni tizimli o'rganish — ushbu maqolaning asosiy muammosi.

O'zbekistonda maxsus ta'lim tizimining rivojlanib borishi bu muammoni yanada dolzarb qilib qo'ymoqda. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun [2] va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun [3] rivojlanishida nuqsoni bo'lgan har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini kafolatlaydi. Lekin qonun faqat yo'nalishni ko'rsatadi — uni amalga oshirish esa defektologning qo'lida. Va agar u haqiqatan mas'uliyatli bo'lmasa, qonun qog'ozda qoladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kasbiy mas'uliyat tushunchasiga turli olimlar har xil yondashgan. O'.Tolipov va M.Usmonboyeva o'zlarining pedagogik texnologiyalar bo'yicha asarida mas'uliyatni pedagogning kasbiy yo'nalganligining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqadi[4]. Sh.Sharipov esa kompetentlik nazariyasi doirasida mas'uliyatni kasbiy etika bilan

bevosita bog‘laydi: kim o‘z ishining oqibatini anglaydigan bo‘lsa — shu mas’uliyatli pedagogdir.[5]. Ushbu ikki nuqtai nazar bir-birini to‘ldiradi.

Rus surdopedagogikasida bu masalaga alohida e’tibor qaratgan. Defektolog uchun mas’uliyat ikki qatlamlidir: bir tomondan, bola kelajagiga bevosita ta’sir etish; ikkinchi tomondan, ota-onaning umid va ishonchini oqlash. Bu “ikkilamchi mas’uliyat“ umumta’lim o‘qituvchisiga qaraganda kuchliroq psixologik yuk tashiydi[6]. R.O.Agavelyan esa ushbu yuklamani emotsional jihatdan ko‘tarish uchun defektologda empatiya qobiliyati kuchli bo‘lishi kerakligini uzoq yillik tadqiqotlar bilan isbotlagan[7]
.

O‘zbekiston kontekstida D.B.Yakubjonova bo‘lajak defektologlardagi kasbiy ijodkorlik va mas’uliyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, juda qiziqarli xulosa chiqargan: ijodkor pedagog mas’uliyatdan qo‘rqmaydi — aksincha, mas’uliyat uning ijodkorligini rag‘batlantiradi. Ya’ni bu ikki sifat bir-birini tug‘diradi. Shu jihatdan Yakubjonova xulosasi ushbu maqolaning nazariy asosiga muhim hissa qo‘shadi[8].

Bularning barchasini umumlashtirgan holda ushbu tadqiqotda kasbiy mas’uliyatga quyidagicha ta’rif beriladi: bu — bo‘lajak maxsus pedagogning o‘z ishining oqibati uchun shaxsiy javobgarlik tuyg‘usi, nuqsonli bola bilan ishlash jarayonini vijdonan va mahorat bilan olib borishga ongli intilish, hamda xato qilgan taqdirda uni tan olib tuzatishga tayyor turish. Bu ta’rif uch qatlamni — bilish, his etish va xulq-atvorda namoyon bo‘lish — birga ushlab turadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, talabaning kasbiy mas’uliyati eng avvalo u qanday muhitda o‘qiyotganiga bog‘liq. Bu oddiy gap bo‘lib ko‘rinishi mumkin, lekin ortida jiddiy ma’no yotadi.

Birinchi va eng kuchli tashqi omil — haqiqiy amaliyot muhiti. Qog‘ozdagi bilim va real bola — bu ikki narsa orasida yer bilan osmon farqi bor. Nutqi yo‘q, eshitmayotgan, yoki intellektual rivojlanishida qiyinchiliklari bo‘lgan bola bilan birinchi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

marta yuzma-yuz kelgan talaba bir paytning o‘zida ikki his tuyadi: qo‘rquv va mas’uliyat. Qo‘rquv vaqt o‘tishi bilan o‘tadi, mas’uliyat esa — agar muhit to‘g‘ri bo‘lsa — qoladi va o‘sib boradi. D.B. Yakubjonova o‘z tadqiqotida aynan shu narsani kuzatgan: amaliyot o‘tagan talabalar kurs oxirida mas’uliyat ko‘rsatkichida amaliyot o‘tmagan tengdoshlaridan keskin ustun chiqdi[8].

Ikkinchi muhim tashqi omil — namunaviy pedagog ta’siri. Talaba o‘zi ko‘rgan odamga o‘xshaydi — bu pedagogikaning eng qadimiy haqiqatlaridan biri. A.A.Xoliqov shaxsiy namunani kasbiy tarbiyaning asosiy vositasi deb ataydi[1]. Boshqa olimlar ham bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi: talaba namunaviy defektolog bilan birga ishlayotganda nafaqat texnikalarni, balki kasbga munosabatni, bolaga hurmatni, mas’uliyat tuyg‘usini ham “ko‘rib o‘rganadi“. Bu — so‘z bilan o‘rgatib bo‘lmaydigan narsa.

Uchinchi tashqi shart-sharoit — huquqiy muhitning aniqligi. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida“gi Qonun [2] har bir bolaning sifatli ta’lim olish huquqini qayd etadi. Bu qonunni o‘qigan talaba o‘zining kelajakdagi mas’uliyatini yanada aniq his qila boshlaydi: agar u bu bolaga to‘g‘ri ta’lim bermasa — qonuniy huquq buziladi. Bu tashqi ramka mas’uliyatni ichki tuyg‘udan tashqari ijtimoiy zaruriyat sifatida ham ongga singdiradi.

Tashqi muhit qanchalik yaxshi bo‘lmasin, agar talabaning ichida mas’uliyatga zamin bo‘lmasa — hech narsa ildiz otmaydi. Shu sababli ichki shart-sharoitlar tashqi shart-sharoitlardan kam muhim emas.

Ichki omillarning birinchisi — kasbga ongli motivatsiya. Bu — “nega bu kasbni tanladim?“ savoliga chin yurakdan javob bera olish. Tadqiqotimizda eksperimental guruhdagi talabalarning 68 foizi o‘z motivatsiyasini “nogironligi bo‘lgan bolalarga haqiqatan yordam qilmoqchi edim“ deb ifodaladi. Qolgan 32 foizi esa diplom, ish joyi yoki oilaviy bosim kabi tashqi sabablarga ishora qildi. Har ikki guruhni bir yil kuzatganda aniqlandi: mas’uliyat ichki motivatsiyali talabalarda tizimli o‘sib bordi, tashqi motivatsiyalilarda esa dalgalanib qoldi. Ikkinchi ichki omil — empatiya

qobiliyati. Empatiya — bu boshqaning holatini o‘zingday his qila olish. Defektolog uchun bu — kasbiy omon qolish shartidir. R.O.Agavelyan yillar davomida defektologlarni kuzatib, shunday xulosaga kelgan: empatiyasi yuqori bo‘lgan mutaxassislar bolaning qiyinchiliqlarini tezroq sezadi, to‘g‘riroq yondashuv topadi va kasbiy tukansizlikdan (professional burnout) kuchliroq himoyalangan bo‘ladi[7]. Uchinchi ichki omil — o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyati, ya’ni refleksiya. Mas’uliyatli inson xato qilganda uni yashirib qo‘ymaydi — xatoni ko‘radi, tahlil qiladi va tuzatadi. Bu qobiliyat pedagog uchun ayniqsa muhim, chunki bolaning rivojlanishidagi har bir yo‘qotilgan kun qaytmaydi.

Uchala guruhdan eng bevosita boshqariladigan shart-sharoitlar — didaktik, ya’ni o‘quv jarayoniga bog‘liq shart-sharoitlar. Bu yerda oliy ta’lim muassasasining o‘zi bevosita ishtirokchi bo‘ladi.

Birinchi didaktik shart-sharoit — fanlar mazmunida kasbiy etika va mas’uliyatning alohida o‘rin egallashi. F.R.Tashabboeva oliy ta’limda maxsus metodika modullarini o‘qitish bo‘yicha o‘z tadqiqotida ta’kidlagan: agar kasbiy etika va mas’uliyat masalalari fanlarda maxsus mavzu sifatida ko‘tarilsa, talabalar bu tushunchani mavhum emas, balki tirik va amaliy his qiladi[11].

Ikkinchi didaktik shart-sharoit — amaliyotning yetarli hajmi va sifati. Amaliyot haqida tashqi shart-sharoitlar bo‘limida gapirdik, lekin bu yerda uning didaktik tashkil etilishi muhim. Amaliyot shunchaki “borib keldim“ darajasida bo‘lsa — foydasi oz.

Uchinchi didaktik shart-sharoit — guruhli refleksiya va muloqot madaniyati. Haftada bir marta o‘tiladigan refleksiya seminarlari — talabalar amaliyotda ko‘rgan qiyin holatlarni muhokama qiladigan, bir-birining tajribasidan o‘rganadigan suhbat majlislari — mas’uliyatni shakllantirishning eng samarali didaktik vositalaridan biri bo‘lib chiqdi.

Bu uchala guruh shart-sharoitlar bir-birini kuchaytiradi. Faqat tashqi muhit yaratib, lekin talabaning ichki motivatsiyasiga e’tibor bermasa — natija yuzaki bo‘ladi.

Yaxshi didaktika bo‘lsa-yu, amaliyot yetarli bo‘lmasa — bilim hayotdan uziladi. Ichki qobiliyat bo‘lsa-yu, muhit qo‘llab-quvvatlamasa — talant so‘nadi. Faqat uchala guruh bir vaqtda ishlagan taqdirda kasbiy mas’uliyat barqaror va chuqur shakllanadi.

Maxsus pedagog — bu katta kuch talab etadigan, lekin katta ma’no beruvchi kasbni tanlagan inson. Uning qo‘lida rivojlanishida qiyinchiliklari bo‘lgan bola — nafaqat bugungi dars, balki o‘sha bolaning butun kelajagi. Ana shunday his bilan ishlash — kasbiy mas’uliyat. Va bu his o‘z-o‘zicha emas, balki aniq shart-sharoitlar natijasida shakllanadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdi: kasbiy mas’uliyatni shakllantirishga ta’sir etuvchi shart-sharoitlar uch guruhga bo‘linadi — tashqi muhit, ichki shaxsiy sifatlar va didaktik jarayon. Bu uchala guruh bir-birini kuchaytiradi va birgalikda ishlaydi. Ulardan biri bo‘lmasa — zanjir uziladi.

Eksperimental tadqiqot natijalari maqsadli pedagogik ta’sirning aniq natija berishini isbotladi: mas’uliyat darajasi 1,9 barobar o‘sdi. Bu raqam ortida oddiy bir haqiqat yotadi — oliy ta’lim muassasasi bo‘lajak defektologning kasbiy mas’uliyatini tarbiyalashga hozirdan, birinchi kursdan boshlab jiddiy kirishishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib bir necha amaliy tavsiya berish mumkin. Birinchidan, “Kasbiy etika va mas’uliyat“ fani “Maxsus pedagogika“ yo‘nalishi o‘quv rejasiga majburiy kurs sifatida kiritilishi lozim — bu fan talabaga nafaqat qoidalarni, balki kasbiy vijdonni shakllantirishi kerak. Ikkinchidan, klinik amaliyot hajmi yiliga kamida 160 soatga yetkazilishi va har bir talabaga tajribali defektolog-mentor biriktirilishi kerak. Uchinchidan, pedagogik psixologiya fanida empatiyani rivojlantiradigan maxsus modul kiritilsin va har semestrda talabalarning empatiya darajasi kuzatib borilsin. To‘rtinchidan, oliy ta’lim muassasasi va maxsus ta’lim maktablari o‘rtasida doimiy hamkorlik tartibi yo‘lga qo‘yilsin — bu nafaqat amaliyot uchun, balki talabaning kasb odamlarini ko‘rib o‘rganishi uchun ham zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1] Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi OMTV, 2011. — 303 b.

[2] O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni, 09.07.2021, ORQ-694-son // lex.uz. URL: https://lex.uz/docs/5498268.

[3] O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 23.09.2020 // lex.uz. URL: https://lex.uz/docs/5013009.

[4] Tolipov o'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. — 256 b.

[5] Sharipov Sh. Pedagog kompetentligi va kasbiy sifatlar. — Toshkent: o'qituvchi, 2020. — 224 b.

[6] Nazarova N.M. Spetsialnaya pedagogika: uchebnoye posobiye. — Moskva: Akademiya, 2010. — 400 s.

[7] Agavelyan R.O. Emotsionalno-volitativnaya sfera pedagoga-defektologa kak faktor professionalnoy gotovnosti. — Novosibirsk: NGPU, 2006. — 187 s.

[8] Yakubjonova D.B. Bo'lajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish texnologiyasi. — Toshkent: TDPU, 2022.

[9] Leontev A.N. Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. — Moskva: Smysl, 2005. — 352 s.

[10] Davletshin M.G. Shaxs psixologiyasi. — Toshkent: o'qituvchi, 2012. — 310 b.

[11] Teshaboyeva F.R. Oliy ta'limda "Ona tili o'qitish maxsus metodikasi" modulini o'qitish samaradorligini oshirish texnologiyalari. — Toshkent, 2021.

[12] Sariyeva Q.N., Sayakova B.E. Razvitiye professionalnykh kompetentsiy pedagoga-defektologa kak osnova povysheniya kachestva spetsialnogo obrazovaniya // Molodoy uchenyy. — 2016. — №9. — S. 1117—1120.

[13] Abduqodirov A., Azizxo'jayeva N. Ta'limda interfaol metodlar va texnologiyalar. — Toshkent: Xalq ta'limi, 2017. — 248 b.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

AKTYOR BADIIY NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA SHE'RIY DRAMALARNING PEDAGOGIK QIYMATI

Tuyg'unov Doniyor Mirzayevich,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i,
mustaqil izlanuvchi
tuygunovdoniyor4@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tarixiy she'riy dramalar vositasida bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirishning pedagogik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek", Uyg'un va Izzat Sultonlarning "Alisher Navoiy" hamda Abdulla Oripovning "Sohibqiron" kabi tarixiy she'riy asarlari misolida aktyorlik mahoratini takomillashtirish imkoniyatlari ochib beriladi. Undan tashqari, tarixiy she'riy dramalarning sahna san'ati va teatr ta'limidagi o'rni, ularning aktyor nutq madaniyatini shakllantirishdagi imkoniyatlari hamda pedagogik jarayonda qo'llaniladigan samarali metod va yondashuvlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *teatr pedagogikasi, badiiy nutq, tarixiy she'riy drama, aktyorlik mahorati, sahna nutqi, fonetika, obrazli tafakkur, dramatik asar, teatr ta'limi, ijrochilik san'ati.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ СТИХОТВОРНОЙ ДРАМЫ В РАЗВИТИИ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ АКТЕРА

Аннотация. *В данной статье научно анализируются педагогические основы развития художественной речи будущих актеров посредством исторических стихотворных драм. Также на примере таких исторических поэтических произведений, как «Мирзо Улугбек» Максуда Шайхзаде, «Алишер Навои» Уйгуна и Иззата Султана, а также «Сохибкирон» Абдуллы Арипова, раскрываются возможности совершенствования актерского мастерства. Кроме того, освещаются роль исторических стихотворных драм в сценическом искусстве и театральном образовании, их потенциал в формировании речевой культуры актера, а также эффективные методы и подходы, применяемые в педагогическом процессе.*

Ключевые слова: *театральная педагогика, художественная речь, историческая стихотворная драма, актерское мастерство, сценическая речь, фонетика, образное мышление, драматическое произведение, театральное образование, исполнительское искусство.*

PEDAGOGICAL VALUE OF POETIC DRAMA IN DEVELOPING AN ACTOR'S ARTISTIC SPEECH

Abstract. *This article scientifically analyzes the pedagogical foundations of developing the artistic speech of future actors through historical poetic dramas. The article also reveals the possibilities of improving acting skills using the example of historical poetic works such as Maqsud Shaykhzoda's "Mirzo Ulug'bek", Uygun and Izzat Sultan's "Alisher Navoiy" and Abdulla Oripov's "Sahibqiron". In addition, the role of historical poetic dramas in performing arts and theater education, their potential for forming an actor's speech culture, and effective methods and approaches used in the pedagogical process are highlighted.*

Keywords: *theater pedagogy, artistic speech, historical poetic drama, acting skills, stage speech, phonetics, figurative thinking, dramatic work, theater education, performing arts.*

KIRISH

Ma'lumki, san'atning rivojlanishi insoniyat jamiyatining taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyat taraqqiy etgani sari kishilarning ma'naviy ehtiyojlari ham ortib boradi. Shu bilan birga, san'at va uning turlari ham rivojlanib, takomillashadi. Ayniqsa, teatr san'ati inson ruhiyati, tafakkuri, estetik didi hamda ma'naviy qarashlarini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Teatrning markazida esa aktyor turadi. Aktyorning sahnadagi muvaffaqiyati nafaqat uning tashqi harakati yoki obrazni his qilish mahorati bilan, balki badiiy nutqining mukammalligi bilan ham belgilanadi. Chunki tomoshabin aktyorning ichki dunyosini, obrazning ruhiy holatini avvalo uning ovozi, talaffuzi, ohangi va so'zlarni ifodalash mahorati orqali qabul qiladi. Shu bois bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirish masalasi teatr pedagogikasining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbek teatri jamiyatimizning ma'naviy va ma'rifiy barkamolligini ta'minlovchi muhim sohalardan biridir. Uning rivojlanishida tarixiy dramalarning o'rni beqiyosdir. Tarixiy dramalar orqali xalqning boy o'tmishi, milliy qadriyatlari, buyuk ajdodlarning hayoti va ma'naviy merosi sahna talqini vositasida keng yoritiladi. Bunday asarlar tomoshabinda milliy g'urur, vatanparvarlik va tarixiy xotiraga hurmat tuyg'ularini shakllantiradi. Shu bilan birga, tarixiy she'riy dramalar yosh ijodkorlarning badiiy tafakkurini boyitishda, estetik didini shakllantirishda va nutqiy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy she'riy asarlar o'zining poetik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tili, obrazli ifodalari, ritmik tuzilishi va hissiy ta'sir kuchi bilan oddiy dramatik matnlardan farqlanadi. Bunday asarlar bilan ishlash aktyordan chuqur tafakkur, aniq talaffuz, ovoz imkoniyatlarini boshqarish hamda emotsional ifoda vositalaridan mahorat bilan foydalanishni talab qiladi.

Tarixiy she'riy dramalar milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma'naviy merosni o'zida mujassamlashtirgani sababli ular bo'lajak aktyorlarning nafaqat nutqini, balki dunyoqarashini ham shakllantiradi. Sahna tilining ravonligi, poetik satrlarning to'g'ri talqini, dramatik pauzalarning mazmun bilan uyg'unligi aktyorning professional mahoratini belgilovchi asosiy omillardan sanaladi. Shu jihatdan qaraganda, tarixiy she'riy dramalarni teatr ta'limi tizimida pedagogik vosita sifatida qo'llash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Badiiy nutq aktyorning kasbiy quroli sifatida uning obraz yaratishdagi asosiy tayanchidir. Nutq orqali aktyor tomoshabin bilan ma'naviy aloqa o'rnatadi, dramatik konfliktni ochib beradi va sahnadagi ruhiy harakatni ifodalaydi. Ayniqsa, she'riy dramatik matnlarning o'ziga xos ritmi, qofiyasi va poetik tizimi aktyorning fonetik imkoniyatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Shu sababli tarixiy she'riy dramalar bo'lajak aktyorlar uchun o'ziga xos nutqiy maktab vazifasini bajaradi.

Tarixiy va zamonaviy she'riy dramalarni o'qitish jarayonida sahna nutqi hamda aktyorlik mahoratining o'zaro bog'liqligi bo'lajak aktyorlarning badiiy tafakkuri va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. She'riy drama aktyorning intonatsion ifodaviyligi, ritmik sezgirligi va obrazli tafakkurini shakllantiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu borada D.M. Tuyg'unov tarixiy va zamonaviy she'riy dramalarni o'qitish jarayonida sahna nutqi hamda aktyorlik mahoratining o'zaro bog'liqligi bo'lajak aktyorlarning badiiy tafakkuri va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik omil ekanligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, she'riy drama aktyorning intonatsion ifodaviyligi, ritmik sezgirligi

va obrazli tafakkurini shakllantiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida talqin etiladi [7: 285].

Tarixiy she'riy drama tarixiy voqelikni poetik ifoda bilan uyg'unlashtirgan holda inson ruhiyatining murakkab qirralarini ochib beradi. Bunday asarlarda tarixiy obrazlar orqali milliy qadriyatlar, ma'naviy qarashlar hamda ijtimoiy munosabatlar yoritiladi. Tarixiy she'riy dramalar o'zining yuksak badiiy tili bilan aktyordan mukammal sahna nutqi va chuqur ijro mahoratini talab etadi. Masalan, dramaturg Maqsud Ma'sum o'g'li Shayxzodaning 1961-yilda yozilgan "Mirzo Ulug'bek" tarixiy tragediyasi o'zbek dramaturgiyasi va teatr san'ati tarixida muhim o'rin egallaydi. "Mirzo Ulug'bek" tarixiy fojeasida o'zbek xalqi tarixining nihoyatda murakkab, ayni paytda muhim davrlaridan biri tasvirlangan bo'lib, asarning markazida Ulug'bek obrazi turadi. Dramadagi barcha voqealar, personajlar hamda ularning hayoti va taqdiri aynan shu obraz atrofida birlashadi. Voqealar rivoji davomida Ulug'bekning serqirra faoliyati, buyuk iste'dodi va boy ma'naviy olamiga xos fazilatlar izchil ochib boriladi. Asarda Ulug'bek nafaqat buyuk olim, balki adolat va ma'rifat homiysi, xalqparvar hamda iste'dodli davlat arbobi sifatida gavdalanadi. Muallif uning zamonasining ilg'or fikrli hukmdori ekanligini tarixiy haqiqat asosida badiiy talqin etadi. Shu jihatdan mazkur drama aktyorning badiiy nutqini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki obrazning ruhiy kechinmalari, fikriy teranligi va ma'naviy olami poetik nutq orqali ta'sirchan ifodalanadi.

Asar ilk bor 1961-yilda Hamza nomidagi Akademik drama teatrida rejissyor A.O. Ginzburg tomonidan sahnalashtirilgan. Spektaklning sahna bezaklarini rassom H. Ikromov yaratgan. Mazkur sahna asari murakkab psixologik yo'nalishda hal etilib, obrazlar puxta ishlanganligi bilan ajralib turadi. Rejissura esa o'sha davr ruhining murakkab jihatlarini chuqur ifodalashga qaratilgan edi. O'zbek sahnasida ilk bor buyuk aktyor Shukur Burhonov tomonidan yaratilgan Ulug'bek obrazi nafaqat uning ijodiy biografiyasini boyitdi, balki umumo'zbek teatr san'ati tarixida ham alohida ahamiyatga ega sahifalardan biriga aylandi.

Mazkur sahna talqini va undagi ijrochilik tajribasi teatr san'atining ijodiy imkoniyatlarini yaqqol namoyon etgan holda, aktyorlik mahoratining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan badiiy nutq madaniyatiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Chunki tarixiy asarlarda, xususan, murakkab psixologik yo'nalishda sahnalashtirilgan tragediyalarda so'zning ohangi, intonatsion rang-barangligi va talaffuz aniqligi obrazning ichki dunyosini ochib berishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu jihatdan, bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirish pedagogik jarayonning markaziy vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogik yondashuvda badiiy nutqni shakllantirish bir necha o'zaro bog'liq komponentlar asosida amalga oshiriladi. Avvalo, fonetik tayyorgarlik muhim o'rin tutadi. Talaba aktyor tovushlarni aniq va ravon talaffuz qilish, nutq apparatini boshqarish hamda nafasni to'g'ri taqsimlash ko'nikmalarini egallashi lozim. Bu jarayon maxsus artikulyatsion mashqlar, diksiya mashg'ulotlari va ovoz treninglari orqali rivojlantiriladi. Ikkinchi muhim yo'nalish intonatsion ifodaviylikdir. Sahna nutqida har bir jumlaning ma'nosi faqat so'zlar orqali emas, balki ohang, urg'u va pauzalar orqali ham ochiladi. Ayniqsa, tarixiy tragediyalarda qahramonlarning ichki ziddiyatlari va ruhiy kechinmalari intonatsiya vositasida chuqur ifodalanadi. Shu sababli bo'lajak aktyorlar matnni mexanik yodlash emas, balki uning ma'naviy mazmunini anglab ijro etishga o'rgatiladi. Uchinchi asosiy jihat obrazli tafakkurni rivojlantirishdir. Aktyor sahnada faqat matn yetkazuvchi emas, balki jonli obraz yaratuvchi ijodkor sifatida harakat qiladi. Tarixiy asarlar bilan ishlash jarayonida talaba o'sha davr ruhini, tarixiy sharoitni va qahramonning ichki psixologik holatini tasavvur qila olishi kerak. Bu esa badiiy nutqning tabiiy va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

Shuningdek, pedagogik jarayonda emotsional xotirani rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Aktyor o'z hayotiy tajribasidagi hissiyotlarni sahna obraziga ko'chira olish malakasiga ega bo'lishi lozim. Bu usul nutqning samimiyligini oshirib,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tomoshabinda kuchli estetik ta'sir uyg'otadi. Shuning uchun ham, tarixiy sahna asarlari, xususan "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi kabi yirik dramatik asarlar bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini shakllantirishda beqiyos pedagogik imkoniyatlarga ega. Bunday asarlar ustida ishlash jarayonida talabalarda nafaqat nutq madaniyati, balki chuqur ijodiy tafakkur, tarixiy ong va sahnaviy mahoratni ham rivojlanadi.

Yoki Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" tarixiy dramasi misolida ham tarixiy sahna asarlarining badiiy va pedagogik imkoniyatlarini yaqqol kuzatish mumkin. Mazkur drama o'zbek xalqining buyuk mutafakkiri, shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatini sahnaviy talqin etish orqali tarixiy shaxsning ma'naviy qiyofasini chuqur ochib beradi. Asarda Navoiy obrazi nafaqat buyuk shoir, balki xalqparvar, adolatparvar va yuksak insoniy fazilatlarga ega ma'rifatparvar siymo sifatida gavdalanadi.

Mustaqillikdan keyin "Alisher Navoiy" dramasini qayta sahnalashtirish o'zbek tarixiy she'riy dramalarini sahnaga olib chiqishda ma'lum tajriba to'plagan, rejissyorlik kasbining sir-asrorlarini chuqur o'zlashtirish yo'lida izlanayotgan Turg'un Azizov zimmasiga nasib etadi. Biroq bu jarayon nihoyatda murakkab va mas'uliyatli edi. Chunki ushbu dramatik asar teatr tarixida avval ham ikki marotaba sahnalashtirilib, turli aktyorlar avlodi tomonidan yuksak darajadagi monumental obrazlar yaratilgan edi. Xususan, Navoiy obrazi orqali o'zbek teatr san'atining yetuk namoyandalari Abror Hidoyatov va Olim Xo'jayevlar o'z ijodiy salohiyatlarini namoyon etib, sahna madaniyatini yangi bosqichga ko'targan edilar. Ularning ijrosida Alisher Navoiy siymosi chuqur falsafiy mazmun, yuksak ma'naviyat va badiiy mukammallik bilan gavdalangan bo'lib, bu obraz teatr tarixida betakror namuna sifatida e'tirof etiladi. Ana shunday ulkan ijodiy an'ana qarshisida Turg'un Azizov o'ziga xos ichki ikkilanish va mas'uliyat hissini boshdan kechiradi. U buyuk aktyorlar tomonidan yaratilgan Navoiy obrazining badiiy salmog'ini chuqur anglagan holda, bu vazifani bajarish naqadar murakkab ekanini his etadi va hatto dastlab loyihadan voz kechish haqida ham o'ylaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bu holat aktyorlik va rejissyorlik faoliyatida ijodiy qo‘rquv hamda mas’uliyat tuyg‘usining tabiiy namoyonidir. Shu jarayonda mashhur aktrisa Sora Eshonto‘rayeva uning ikkilanishini kuzatar ekan, rejissyorga bunday ulkan ijodiy vazifadan chekinmaslikni, aksincha, mavjud imkoniyat va ijodiy salohiyatni to‘liq safarbar etgan holda asarni yangicha talqinda sahnalashtirish zarurligini maslahat beradi. Bu fikr Turg‘un Azizov uchun muhim ruhiy turtki bo‘lib xizmat qiladi va u ijodiy izlanishlarini davom ettirishga qaror qiladi. Mazkur jarayon bo‘lajak aktyorlar va rejissyorlar uchun ham muhim pedagogik asos bo‘lishi kerak, ya’ni sahna san’atida avval yaratilgan yuksak ijodiy namunalardan qo‘rqish emas, balki ularni o‘rganish, tahlil qilish va yangi badiiy yondashuv asosida rivojlantirish zarur. Aynan shu yondashuv badiiy nutqning takomillashuvi, obraz yaratish mahoratining chuqurlashuvi hamda teatr san’atining uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning 1996-yilda yozilgan “Sohibqiron” she’riy dramatik asari o‘zbek adabiyoti va teatr san’atida tarixiy shaxs obrazini yangicha badiiy-falsafiy yondashuv asosida talqin etishi bilan ajralib turadi. Asarda Amir Temur shaxsiyati, uning siyosiy faoliyati hamda tarixiy mavqei bilan bog‘liq voqeliklar poetik dramatizm asosida yoritiladi. Muallif mazkur asarda Sohibqiron obrazini ideallashtirish yo‘lidan bormaydi, balki uni o‘z davrining murakkab tarixiy muhitida shakllangan real tarixiy shaxs sifatida ko‘rsatishga intiladi. Shoir dramatik talqinda Amir Temurning ichki dunyosi, qaror qabul qilish jarayonlari va davlat boshqaruvidagi mas’uliyatini tarixiy voqealar fonida ochib beradi. Bu yondashuv obrazning hayotiyligini kuchaytirib, uni faqat tarixiy qahramon sifatida emas, balki murakkab psixologik xarakterga ega inson sifatida gavdalantiradi. Natijada asarda tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligi yuzaga keladi.

Drama O‘zbek Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan bo‘lib, unda Amir Temur obrazini Milliy teatrning yetakchi aktyori, O‘zbekiston xalq artisti Teshaboy Mo‘minov, Amir Husayn obrazini esa O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Rustam

Karimov gavdalantirgan. Muhit tasvirini yaratishdagi aktyorlar mahorati va sahna nutqini tahlil qilishdan avval ushbu ikki tarixiy shaxs o‘rtasidagi tarixiy ziddiyatni aniqlab olish muhimdir. Amir Temur va Amir Husayn o‘rtasidagi qarama-qarshilik Movarounnahr hududida XIV asr siyosiy jarayonlarining keskinlashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ziddiyat hokimiyat uchun kurash, markazlashgan davlat tuzish g‘oyasi va feodal tarqoqlik o‘rtasidagi murakkab tarixiy to‘qnashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Amir Temur davlatni birlashtirish va tartibga solish tarafdori bo‘lgan bo‘lsa, Amir Husayn o‘z siyosiy manfaatlari doirasida mavjud feodal munosabatlarni saqlab qolishga intilgan kuch sifatida tasvirlanadi. Shu bois ularning qarama-qarshiligi shaxsiy mojaro doirasidan chiqib, keng tarixiy-siyosiy mazmun kasb etadi.

Ana shu tarixiy konflikt sahna talqinida aktyorlarning badiiy nutqi orqali yanada yorqin ochiladi. Teshaboy Mo‘minov tomonidan yaratilgan Amir Temur obrazi nutqining qat’iyligi, mantiqiy izchilligi va ichki ishonch ohangi bilan ajralib turadi. Har bir so‘zda hukmdorga xos salobat, qarorli intonatsiya va psixologik bosim sezilib turadi. Bu esa tomoshabinda obrazning tarixiy shaxs sifatidagi kuchli irodasi va ma’naviy salohiyati haqida aniq tasavvur uyg‘otadi. Rustam Karimov ijrosidagi Amir Husayn obrazi esa nutqiy ifodada zaifroq siyosiy pozitsiyasini hamda murakkab ruhiy holatini ochib berishga xizmat qiladi. Natijada ikki obraz o‘rtasidagi qarama-qarshilik nafaqat voqealar darajasida, balki sahna nutqi va intonatsion ifoda darajasida ham aniq seziladi. Shu jihatdan, mazkur spektakl bo‘lajak aktyorlar uchun tarixiy dramatik asarlarda sahna nutqining konfliktni ochib berishdagi rolini o‘rganish, intonatsiya va obrazli ifodani uyg‘unlashtirish hamda psixologik talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Chunki she’riy shakldagi matn aktyordan yuksak darajadagi intonatsion ifodaviylik, ritmik sezgirlik va nutqiy aniqlikni talab etadi. Har bir poetik satrning ichki mazmunini to‘g‘ri anglash va uni sahna tilida tabiiy ifodalash aktyorlik mahoratining asosiy mezonlaridan biridir. Shuningdek, “Sohibqiron” asari orqali talabalarda tarixiy

shaxsga nisbatan tanqidiy va tahliliy yondashuv shakllanadi. Bu esa badiiy nutqni faqat tashqi ifoda vositasi sifatida emas, balki chuqur ma'naviy-mazmuniy jarayon sifatida egallashga xizmat qiladi. Shu jihatdan ushbu asar teatr pedagogikasida tarixiy she'riy dramalar asosida badiiy nutqni rivojlantirishning samarali manbalaridan biri bo'lib qoladi.

Mazkur asarlar bilan ishlash aktyorlarning analitik tafakkurini ham rivojlantiradi. She'riy matnning ichki ma'nosini tushunish, obrazning ruhiy kechinmalarini anglash va poetik ifodalarni sahna tiliga moslashtirish katta aqliy faoliyatni talab qiladi. Natijada talabalar mustaqil fikrlashga o'rganadi. Shu jarayonda Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek", Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" hamda Abdulla Oripovning "Sohibqiron" kabi tarixiy she'riy dramalari bilan ishlash aktyorlardan yuqori darajadagi tahliliy yondashuvni talab etadi. Mazkur asarlarda har bir obraz murakkab tarixiy, falsafiy va psixologik qatlamlarga ega bo'lib, ularni to'g'ri talqin qilish uchun aktyor matnni yuzaki o'qish bilan cheklanmay, balki voqealar zamiridagi g'oyaviy mazmunni chuqur anglashi zarur bo'ladi. Masalan, "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida ilm va jaholat o'rtasidagi kurash, "Alisher Navoiy" dramasida ma'rifat va adolat g'oyasi, "Sohibqiron" asarida esa tarixiy shaxs va davr murakkabligi o'rtasidagi dialektik munosabatlar yetakchi o'rinni egallaydi. Shu sababli aktyor har bir dramatik vaziyatni tahlil qilar ekan, nafaqat personajning nutqini, balki uning ichki motivlarini, ruhiy kechinmalarini va tarixiy sharoit bilan bog'liq qarorlarini ham ilmiy asosda anglab yetishi lozim. Bu esa ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy xulosa chiqarishga va sahna obrazini ongli ravishda yaratishga olib keladi. Natijada tarixiy she'riy dramalar bilan ishlash jarayoni bo'lajak aktyorlar uchun nafaqat ijrochilik maktabi, balki chuqur intellektual va ijodiy tahlil maktabi vazifasini ham bajaradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarixiy she'riy dramalar vositasida bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirish teatr pedagogikasining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Bunday asarlar poetik tilning boyligi, ritmik tuzilishi va emotsional ta'sir kuchi bilan aktyorlarning kasbiy mahoratini shakllantirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Shuningdek, tarixiy she'riy dramalar bilan ishlash jarayonida talabalar nutq texnikasi, diksiya, intonatsiya va emotsional ifoda vositalarini mukammallashtiradi. Shu bilan birga, ular milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va estetik tafakkur bilan yaqindan tanishadi. Kelajakda teatr ta'limi tizimida tarixiy she'riy dramalarni o'qitish metodikasini yanada takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va sahna nutqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Ana shundagina bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqi yuksak professional darajaga ko'tarilib, milliy teatr san'atining taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulova S. S. San'atning rivojlanishi insoniyat jamiyatining taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq // Oriental Art and Culture. – 2025. – T. 6. – №. 4. – C. 346-349.
2. Xoliqulova G. *Sahna nutqi (tarixiy dramalar misolida): o'quv qo'llanma*. – Toshkent, 2007. 9-bet.
3. Tuygunov D.M. Artpedagogical significance of teaching poetry drama // Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy. – 2025. – Vol. 1. – Issue 9. – P. 283–288.
4. Xoliqulova G. E. Mirzo Ulug'bek obrazi talqinlari sahna nutqi maktabi // Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 317-327.
5. Boltaboyeva U. Professional teatrlarda tarixiy she'riy dramalar ustida ishlash masalalari // Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 479-486.
6. Xoliqulova G. *Sahna nutqi (tarixiy dramalar misolida): o'quv qo'llanma*. – Toshkent, 2007. 35-bet.
7. O'sha manba. 100-bet.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BADIIY MATNLARNI TAHLIL QILISH: GLOBALLASHUV OMILLARINING TA'SIRI

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
ORCID: 0009-0006-3790-390X
"Profi University" dotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com Tel: + 99897 783 10 31

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida badiiy matnlarni tahlil qilish jarayoniga globallashuv omillarining ta'siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Elektron ta'lim platformalari, raqamli kutubxonalar va multimedia resurslari hamda va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda talabalarning tanqidiy fikrlash, qiyosiy va madaniyatlararo tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida "Qiyosiy tahlil" metodi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, badiiy matn, adabiy tahlil, globallashuv, elektron ta'lim platformalari, tanqidiy fikrlash.*

АНАЛИЗ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ: ВЛИЯНИЕ ФАКТОРОВ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: *В статье на основе научных источников проанализировано влияние факторов глобализации на процесс анализа художественных текстов в условиях цифровой образовательной среды. В исследовании использованы методы анализа и синтеза, сравнительного анализа, системного подхода и педагогического наблюдения. Раскрыты возможности цифровых образовательных платформ, электронных библиотек, мультимедийных ресурсов и средств искусственного интеллекта в развитии у студентов навыков критического мышления, сравнительного анализа и межкультурной интерпретации. По результатам исследования разработаны практические рекомендации, основанные на методе «Сравнительный анализ», направленные на совершенствование процесса изучения художественных текстов в цифровой образовательной среде.*

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, художественный текст, литературный анализ, глобализация, критическое мышление.*

ANALYSIS OF LITERARY TEXTS IN THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT: THE INFLUENCE OF GLOBALIZATION FACTORS

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Abstract: *This article analyzes, based on scholarly sources, the impact of globalization on the process of analyzing literary texts in the digital learning environment. The study employs the methods of analysis and synthesis, comparative analysis, a systematic approach, and pedagogical observation. The findings highlight the potential of digital learning platforms, digital libraries, multimedia resources, and artificial intelligence tools for developing students' critical thinking, comparative analysis, and intercultural interpretation skills. As a result of the study, practical recommendations based on the Comparative Analysis method are proposed for improving the teaching of literary texts in a digital educational environment.*

Keywords: *digital educational environment, literary text, literary analysis, globalization, critical thinking.*

KIRISH

Elektron ta'lim platformalari, raqamli kutubxonalar, multimedia resurslari va interaktiv o'quv vositalarining keng qo'llanilishi badiiy matnni o'qish va anglash jarayonining mazmuni hamda metodikasiga muayyan o'zgarishlar kiritmoqda: an'anaviy bosma matn bilan ishlash tajribasi interaktiv, gipermatnli va multimodal o'qish shakllari bilan boyimoqda, bu esa adabiy ta'limda qo'llanilayotgan yondashuvlarni zamonaviy ehtiyojlar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, globallashuv omillari ta'sirida kitobxonlik madaniyati, axborotni qabul qilish usullari va mutolaa odatlari ham yangilanib bormoqda. Raqamli ta'lim muhiti talabalarga badiiy asarlar bilan ishlashning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda: elektron kutubxonalar, raqamli arxivlar, annotatsiya vositalari va virtual ta'lim platformalari matnni o'qish hamda tahlil qilish jarayonini yanada qulay tashkil etishga xizmat qilmoqda. Ammo ushbu imkoniyatlardan pedagogik maqsadlarga muvofiq foydalanish, talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va badiiy matnni yuzaki emas, chuqur anglashga yo'naltirilgan metodik tizimni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Oliy ta'lim tizimida adabiy ta'lim talabalarda badiiy matnni ilmiy-nazariy asosda o'qish, estetik idrok etish va mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy mutaxassisdan nafaqat asar mazmunini tushunish, balki uni tarixiy-madaniy kontekstda baholash, turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilish va raqamli

axborot muhitida mavjud manbalardan samarali foydalanish talab etiladi [1]. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi – raqamli ta'lim muhitida badiiy matnlarni tahlil qilishning uyg'unlashgan metodik modeli, jumladan, "Qiyosiy tahlil" metodi taklif etilganligidadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ta'lim tizimida raqamli va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish masalasi yuzasidan xorijiy tadqiqotchilardan A.W.Bates raqamli ta'lim muhitida texnologiyaning samaradorligi uning o'zida emas, balki pedagogik maqsadlarga muvofiq qo'llanilishida ekanligini asoslaydi. Uning fikricha, raqamli vositalar talabalarning mustaqil fikrlashi, hamkorlikda ishlashi va tanqidiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim [5]. UNESCOning "Guidance for Generative AI in Education and Research" hujjatida generativ sun'iy intellektni ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda qo'llashda inson markazli yondashuv asosiy tamoyil sifatida belgilanadi; undan foydalanishda akademik halollik, ma'lumotlar xavfsizligi va etik me'yorlarga qat'iy rioya etilishi zarurligi ta'kidlanadi [6].

Badiiy matnni tahlil qilishning nazariy-metodik asoslari, tahlil bosqichlari va ta'limiy vazifalari Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovalarning "Adabiyot o'qitish metodikasi" qo'llanmasida atroflicha yoritilgan [1]. R.A.Keldiyorov tadqiqotida adabiyot darslari samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari, jumladan, o'qituvchining kasbiy-ma'naviy sifatlariga qo'yiladigan talablar asoslab berilgan [2]. M.Y.Ro'ziyeva esa raqamli ta'lim jarayonining shakllanishi va rivojlanish omillarini tahlil qilar ekan, milliy tilning raqamli muhitda mustahkamlanishi ta'lim, iqtisod va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi [4]. S.Lukmonova real vaqt rejimidagi teskari aloqa mexanizmlarining o'quv jarayonini talabalar ehtiyojiga moslashtirishdagi ahamiyatini ko'rsatib beradi [3].

Ko'rinadiki, ushbu tadqiqotlar ayrimlari an'anaviy adabiy tahlil metodikasining nazariy zaminini tashkil etsa, ayrimlari esa zamonaviy raqamli ta'lim tizimining muayyan jihatlarini yoritishga yo'naltiriladi. Shunga qaramay, ushbu sohada, ya'ni

globallashuv omillari kontekstida, xususan, generativ sun'iy intellekt vositalari bilan uyg'unlashtirilgan holda qayta ko'rib chiqilishi hali yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan. Mazkur maqola esa shu jihatlarni to'ldirishga qaratilganligi bilan dolzarb sanaladi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi maqolaning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib belgilandi. Unda globallashuv hamda raqamli ta'lim muhiti sharoitida badiiy matnlarni tahlil qilishning o'ziga xos didaktik jihatlari hisobga olindi. Tadqiqot maqsadiga erishish va qo'yilgan vazifalarni izchil hal etish uchun umumilmiy hamda maxsus pedagogik metodlar o'zaro uyg'unlikda qo'llanildi.

Tadqiqotda umumnazariy va maxsus metodlardan foydalanildi: tahlil va sintez metodi ilmiy manbalardagi qarashlarni tizimlashtirish uchun, qiyosiy tahlil metodi mahalliy va xorijiy tadqiqotlarni solishtirish uchun, tizimli yondashuv raqamli ta'lim muhiti tarkibiy elementlarini o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqish uchun, pedagogik kuzatish metodi esa "Qiyosiy tahlil" metodining amaliyotga tatbiq etilishi jarayonini o'rganish uchun qo'llanildi. Tadqiqot manbalari sifatida ilmiy adabiyotlar hamda badiiy asar (Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani) misolida amalga oshirilgan tahlil natijalari ishlatildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish talabalarning o'quv faolligini oshirish bilan birga, badiiy matnni ko'p qirrali tahlil qilish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Bunday yondashuv talabalarning tanqidiy fikrlashi, mustaqil xulosa chiqarishi va tahlil qilish jarayonlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, alohida ta'kidlash joizki, axborot manbalarining ko'pligi talabalarda ma'lumotlarni saralash va ishonchliligini baholashda qiyinchilik tug'diradi, elektron matnlarni tezkor o'qish odati esa asarning estetik-g'oyaviy qatlamlarini chuqur anglashni cheklashi mumkin. Bizningcha, bu ikki tomonlama ta'sir, ya'ni imkoniyat va xavf raqamli vositalardan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

foydalanishni an'anaviy mutolaa madaniyati va ilmiy tahlil metodlari bilan muvozanatli uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Kuzatishlarga ko'ra aytish mumkinki, raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish, agar u tayyor javob manbai emas, balki talabaning mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi didaktik vosita sifatida qo'llanilsa, yuqori pedagogik samara beradi. Shu nuqtayi nazardan, adabiyot mashg'ulotlarida "Qiyosiy tahlil" metodidan foydalanish ham yuqori natijalarga erishish imkonini yaratadi. Mazkur metodni Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani misolida ko'rib chiqish mumkin: talabalar dastlab romandagi milliy istiqlol g'oyasining badiiy ifodasini mustaqil tahlil qiladi, so'ngra sun'iy intellekt vositasiga xuddi shu mavzuni obrazlar tizimi va badiiy vositalar asosida tahlil qilish topshirig'ini beradi. Olingan natijalar talabaning shaxsiy tahlili bilan qiyoslanadi, o'xshash va farqli jihatlar ilmiy mezonlar asosida muhokama qilinadi.

1-jadval.

"Qiyosiy tahlil" metodining dars bosqichlari

Dars bosqichi	**O'qituvchi faoliyati**	**SI vositasi**	**Shakllanadigan kompetensiya**
Mustaqil mutolaa	Asarni o'qish va savollar berish	-	Mutolaa kompetensiyasi
Birlamchi tahlil	Talaba mustaqil tahlil yozadi	-	Analitik fikrlash
SI bilan ishlash	Tahlil uchun prompt tuzish	ChatGPT, Gemini va boshqalar	Raqamli kompetensiya
Qiyosiy interpretatsiya	SI javobi va talaba tahlilini taqqoslash	SI natijasi	Tanqidiy fikrlash
Yakuniy xulosa	Mustaqil interpretatsiya yozish	-	Interpretativ kompetensiya

Bunday yondashuv talabalarning sun'iy intellekt taqdim etgan ma'lumotni tanqidiy baholash, uning ilmiy asoslanganligi va badiiy matnga mosligini tekshirish, dalillarni qayta hamda mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijada sun'iy intellekt tayyor javob manbai emas, balki badiiy matnni chuqurroq anglashga xizmat qiladigan yordamchi didaktik vosita vazifasini bajaradi. Shuningdek, globallashuv omillari milliy va jahon adabiyoti namunalarini qiyosiy o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa talabalarning madaniyatlararo muloqot imkoniyatlarini rivojlantirish va turli adabiy maktablarni qiyosiy tahlil qilishga xizmat qiladi.

2-jadval.

An'anaviy topshiriq va sun'iy intellekt integratsiyalashgan topshiriqning didaktik qiyosi

An'anaviy topshiriq	SI integratsiyalashgan topshiriq	Shakllanadigan kompetensiya
"Muvozanat" romanida Yusuf obraziga tavsif bering.	Dastlab Yusuf obrazini mustaqil tahlil qiling, so'ng sun'iy intellektdan ayni obraz tahlilini oling va ikki tahlilni qiyoslab, farqli jihatlarni dalillar bilan izohlang.	Tanqidiy fikrlash, qiyosiy tahlil, dalillash kompetensiyasi
Asardagi ramziy timsollarni aniqlang.	Sun'iy intellekt aniqlagan ramziy timsollarni asar matni bilan solishtirib, qaysi talqinlar matnga mos yoki nomosligini asoslang.	Interpretatsiya, tahliliy fikrlash
Asarning asosiy g'oyasi hisoblangan	Mustaqil xulosa chiqaring va uni SI tomonidan berilgan xulosa bilan	Mustaqil xulosa chiqarish, dalillar bilan ishlash

muvozanat qaysi o'rinlarda buzilganini dalillar asosida izohlang.	qiyoslab, ilmiy asoslangan yakuniy fikrni shakllantiring.	
Yusuf va Amir obrazlarini qiyoslang.	SI tahlili bilan o‘z tahlilingizni solishtirib, obrazlarning g‘oyaviy vazifasi yuzasidan yakuniy ilmiy xulosa tayyorlang.	Qiyosiy tahlil, muammoli fikrlash
Romandagi milliy istiqlol g‘oyasini tahlil qiling.	SI yordamida olingan javobni badiiy matndagi dalillar bilan tekshirib, qaysi xulosalar asosli ekanini baholang.	Axborotni tanqidiy baholash, media va AI savodxonligi

Qodirova [1] va Petrov [9] talabalarda sport hakamligi kompetensiyasi bosqichma-bosqich shakllanishini ko‘rsatgan, ammo ularning yondashuvida baholash mezonlari ko‘proq umumiy kompetensiya darajasida qolgan. Nurbayeva [10] hamda Atamatov [5] kompetensiyaviy yondashuvni nazariy jihatdan asoslab, o‘quv-tarbiyaviy jarayonda faol ishtirokni kuchaytirgan, lekin hakamlik qarorining aniqligi uchun alohida rubrika bermagan. Bu holat metakognitsiya va pedagogik diagnostika orasidagi bog‘liqlikni ochiq qoldiradi. Shuning uchun talaba boks hakamligida xatoni ko‘rish, uni izohlash va ball bilan ifodalash bir tizimga keltirilmagan.

Omonov [2] va Meliboev [11] interaktiv topshiriqlar hamda keys-stadi baholash va tahlil qilish ko‘nikmalarini kuchaytirishini ko‘rsatgan, lekin ular sport musobaqasi protokoli bilan bog‘lanmagan. Karimov [3] boks hakamligi qoidalarini o‘qitish metodikasini bayon qilgan, ammo amaliy qarorlar uchun summativ baholash mezonlari

va test-retest barqarorligi yoritilmagan. Jo‘rayev [12] amaliy mashg‘ulotlarning didaktik imkoniyatlarini ochib bergan bo‘lsa-da, talabaning hakamlik faoliyatidagi individual farqlarini ta‘limda farqlash darajasida hisobga olmagan. Demak, mavjud adabiyotlar interaktiv metodlar, kompetensiya yondashuvi va boks qoidalarini alohida yoritadi, biroq ularni rubrikaga asoslangan baholash bilan birlashtirgan model yetishmaydi.

Tadqiqot materialari va metodlari. 2-jadvalda berilgan qiyosiy manzara boks hakamligi bo‘yicha interaktiv metodlar ta‘sirini tekshirish uchun uch bosqichli pedagogik tajriba tanlanganini metodik jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot oliy ta‘lim muassasasining 60 nafar talabasida, 30 nafardan tajriba va nazorat guruhlariga ajratilgan holda, 8 haftada bajarildi. Namuna hajmi Cochran formulasi bo‘yicha hisoblandi, bunda ahamiyatlilik darajasi 0,05, statistik quvvat 0,80 va kutilayotgan effekt o‘lchami 0,70 qabul qilindi [13]. Tajriba guruhida interaktiv metodlar, nazorat guruhida esa odatiy amaliy mashg‘ulotlar qo‘llanildi; bu farqlash boks hakamligi qarorlarining aniqligini alohida kuzatish imkonini berdi [2]. Aniqlovchi bosqichda pretest orqali nazariy bilim, amaliy qaror va baholash aniqligi o‘lchandi, shakllantiruvchi bosqichda esa rubrikaga asoslangan topshiriqlar, keys-stadi va juftlikdagi tahlil birlashtirildi [11]. Nazorat bosqichida posttest o‘tkazilib, o‘zgarishlar juftli t-test va mustaqil t-test bilan solishtirildi; guruhlar ichidagi tarqoqlikni ifodalash uchun Cohen d ishlatildi [8]. Mazkur tuzilma kompetensiya yondashuvi hamda sport hakamligi tayyorgarligiga doir pedagogik talablar bilan moslashtirildi [1].

2-jadval. *Tadqiqotda qo‘llangan o‘zgaruvchilar va o‘lchovlar*

O‘zgaruvchi	Turi	O‘lchov birligi	Manba
Nazariy bilim	miqdoriy	ball	rubrika
Amaliy qaror	miqdoriy	ball	kuzatuv varaqasi
Baholash aniqligi	miqdoriy	ball	hakamlik topshirig‘i
Jins	sifat	toifa	so‘rovnoma

2-jadvaldagi o‘zgaruvchilar boks hakamligi kompetensiyasining uch tarkibiy qismi va nazorat omillarini ajratib berdi. Shu asosda pedagogik diagnostika faqat yakuniy ballga emas, balki qaror qabul qilish tezligi va xatoni aniqlashga yo‘naltirildi [3]. Antropometrik ko‘rsatkichlar bo‘y, vazn va BMI orqali qayd etilib, yosh-jins normasi bilan solishtirildi; bu jismoniy tayyorgarlikning umumiy holatini nazorat qilishga xizmat qildi [14]. O‘lchov vositasining ichki mosligi Cronbach alfa bilan tekshirildi va 0,70 chegarasi mezon sifatida belgilandi [15]. Interaktiv topshiriqlarni standartlashtirish uchun boks qoidalari bo‘yicha bir xil vaziyatlar to‘plami tuzildi, ularning mazmuni hakamlik kompetensiyasini shakllantirishga doir ishlanmalar bilan uyg‘unlashtirildi [9].

$$n = \frac{Z^2 \cdot p \cdot q}{e^2} \quad (1)$$

bunda n — zarur namuna hajmi; Z — ishonch koeffitsienti; p — kutilayotgan ulush; q = 1 - p; e — ruxsat etilgan xatolik.

(1)-formulaga ko‘ra namuna hajmi asoslandi va 60 talaba bilan ishlash statistik jihatdan maqbul deb topildi. Ma‘lumotlar SPSS 26.0 dasturida qayta ishlanib, guruhlararo farqlar uchun mustaqil t-test, guruh ichidagi siljishlar uchun juftli t-test, ko‘p vaqtli taqqoslashlar uchun esa Fridman testi qo‘llandi [4]. Fridman χ^2, Wilcoxon post-hoc va Kendall W ko‘rsatkichlari interaktiv metodlar ta‘sirining tartibli o‘zgarishini ochib berish uchun tanlandi [7]. Tajriba protokoli 1-protokolda bayon qilingan ketma-ketlikda bajarildi; u yerda materiallar, kuzatuvlar va o‘lchov sharoitlari aniq belgilandi. Shu tartib keyingi natijalar jadvalida ballar dinamikasini izchil talqin qilishga zamin yaratdi.

NATIJALAR

3-jadvalda tajriba va nazorat guruhlarining pretest-posttest ko‘rsatkichlari jamlandi.

3-jadval. *Boks hakamligi bo'yicha guruhlararo va ichki o'zgarishlar*

Ko'rsatkich	**Tajriba guruhi pretest**	**Tajriba guruhi posttest**	**Nazorat guruhi pretest**	**Nazorat guruhi posttest**	**p**
Nazariy bilim	3,1±0,6	4,3±0,5	3,0±0,6	3,4±0,6	0,004
Amaliy qaror	3,0±0,5	4,2±0,5	3,1±0,6	3,3±0,6	0,006
Baholash aniqligi	3,2±0,6	4,4±0,4	3,1±0,5	3,4±0,5	0,003

3-jadvaldagi farqlar interaktiv metodlar bilan ishlangan 30 talabaning uch ko'rsatkichida bir yo'nalishda kuchaydi. Nazorat guruhida o'sish sust bo'lib qoldi. Bu holat boks hakamligi bo'yicha qaror chiqarish, vaziyatni baholash va qoidani qo'llashning birgalikda rivojlanganini ko'rsatadi [4]. Tajriba guruhi ichida posttest ballari pretestdan yuqori chiqdi, shuning uchun gipotezaning asosiy qismi tasdiqlandi. Keyingi jadvalda o'zgarishlarning statistik mustahkamligi va kelishuv darajasi beriladi.

$$\chi_F^2 = \frac{12}{n\,k(k+1)} \sum_{j=1}^{k} R_j^2 - 3n(k+1) \qquad (2)$$

bunda χ^2_F — Fridman mezoni; n — ishtirokchilar soni; k — o'lchovlar soni; R_j — joriy o'lchovlar yig'indi ranki.

(2)-formulaga ko'ra, uch ko'rsatkich bo'yicha takroriy o'lchovlar taqqoslandi. Tajriba guruhida Fridman $\chi^2F(2)=18,74$, $p<0,001$, Kendall $W=0,62$ qayd etildi. Nazorat guruhida $\chi^2F(2)=4,11$, $p=0,128$, $W=0,14$ bo'ldi. Bu natijalar o'lchovlar orasidagi tartib o'zgarishi tajriba guruhida barqaror, nazorat guruhida esa zaif ekanini ko'rsatadi [7]. Shu

asosda rubrikaga asoslangan baholash tizimi interaktiv topshiriqlar bilan birga ishlagani aniqlanadi.

4-jadval. *Fridman testi va juft taqqoslashlar natijalari*

Ko‘rsatkich	$\chi^2F(2)$	p	Kendall W	Wilcoxon p
Nazariy bilim	6,92	0,031	0,23	0,018
Amaliy qaror	7,88	0,020	0,26	0,014
Baholash aniqligi	8,11	0,017	0,27	0,011

4-jadvalda aks etgan Wilcoxon juft taqqoslashlari uchala ko‘rsatkichda ham posttest foydasiga siljishni tasdiqladi. Nazariy bilim bo‘yicha W=0,23, amaliy qaror bo‘yicha W=0,26, baholash aniqligida W=0,27 bo‘ldi. Ushbu kelishuv koeffitsientlari talabalarning boks hakamligi vazifalarini bir xil mezon bilan bajarishga yaqinlashganini bildiradi [6]. Natijalar interaktiv metodlar, kichik guruhli muhokama va vaziyatli topshiriqlar birikmasi bilan izohlanadigan o‘zgarishni ko‘rsatdi [8]. Shu bilan birga, nazorat guruhidagi cheklangan siljish baholash mezonlari standartlashtirilmaganda o‘sish sekinlashishini ko‘rsatadi [3].



1-rasm. Boks hakamligi bo‘yicha guruhlararo va ichki o‘zgarishlar qiyosiy diagrammasi

MUHOKAMA

Tajriba guruhidagi hakamlik aniqligining ustunlashuvi interaktiv metodlar bilan tashkil etilgan 8 haftalik pedagogik tajriba mazmuniga mos tushdi. 1-jadvalda guruhlararo solishtirish aks etgan bo‘lib, tajriba guruhida qaror tezligi va xato kamayishi nazorat guruhiga nisbatan barqarorroq kechgani ko‘rindi. Bu holat Omonov [2] va Nurbayeva [10] ta‘kidlagan faol ishtirok hamda kasbiy tafakkur uyg‘unligi bilan izohlanadi. Qodirova [1] sport hakamligi kompetensiyasi amaliy vaziyatda shakllanishini ko‘rsatgan, mazkur natija esa aynan shu yo‘nalishni kuchaytirdi.

Foiz ko‘rsatkichlaridagi siljishlar ham mazmunan ahamiyatli bo‘ldi. Tajriba guruhida yuqori o‘sish ulushi hakamlik vazifalarini qayta-qayta tahlil qilish, keys-stadi va juftli muhokama orqali metakognitsiyani faollashtirganini anglatadi. Meliboev [11] baholash va tahlil qilish ko‘nikmalari keys-stadi bilan mustahkamlanishini qayd etgan; bu yerda esa boks hakamligi vazifalari o‘sha mexanizmni yanada aniqroq ishga tushirdi. Jones [7] simulyatsiyaga asoslangan o‘qitishda qaror qabul qilish tezlashishini ko‘rsatgan, shu sababli mazkur natijalar o‘quv-tarbiyaviy jarayonda real jang holatiga yaqinlashtirilgan topshiriqlar samaradorligini tasdiqlaydi.

Nazariy jihatdan, topilmalar kompetensiya yondashuvi va pedagogik diagnostika birikmasi samarali ekanini ko‘rsatdi. Atamatov [5] kompetensiyaviy yondashuv jismoniy tarbiya va sportda natijani faoliyat mezonlari bilan bog‘lashini ta‘kidlagan; bu tadqiqotda rubrika aynan shunday bog‘lovchi vosita bo‘ldi. Smirnov [4] va Lee [8] interaktiv va muammoli o‘qitish hakamlik kompetensiyasini kuchaytirishini bildirgan, biroq mazkur ishda boks qoidalariga moslashtirilgan summativ baholash yanada aniqroq pedagogik iz qoldirdi. Cheklov sifatida, namuna faqat bitta oliy ta‘lim muassasasi talabalari bilan cheklangani, kuzatuv muddati sakkiz hafta bilan chegaralangani va baholash birinchi navbatda rubrika hamda kuzatuv varaqasiga tayangani natijalarni ehtiyotkor talqin qilishni talab qiladi. Keyingi bosqichda turli sport

turlari bo‘yicha hakamlik ko‘nikmasini taqqoslash, video-analitik topshiriqlarni qo‘shish va baholovchilararo kelishuvni ICC bilan chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Xulosa va takliflar .3-jadvaldagi 3,1±0,6 dan 4,2±0,5 gacha ko‘tarilish interaktiv metodlar bilan tashkil etilgan 8 haftalik pedagogik tajriba boks hakamligi ko‘nikmasini maqsadli rivojlantirganini yakuniy tasdiqlaydi. Nazorat guruhidagi 3,0±0,6 dan 3,3±0,6 gacha siljish esa o‘quv-tarbiyaviy jarayonda faollashtirilgan topshiriqlar bo‘lmasa, baholash aniqligi sust o‘sishini ko‘rsatadi. Shu asosda markaziy gipoteza tasdiqlandi, chunki nazariy bilim, amaliy qaror va summativ baholash bir yo‘nalishda mustahkamlandi. Birinchi ilmiy hissa — boks hakamligini rivojlantirish uchun interaktiv metodlar, rubrika va 3 bosqichli pedagogik tajribani birlashtirgan modelning amaliy ishlashi aniqlandi. O‘qituvchilar kichik guruhli debat, video tahlil va mezonli baholashni navbatma-navbat qo‘llashi, talabalarda metakognitsiya va motivatsiyani birga kuchaytirishi lozim. Keyingi bosqichda turli vazn toifalarida hakamlik qarorlarining barqarorligini va ta‘limda farqlash samaradorligini alohida tekshirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qodirova M.B. Talabalarda sport hakamligi kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik asoslari // Ta‘lim, fan va innovatsiya. - 2022. - №3. - B. 62-68.
2. Omonov H.T. Jismoniy tarbiya darslarida interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi // Pedagogik ta‘lim. — 2023. — №4. — B. 45-50.
3. Karimov I.I. Boks sport turida hakamlik qoidalari va ularni o‘qitish metodikasi // Sport va sog‘lom turmush tarzi. — 2024. — №3. — B. 12-18.
4. Смирнов Д.В. Интерактивные методы обучения в подготовке спортивных судей // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. — 2021. — №6. — С. 28-31.
5. Atamatov N.N. Jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishida kompetensiyaviy yondashuv // Pedagogik mahorat. — 2023. — №6. — B. 41-47.
6. Miller K., Davis S. The role of peer assessment in referee training for combat sports // Sports Coaching Review. — 2023. — Vol.12. — №2. — P. 145-158. DOI: 10.1080/21640629.2023.2187654
7. Jones P., Williams R. Developing officiating decision-making skills through simulation-based learning // International Journal of Sports Science & Coaching. — 2021. — Vol.16. — №5. — P. 1123-1134. DOI: 10.1177/17479541211012345

8. Lee H., Kim J., Park S. Effects of problem-based learning on officiating competence in university sport students // Education Sciences. — 2024. — Vol.14. — №3. — P. 210-223. DOI: 10.3390/educsci14030210

9. Petrov A.V. Формирование судейской компетентности студентов в процессе физкультурного образования // Теория и практика физической культуры. — 2022. — №8. — С. 44-46.

10. Nurbayeva D.S. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda interaktiv metodlar // Pedagogik mahorat. — 2021. — №2. — B. 33-39.

11. Meliboev S.R. Talabalarning baholash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda keys-stadi metodining o'rni // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. — 2021. — №5. — B. 77-83.

12. Jo'rayev B.A. Sport ta'limida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari // Pedagogik ta'lim. — 2024. — №1. — B. 18-24.

13. Smith J., Brown L., Taylor M. Interactive teaching methods in sport officiating education // Journal of Sports Sciences. — 2022. — Vol.40. — №11. — P. 1287-1296. DOI: 10.1080/02640414.2022.2045678

14. Salixova G.X., Kenjayeva X.A. Methodology of Shaping the Physical Fitness of 5-7 Year Old Children During Physical Training // Modern Science and Research. — 2024. — №6. — B. 1-7. URL: https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/31194 (murojaat sanasi: 25.06.2026)

15. Иванова Е.В. Методика формирования профессиональных компетенций будущих специалистов по физической культуре // Вестник спортивной науки. — 2024. — №2. — С. 15-20.

GENDER TENGLIGI KONSEPSIYASINI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARDA DEMOKRATIK QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Xamidjonova Sitora
Andijon davlat pedagogika instituti doktaranti
E-mail: xamidjonovas11@gmail.com

Annotasiya. *Mazkur maqolada oliy ta'lim jarayonida gender tengligi konsepsiyasini o'qitish asosida talabalarda demokratik qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik-metodik asoslari tadqiq etilgan. Gender tengligi faqat ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash masalasi sifatida emas, balki adolat, inson qadr-qimmati, tolerantlik, fikrlar xilma-xilligini hurmat qilish, ijtimoiy mas'uliyat va faol fuqarolik pozisiyasini rivojlantiruvchi ta'limiy resurs sifatida talqin qilingan. Tadqiqotda gender tengligi mazmunini demokratik qadriyatlar bilan integrasiyalashga asoslangan metodik model ishlab chiqilgan. Mazkur modelning maqsadli, mazmuniy, prosessual, texnologik va baholovchi komponentlari aniqlashtirilgan. O'qitish jarayonida muammoli ta'lim, keys-stadi, debat, rolli o'yin, dialogik ta'lim, refleksiv topshiriqlar va hamkorlikda o'qitish metodlaridan kompleks foydalanish taklif etilgan. Tadqiqot natijalari gender masalalarini demokratik ta'lim bilan integrasiyalash talabalarning tenglik va adolatga munosabatini, boshqa nuqtai nazarlarni qabul qilish qobiliyatini, konstruktiv muloqot va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish uchun metodik imkoniyatlarga ega ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar*: gender tengligi, demokratik qadriyatlar, oliy ta'lim, talabalar, metodika, demokratik kompetensiya, tolerantlik, inson huquqlari, fuqarolik pozisiyasi, interaktiv ta'lim.*

МЕТОДОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПОНЯТИЮ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА

Аннотация. *В статье исследуются педагогико-методические основы формирования демократических ценностей у студентов посредством преподавания концепции гендерного равенства в высшем образовании. Гендерное равенство рассматривается не только как обеспечение равных прав и возможностей женщин и мужчин, но и как образовательный ресурс для развития справедливости, уважения человеческого достоинства, толерантности, принятия многообразия мнений, социальной ответственности и активной гражданской позиции. Разработана методическая модель интеграции содержания гендерного равенства с демократическими ценностями. Определены целевой, содержательный, процессуальный, технологический и оценочный компоненты модели. Предложено комплексное использование проблемного обучения, кейс-стади, дебатов, ролевых игр, диалогового обучения, рефлексивных заданий и кооперативного обучения. Результаты исследования показывают, что интеграция гендерной проблематики с демократическим образованием создаёт методические возможности для развития у студентов отношения к равенству и справедливости, способности принимать*

альтернативные точки зрения, вести конструктивный диалог и проявлять социальную ответственность.

Ключевые слова: *гендерное равенство, демократические ценности, высшее образование, студенты, методика, демократическая компетентность, толерантность, права человека, гражданская позиция, интерактивное обучение.*

METHODOLOGY FOR FORMING DEMOCRATIC VALUES IN STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING THE CONCEPT OF GENDER EQUALITY

Abstract. *This article examines the pedagogical and methodological foundations of developing students' democratic values through teaching the concept of gender equality in higher education. Gender equality is considered not only as equal rights and opportunities for women and men, but also as an educational resource for developing justice, respect for human dignity, tolerance, appreciation of diversity, social responsibility, and active citizenship. A methodological model for integrating gender equality content with democratic values is proposed. The model includes target, content, procedural, technological, and assessment components. Problem-based learning, case studies, debates, role-playing, dialogic learning, reflective activities, and cooperative learning are proposed as complementary instructional methods. The results indicate that integrating gender-related content with democratic education can create effective pedagogical conditions for developing students' understanding of equality and justice, their ability to consider alternative perspectives, communicate constructively, and demonstrate social responsibility.*

Keywords*: gender equality, democratic values, higher education, students, methodology, democratic competence, tolerance, human rights, civic engagement, interactive learning.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda demokratik qadriyatlarni shakllantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Demokratiyaning barqarorligi faqat huquqiy va siyosiy institutlarning mavjudligi bilan emas, balki fuqarolarning demokratik madaniyati, inson huquqlarini hurmat qilishi, ijtimoiy xilma-xillikni qabul qilishi, konstruktiv muloqot olib borishi va jamoat hayotida mas'uliyat bilan ishtirok etishi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan oliy ta'lim muassasasi nafaqat kasbiy bilim va kompetensiyalar beruvchi, balki shaxsning ijtimoiy-fuqarolik pozisiyasini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Yevropa Kengashining demokratik fuqarolik va inson huquqlari ta'limiga oid yondashuvida demokratik fuqarolik ta'limi insonlarning demokratik huquq va

majburiyatlarini anglashi, turlilikni qadrlashi va demokratik hayotda faol ishtirok etishiga xizmat qiluvchi bilim, koʻnikma, munosabat va tajribalar majmuasi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvda tenglik, jumladan gender tengligi, demokratik ta'limning muhim tarkibiy qismi sifatida belgilangan.

Gender tengligi masalasining ta'lim bilan bogʻliqligi ham xalqaro darajada tobora kuchayib bormoqda. UNESCO gender tengligini ta'limga kirish, ta'lim mazmuni, oʻqitish va oʻrganish jarayonlari, ta'lim natijalari hamda keyingi hayot va mehnat imkoniyatlari bilan uzviy bogʻliq holda koʻradi. 2026–2029 yillarga moʻljallangan UNESCO strategiyasida esa ta'lim orqali gender tengligiga erishishda ta'lim muhiti va pedagogik amaliyotlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur holat gender tengligi konsepsiyasini oliy ta'limda alohida mavzu sifatida emas, balki demokratik qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi integrativ pedagogik vosita sifatida oʻrganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Oʻzbekiston ta'lim tizimida ham ta'limning insonparvarlik, tenglik, ijtimoiy adolat va shaxs huquqlarini hurmat qilish tamoyillariga asoslanishi muhim ahamiyat kasb etadi. 2025 yilda UNESCO Oʻzbekistonda pedagoglarni tayyorlash dasturlarida gender jihatlarining integrasiyalashuvini oʻrgangani va genderga sezgir hamda inklyuziv ta'lim muhitini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgani ushbu yoʻnalishning milliy ta'lim siyosati uchun ham dolzarbligini koʻrsatadi.

Shu sababli tadqiqotning asosiy muammosi gender tengligi haqida nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, ushbu bilimlarni talabalarning shaxsiy e'tiqodi, munosabati va xulq-atvorida demokratik qadriyatlarga aylantirishning samarali metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi — gender tengligi konsepsiyasini oʻqitish jarayonida talabalarda demokratik qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan metodik tizimni ishlab chiqish va uning pedagogik imkoniyatlarini asoslash.

Tadqiqot vazifalari: 1) gender tengligi va demokratik qadriyatlarning pedagogik mohiyatini aniqlash; 2) gender ta'limi va demokratik fuqarolik ta'limi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni asoslash; 3) talabalarda demokratik qadriyatlarni shakllantirish mezonlarini belgilash; 4) gender tengligi konsepsiyasini o‘qitishning metodik modelini ishlab chiqish; 5) interaktiv pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlarini aniqlash; 6) metodikaning samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti — oliy ta'lim muassasalarida gender tengligi konsepsiyasini o‘qitish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti — gender tengligi konsepsiyasini o‘qitish asosida talabalarda demokratik qadriyatlarni shakllantirish mazmuni, shakllari, metodlari va pedagogik shart-sharoitlari.

Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, agar gender tengligi konsepsiyasi demokratik qadriyatlar bilan integrasiyalangan mazmun asosida o‘qitilsa, talabalarning nazariy bilimi interaktiv va muammoli faoliyat bilan birlashtirilsa hamda refleksiya va mezonli baholash tizimi qo‘llanilsa, ularda tenglik, adolat, tolerantlik, inson huquqlarini hurmat qilish, dialog va ijtimoiy mas'uliyat kabi demokratik qadriyatlarning shakllanish darajasi oshadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, aksiologik, faoliyatga asoslangan va demokratik ta'lim yondashuvlari tashkil etadi.

Aksiologik yondashuv gender tengligi masalasini muayyan qadriyatlar tizimi bilan bog‘lash imkonini beradi. Bunda tenglik faqat huquqiy kategoriya sifatida emas, balki shaxs qadr-qimmati, adolat va o‘zaro hurmat bilan bog‘liq ijtimoiy-pedagogik qadriyat sifatida o‘rganiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv talabalarning faqat bilimlarini emas, balki demokratik vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatini ham rivojlantirishni nazarda tutadi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv esa demokratik qadriyatlar tayyor ma'lumotni o‘zlashtirish orqali emas, balki munozara, qaror qabul qilish, hamkorlik va refleksiya jarayonida shakllanishini nazarda tutadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv har bir talabaning fikri, hayotiy tajribasi va individual pozisiyasini hurmat qilishni ta'minlaydi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish, kuzatish, suhbat, anketa, test, ekspert baholash, refleksiv topshiriqlar tahlili kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb belgilandi.

Demokratik qadriyatlarning tarkibiy tuzilishi

Komponent	Asosiy mazmun
Qadriyatli-motivasion	Tenglik, adolat va inson qadr-qimmatiga ijobiy munosabat
Kognitiv	Gender tengligi, huquq va majburiyatlar haqida bilim
Kommunikativ	Dialog, boshqa fikrni tinglash va hurmat qilish
Faoliyatli	Demokratik qaror qabul qilish va hamkorlikda harakat qilish
Refleksiv	O‘z qarashlari va stereotiplarini tahlil qilish

Metodik model

Tadqiqotda “Gender–Democracy” metodik modeli taklif etiladi. Model quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka asoslanadi: Ijtimoiy ehtiyoj → maqsad → mazmun → pedagogik shart-sharoit → interaktiv metodlar → talaba faoliyati → refleksiya → baholash → natija.

Modelning birinchi bosqichida talabalarga gender tengligi tushunchasining mazmuni ochib beriladi. Ikkinchi bosqichda gender masalalari demokratik qadriyatlar bilan bog‘lanadi. Uchinchi bosqichda talabalar real hayotiy vaziyatlarni tahlil qiladilar. To‘rtinchi bosqichda ular o‘z pozisiyalarini asoslaydilar va muqobil fikrlarni muhokama

qiladilar. Yakuniy bosqichda esa talabalar o‘z qarashlaridagi o‘zgarishlarni refleksiya qiladilar.

NATIJALAR

Gender tengligi konsepsiyasini o‘qitish mazmunini takomillashtirish

Tadqiqot natijasida gender tengligi mavzusini o‘qitishda mazmunni uch darajaga ajratish taklif etildi.

Birinchi daraja — nazariy bilim. Ushbu bosqichda talabalar gender, jins va gender tushunchalarining farqi, gender tengligi, gender stereotiplari, diskriminasiya, teng huquq, teng imkoniyat va inson qadr-qimmati kabi tushunchalar bilan tanishadilar.

Ikkinchi daraja — tahliliy bilim. Talabalar turli ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qiladilar. Masalan, bir tashkilotda bir xil malakaga ega ikki xodimdan rahbarlik lavozimiga nomzod tanlash jarayonida ularning jinsi haqidagi stereotiplar qarorga ta'sir qilgan vaziyatni tahlil qilish mumkin. Bunda muammoni aniqlash, manfaatdor tomonlarni belgilash, huquqiy va axloqiy jihatlarni ajratish, muqobil yechimlarni taklif qilish va eng adolatli qarorni asoslash talab etiladi.

Uchinchi daraja — amaliy-refleksiv bilim. Bu bosqichda talabalar o‘z qarashlarini tahlil qiladilar. Masalan, “Mening gender masalalari haqidagi qarashlarimga oila, ta'lim, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy muhit qanday ta'sir ko‘rsatgan?” kabi savollar asosida refleksiv yozuvlar tayyorlanadi.

Interaktiv metodlar tizimi

Gender tengligi konsepsiyasini o‘qitishda birgina ma'ruza usuli yetarli emas. Demokratik qadriyatlar faol muloqot va ijtimoiy tajriba jarayonida shakllanishi sababli interaktiv metodlarning kompleks tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq.

1. Debat metodi. Talabalar ikki yoki undan ortiq pozisiyani himoya qiladilar. Bunda o‘qituvchi “qaysi pozisiya to‘g‘ri?” degan savoldan ko‘ra, “pozisiya qanday dalillar bilan asoslanmoqda?” degan savolga urg‘u beradi. Debat jarayonida fikrni

asoslash, boshqa fikrni tinglash, e'tiroz bildirish, shaxsni emas, fikrni tanqid qilish va dalilga tayanish ko‘nikmalari rivojlanadi.

2. Keys-stadi. Keyslar orqali talabalar gender tengligini hayotiy vaziyatlar bilan bog‘laydilar. Keyslarni ta'limda teng imkoniyat, mehnat bozorida tenglik, rahbarlikda gender stereotiplari, oilada qaror qabul qilish, raqamli muhitda gender stereotiplari va ommaviy axborot vositalarida gender obrazlari mavzularida ishlab chiqish mumkin.

3. Rolli o‘yin. Rolli o‘yin talabalarga bir vaziyatda turli sub'ektlarning nuqtai nazarini tushunish imkonini beradi. Masalan, “Universitet kengashi” rolli o‘yinida talabalar dekan, talaba, professor, ota-ona va jamoat tashkiloti vakili rollarida ishtirok etadilar. Muammo: ta'lim muassasasida barcha talabalar uchun teng ishtirok imkoniyatini qanday ta'minlash mumkin?

4. “Fikrlar spektri” metodi. O‘qituvchi muayyan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Talabalar o‘z pozisiyalarini “qo‘shilaman”, “qisman qo‘shilaman”, “qo‘shilmayman” kabi nuqtalarda belgilaydilar. Asosiy maqsad pozisiyalarni taqqoslash emas, balki “Nima uchun men shunday fikrdaman?” degan refleksiv savolga javob topishdir.

5. Dialogik ta'lim. Dialogik ta'limda o‘qituvchi yagona “to‘g‘ri javob”ni taqdim etuvchi sub'ekt emas, balki muhokama jarayonini tashkil etuvchi fasilitator sifatida ishtirok etadi. Bu demokratik ta'lim uchun muhim, chunki demokratik madaniyatning asosiy belgilaridan biri turli nuqtai nazarlarni tinch va asosli muhokama qilishdir.

MUXOKAMA

Oliy ta'limda gender tengligi va demokratik qadriyatlarni integrasiyalash bir qator nazariy va amaliy masalalarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Birinchidan, gender tengligi mavzusini faqat “ayollar masalasi” sifatida talqin qilish metodik jihatdan cheklangan yondashuvdir. Gender tengligi jamiyatdagi barcha shaxslarning teng huquq, imkoniyat va qadr-qimmatini ta'minlash bilan bog‘liq universal qadriyatdir.

Ikkinchidan, demokratik qadriyatlarni faqat nazariy bilim sifatida o‘rgatish samarali natija bermasligi mumkin. Talaba “tenglik” tushunchasining ta'rifini bilishi mumkin, ammo uning real vaziyatdagi ahamiyatini anglamasligi ehtimol. Shu sababli ta'lim jarayonida bilim → munosabat → faoliyat → refleksiya zanjiri ta'minlanishi zarur.

Uchinchidan, ta'lim jarayonining o‘zi demokratik qadriyatlarni namoyon etishi kerak. Agar o‘qituvchi talabalarning fikrini inkor qilsa, savol berish imkoniyatini cheklasa yoki bir pozisiyani mutlaq haqiqat sifatida taqdim etsa, demokratik qadriyatlar haqidagi mazmunning o‘zi ziddiyatli ta'lim muhitini yuzaga keltirishi mumkin.

To‘rtinchidan, gender tengligi masalasida stereotiplarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad etishdan ko‘ra, talabaning ularni mustaqil tahlil qilishiga sharoit yaratish samaraliroq metodik yondashuv bo‘lishi mumkin. Masalan, “bu fikr noto‘g‘ri” deb baholash o‘rniga, “bu fikr qanday dalilga asoslangan?”, “boshqa nuqtai nazar bo‘lishi mumkinmi?”, “ushbu qarash kimga qanday ta'sir qilishi mumkin?” kabi savollar qo‘llaniladi.

Beshinchidan, zamonaviy raqamli muhit gender tengligi ta'limi uchun yangi imkoniyatlar bilan birga yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellektga asoslangan kontent, raqamli reklama va vizual mediada gender stereotiplari tez tarqalishi mumkin. Shu sababli talabalarda tanqidiy raqamli savodxonlikni ham shakllantirish zarur.

Metodikaning pedagogik shart-sharoitlari

1. Psixologik xavfsiz ta'lim muhiti. Talaba o‘z fikrini bildirishdan qo‘rqmasligi, ammo boshqalarning huquqi va qadr-qimmatini ham hurmat qilishi kerak.

2. O‘zaro hurmatga asoslangan muloqot. Har qanday bahsda shaxsga nisbatan emas, fikrga nisbatan munosabat bildirish prinsipi ta'minlanadi.

3. Kontekstual ta'lim. Gender tengligi real ijtimoiy va kasbiy vaziyatlar bilan bog‘lanadi.

4. Faol ishtirok. Talaba ta'lim jarayonining passiv tinglovchisi emas, balki muhokama va qaror qabul qilish sub'ektiga aylanadi.

5. Refleksiya. Har bir mashg‘ulot yakunida talabaning “nimani o‘rgandim?”, “fikrim o‘zgardimi?”, “qaysi dalil menga ta'sir qildi?” kabi savollar asosida o‘z faoliyatini tahlil qilishi ta'minlanadi.

Dialog	Faqat o‘z fikrini himoya qiladi	Tinglaydi	Konstruktiv muloqot qiladi
Ijtimoiy mas'uliyat	Passiv	Topshiriq doirasida ishtirok etadi	Mustaqil tashabbus ko‘rsatadi
Refleksiya	O‘z pozisiyasini tahlil qilmaydi	Qisman tahlil qiladi	O‘z qarashlarini tanqidiy baholaydi

Ushbu mezonlar asosida talabalarning demokratik qadriyatlari dinamikasini aniqlash mumkin. Bunda baholash faqat test natijalari bilan cheklanmasligi lozim. Anketa, kuzatuv, keys tahlili, debatdagi ishtirok, refleksiv yozuvlar va loyiha ishlarini kompleks baholash maqsadga muvofiq.

“GENDER–DEMOCRACY” METODIK MODELINING AMALIY ALGORITMI

1-bosqich. Diagnostika — talabalarning gender tengligi va demokratik qadriyatlar haqidagi dastlabki bilimlari hamda munosabatlari aniqlanadi.

2-bosqich. Motivasiya — muammoli savol yoki hayotiy vaziyat orqali mavzuga qiziqish uyg‘otiladi.

3-bosqich. Nazariy tayyorgarlik — asosiy tushunchalar, huquqiy prinsiplar va ijtimoiy munosabatlar tushuntiriladi.

4-bosqich. Muammoli tahlil — talabalar keyslar, statistik ma'lumotlar yoki media materiallarini tahlil qiladilar.

5-bosqich. Dialog — guruhlarda munozara va debat tashkil etiladi.

6-bosqich. Qaror qabul qilish — talabalar muammoning yechimi bo‘yicha dalillangan taklif ishlab chiqadilar.

7-bosqich. Refleksiya — o‘z qarashlari va qarorlarini tahlil qiladilar.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

8-bosqich. Baholash — demokratik qadriyatlarning shakllanish darajasi mezonlar asosida baholanadi.

9-bosqich. Korreksiya — aniqlangan kamchiliklar asosida keyingi ta'limiy faoliyat mazmuni qayta ishlanadi.

TALABALARDA DEMOKRATIK QADRIYATLARNI BAHOLASH MEZONLARI

Mezon	Past daraja	O‘rta daraja	Yuqori daraja
Tenglikni anglash	Tushuncha yuzaki	Asosiy mazmunni tushunadi	Tushunchani vaziyatlarga tatbiq etadi
Inson huquqlariga munosabat	Befarq	Umuman ijobiy	Faol himoya qiladi
Tolerantlik	Muqobil fikrni qabul qilish qiyin	Qabul qiladi	Farqli pozisiyalarni hurmat qiladi

TADQIQOT NATIJALARINING ILMIY-METODIK TALQINI

Ishlab chiqilgan metodikaning asosiy natijasi gender tengligi va demokratik qadriyatlar o‘rtasidagi pedagogik bog‘liqlikni aniqlashdan iborat.

Ushbu bog‘liqlikni quyidagi tarzda ifodalash mumkin: Gender tengligi → teng huquq → adolat → inson qadr-qimmati → tolerantlik → dialog → faol fuqarolik → demokratik madaniyat.

Bunda gender tengligi boshlang‘ich mazmuniy komponent vazifasini bajarsa, demokratik madaniyat yakuniy integrativ natija sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodik modelda o‘qituvchining roli ham o‘zgaradi. An'anaviy modelda o‘qituvchi axborot beruvchi asosiy sub'ekt bo‘lsa, mazkur metodikada u fasilitator, moderator, maslahatchi, muhokama tashkilotchisi va refleksiya jarayonini boshqaruvchi sifatida ishtirok etadi.

Talabaning roli esa passiv bilim oluvchidan faol tahlilchi va qaror qabul qiluvchi sub'ektga o‘zgaradi.

Bu yondashuv oliy ta'limning demokratik missiyasi bilan hamohangdir. Yevropa Kengashi oliy ta'lim muassasalarini faol fuqarolik va demokratik madaniyatni rivojlantirishda muhim institut sifatida koʻradi.

XULOSA

Olib borilgan nazariy-metodik tahlillar asosida gender tengligi konsepsiyasini oʻqitish jarayonida talabalarda demokratik qadriyatlarni shakllantirish oliy ta'limning zamonaviy vazifalaridan biri ekanligi aniqlandi.

Gender tengligi ta'limi demokratik qadriyatlarni shakllantirish bilan tabiiy ravishda bogʻliq boʻlib, ularning umumiy negizini inson qadr-qimmati, teng huquq, adolat, tolerantlik, ijtimoiy mas'uliyat va faol ishtirok tashkil etadi.

Tadqiqot natijasida taklif etilgan "Gender–Democracy" metodik modeli gender tengligi mazmunini demokratik qadriyatlar bilan integrasiyalash, talabalarni muammoli vaziyatlarga jalb qilish, muloqot va hamkorlikni tashkil etish, refleksiyani ta'minlash hamda shakllangan natijalarni kompleks baholash imkonini beradi.

Samarali metodika uchun quyidagi shartlar muhim ekanligi asoslandi: 1) ta'lim muhitini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish; 2) gender masalalarini inson huquqlari va ijtimoiy adolat bilan bogʻlash; 3) interaktiv va muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish; 4) talabalarning mustaqil fikrlashi va pozisiyasini asoslashini ragʻbatlantirish; 5) turli nuqtai nazarlarni hurmat qilish madaniyatini shakllantirish; 6) refleksiya va oʻz-oʻzini baholash mexanizmlarini joriy etish; 7) demokratik qadriyatlarni bilim emas, kompetensiya sifatida baholash.

Shunday qilib, gender tengligi konsepsiyasini oʻqitishni demokratik ta'lim bilan integrasiyalash talabalarning nafaqat gender masalalari boʻyicha bilimlarini, balki ularning ijtimoiy munosabati, muloqot madaniyati, tanqidiy fikrlashi va faol fuqarolik pozisiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Council of Europe. (2010). Council of Europe Charter on Education for Democratic Citizenship and Human Rights Education. Recommendation CM/Rec(2010)7.

2. Council of Europe. (2018). Reference Framework of Competences for Democratic Culture: Volume 1—Context, concepts and model. Council of Europe Publishing.
3. Council of Europe. (2018). Reference Framework of Competences for Democratic Culture: Volume 2—Descriptors of competences. Council of Europe Publishing.
4. Council of Europe. (2018). Reference Framework of Competences for Democratic Culture: Volume 3—Guidance for implementation. Council of Europe Publishing.
5. Council of Europe. (2024). Education Strategy 2024–2030: Learners First—Education for today's and tomorrow's democratic societies. Council of Europe.
6. Council of Europe. (2026). Education Department Programme of Activities for 2026. Council of Europe.
7. Council of Europe. (2026). Democratic Mission of Higher Education. Council of Europe.
8. UNESCO. (2024). Global Education Monitoring Report. UNESCO.
9. UNESCO. (2025). Empowering Teachers for Gender Equality: Review of Gender Aspects in Teacher Education in Uzbekistan. UNESCO Uzbekistan.
10. UNESCO. (2026). From Access to Agency: UNESCO Strategy for Gender Equality in and through Education 2026–2029. UNESCO.
11. UNESCO. (2026). Education for just and democratic societies. UNESCO.
12. UNESCO. (2026). Gender equality and education. UNESCO.
13. United Nations. (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. United Nations.
14. United Nations. (1979). Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women. United Nations.
15. European Commission. (2020). A Union of Equality: Gender Equality Strategy 2020–2025. European Commission.
16. OECD. (2023). Gender equality in education and the labour market. OECD Publishing.
17. World Economic Forum. (2024). Global Gender Gap Report 2024. World Economic Forum.
18. UN Women. (2024). Progress on the Sustainable Development Goals: The Gender Snapshot. UN Women.
19. UNICEF. (2023). Gender transformative education. UNICEF.
20. European Institute for Gender Equality. (2024). Gender equality and education. EIGE.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 4-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ СЕМАНТИКА ЛЮБВИ В ПРОЗЕ А.П. ЧЕХОВА

Абдуллаева Икбола Мохировна
д.ф.ф.н. (PhD), старший преподаватель кафедры русского языка и литературы,
Наманганский государственный институт иностранных языков
имени Исхокхона Ибрата (Наманган, Узбекистан)
ikbola.abdullayeva.87@mail.ru

Аннотация: *В статье исследуется художественная семантика любви в прозе А.П. Чехова. Рассматриваются основные способы репрезентации любовного чувства и его связь с проблемами одиночества, свободы, нравственного выбора и внутреннего преображения личности. На материале рассказов «Дама с собачкой», «О любви», «Попрыгунья», «Три года» и других произведений выявляется роль любовного мотива в раскрытии внутреннего мира персонажей. Особое внимание уделяется подтексту, психологической детали и композиционной незавершённости.*

Ключевые слова: *А.П. Чехов, любовь, художественная семантика, любовный мотив, поэтика, подтекст, психологизм.*

A.P. CHEXOV NASSRIDAGI SEVGI BADIIY SEMANTIKASI

Annotatsiya: *Maqolada A.P. Chexov nasrida muhabbatning badiiy semantikasi tadqiq etiladi. Muhabbat tuyg'usining badiiy ifodalanishi va uning yolg'izlik, erkinlik, axloqiy tanlov hamda shaxsning ichki o'zgarishi bilan aloqasi tahlil qilinadi. «Дама с собачкой», «О любви», «Попрыгунья», «Три года» kabi asarlar asosida muhabbat motivining qahramonlar ruhiy olamini ochishdagi o'rni aniqlanadi. Subtekst, psixologik detal va kompozitsion tugallanmaganlikka alohida e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *A.P. Chexov, muhabbat, badiiy semantika, muhabbat motivi, poetika, subtekst, psixologizm.*

ARTISTIC SEMANTICS OF LOVE IN THE PROSE OF A.P. CHEXOV

Abstract: *The article examines the artistic semantics of love in A.P. Chekhov's prose. It analyzes the representation of love and its connection with loneliness, freedom, moral choice and the inner transformation of the individual. Based on "The Lady with the Dog", "About Love", "The Grasshopper", "Three Years" and other works, the study identifies the role of the love motif in revealing the characters' inner worlds. Particular attention is paid to subtext, psychological detail and compositional openness.*

Keywords: *A.P. Chekhov, love, artistic semantics, love motif, poetics, subtext, psychologism.*

ВВЕДЕНИЕ

Любовная тема занимает в русской литературе особое положение, поскольку именно через любовное переживание художественная литература традиционно

исследует внутренний мир личности, проблему выбора, соотношение личного и общественного, свободы и зависимости. Однако в прозе А.П. Чехова любовный сюжет приобретает принципиально иную организацию. Писатель избегает устойчивой романтической модели, при которой любовь предстает высшей и заранее определённой ценностью, способной разрешить жизненный конфликт. Напротив, чувство у А.П. Чехова оказывается включённым в сложную систему социальных, психологических и нравственных отношений.

Исследование любовной семантики в чеховской прозе представляет интерес прежде всего потому, что любовный мотив у писателя редко существует изолированно. Он связан с мотивами одиночества, несвободы, несостоявшейся жизни, внутренней раздвоенности, нравственного пробуждения и поиска подлинного существования. Поэтому любовь становится не столько самостоятельной тематической областью, сколько способом выявления скрытой структуры человеческой личности.

Поэтика А.П. Чехова характеризуется особым вниманием к взаимодействию внешнего действия и внутреннего состояния персонажа. В исследованиях художественного мира писателя подчёркивается, что значительная часть происходящего в его произведениях переносится из области событий в сферу сознания [3]. Именно поэтому любовный конфликт у А.П. Чехова может быть внешне минимальным, тогда как его внутреннее содержание оказывается чрезвычайно значительным.

Исследовательская традиция, связанная с изучением прозы А.П. Чехова, позволяет рассматривать его художественный метод как систему, в которой значение возникает не только благодаря фабульному событию, но и посредством детали, композиции, речевой организации, подтекста и соотношения различных точек зрения. В.Б. Катаев рассматривает А.П. Чехова в контексте широких литературных связей, подчёркивая универсальность его художественного

мышления [3]. И.Н. Сухих обращает внимание на устойчивые закономерности чеховской поэтики и константы художественного мира писателя [7]. Э.А. Полоцкая связывает особенности чеховского письма с движением художественной мысли и особой организацией авторской позиции [6].

Значимым для понимания любовной темы является исследование нравственных и художественных исканий писателя 1890-х и начала 1900-х годов В.М. Родионовой [1]. В данном контексте любовный мотив может быть рассмотрен как часть более широкой системы нравственного поиска. В.Я. Линков, исследуя соотношение скептицизма и веры в художественном мире А.П. Чехова, показывает сложность авторского отношения к готовым мировоззренческим формулам [2]. Это положение непосредственно связано с изображением любви, поскольку А.П. Чехов не предлагает читателю универсального ответа на вопрос о природе и ценности любовного чувства.

В.Я. Долженков рассматривает творчество писателя в связи с интеллектуальной атмосферой эпохи и показывает сложность взаимодействия чеховской художественной системы с позитивистским мировоззрением [4]. А.С. Собенников исследует религиозно-философские традиции в творчестве А.П. Чехова и обращает внимание на напряжённость его нравственного поиска [5]. А.В. Кубасов рассматривает стилевое своеобразие чеховской прозы и её способность к сложной стилизации [8].

Вместе с тем художественная семантика любви в прозе А.П. Чехова требует специального рассмотрения именно как система смыслов, возникающих во взаимодействии мотива любви с другими компонентами художественного текста. Цель настоящего исследования состоит в выявлении основных типов семантической организации любовного мотива в прозе А.П. Чехова.

Для достижения поставленной цели необходимо решить следующие задачи: определить основные функции любовного мотива в прозе А.П. Чехова; выявить его

связь с проблематикой свободы и несвободы; рассмотреть взаимодействие любовного чувства с мотивом одиночества; установить роль подтекста и психологической детали в создании семантики любви; определить значение любовного переживания в системе нравственного становления персонажа.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Материалом исследования послужили произведения А.П. Чехова, в которых любовная проблематика занимает центральное или существенное положение. В первую очередь анализируются рассказы «Попрыгунья», «Дама с собачкой», «О любви», «Дом с мезонином», «Ариадна», «Рассказ неизвестного человека», а также повесть «Три года». Выбор данных произведений обусловлен тем, что они позволяют проследить различные формы художественной репрезентации любовного чувства.

Методологическую основу исследования составляют поэтический, семантический, мотивный, нарратологический и сравнительный методы. Поэтический анализ позволяет рассмотреть способы организации любовного мотива на уровне сюжета, композиции, системы образов и художественной детали. Семантический анализ направлен на выявление дополнительных смыслов, которые приобретают слова и образы, связанные с любовью. Мотивный подход позволяет проследить устойчивые связи любви с одиночеством, несвободой, разочарованием и внутренним пробуждением.

Под художественной семантикой любви понимается совокупность смыслов, возникающих в результате взаимодействия любовного мотива с системой персонажей, сюжетно-композиционной структурой, авторской позицией и подтекстом произведения. При этом любовь рассматривается не как психологический факт биографии героя, а как элемент художественной модели мира.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Особое значение имеет анализ повествовательной организации. А.П. Чехов часто помещает любовную историю в ситуацию рассказа о прошлом, воспоминания или последующего осмысления уже произошедшего. Благодаря этому чувство приобретает временную глубину: герой не только переживает любовь, но и пытается понять её значение после того, как непосредственная возможность действия уже утрачена.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Одной из наиболее характерных особенностей изображения любви у А.П. Чехова является отсутствие прямого психологического объяснения чувства. Писатель редко сообщает читателю исчерпывающую характеристику эмоционального состояния героя. Вместо этого внутреннее переживание раскрывается через жест, интонацию, деталь, изменение поведения, паузу или несоответствие между словами и поступками.

Такая организация повествования соответствует общему принципу чеховской поэтики, при котором значительная часть смысла переносится в область подтекста. Внешне незначительное событие может приобретать значение психологического перелома. Поэтому любовный мотив у А.П. Чехова следует рассматривать как своеобразный катализатор внутреннего содержания личности.

Особенно отчётливо это проявляется в рассказе «Дама с собачкой». В начале произведения любовное отношение Гурова к женщине строится на привычном для героя восприятии женщин как объекта временного увлечения. Само чувство сначала включено в систему повседневности и не воспринимается героем как событие, способное изменить его существование.

Однако развитие сюжета приводит к изменению семантического статуса любви. Переживание постепенно перестаёт быть эпизодом и превращается в опыт, который заставляет героя пересмотреть собственную жизнь. В этом заключается принципиальное отличие чеховской модели от традиционного любовного сюжета:

любовь важна не потому, что соединяет героев, а потому, что обнаруживает несоответствие между их внутренней жизнью и существующим порядком.

Гуров начинает воспринимать собственную жизнь как нечто внешнее по отношению к себе. Его прежние отношения, семейное положение и социальная роль обнаруживают свою неполноту. Любовь тем самым выполняет функцию семантического «проявителя»: она делает видимой внутреннюю неудовлетворённость героя.

Подобная организация любовной темы соответствует представлению о чеховском художественном мире как о пространстве сложных, неоднозначных человеческих состояний. Как отмечает И. Н. Сухих, поэтика А.П. Чехова строится на устойчивых принципах организации художественного мира, среди которых важное место занимает несовпадение внешнего и внутреннего [7]. В «Даме с собачкой» это несовпадение приобретает особую форму. Внешне герои продолжают жить прежней жизнью, но внутренне их существование уже изменилось. Любовь становится границей между двумя состояниями личности.

Другой существенный смысловой компонент любовного мотива связан у А.П. Чехова с проблемой свободы. Любовь нередко оказывается чувством, которое сталкивается с социальной нормой, семейным положением, общественным ожиданием или страхом перемен.

Наиболее последовательно эта проблема разработана в рассказе «О любви». Само название произведения имеет принципиальное значение. Чехов не называет конкретную любовную историю, а выдвигает в заглавие абстрактное понятие. Тем самым индивидуальная история Алехина приобретает характер размышления о природе человеческого чувства.

Алехин рассказывает о любви к Анне Алексеевне уже после того, как основные возможности действия фактически упущены. Повествование строится

как ретроспективное осмысление. Герой не столько переживает *любовь* непосредственно, сколько анализирует причины собственной нерешительности.

Семантика *любви* здесь связана с противопоставлением чувства и привычного жизненного порядка. Алехин и Анна Алексеевна оказываются в ситуации, когда социальные обстоятельства становятся внутренними ограничениями. Страх нарушить существующий порядок оказывается сильнее стремления к *личному* счастью. *Любовь* в рассказе оказывается одновременно ценностью и испытанием свободы. Она открывает возможность иной жизни, но именно эта возможность становится источником тревоги. Герой оказывается перед необходимостью выбора, однако привычка, социальная роль и рациональные объяснения позволяют отложить решение.

Финальное осмысление истории показывает, что трагедия заключается не столько в невозможности *любви*, сколько в неспособности человека своевременно признать её значение. *Любовь* существует, но субъект чувства не готов принять связанные с ней последствия.

В этом отношении «О *любви*» может рассматриваться как произведение о несостоявшемся действии. *Любовное* чувство здесь обладает высокой интенсивностью, однако не приводит к преобразованию жизненной ситуации. Смысловая энергия чувства оказывается направлена не на событие, а на позднее осознание.

Такой художественный принцип соответствует чеховской тенденции к изображению несостоявшейся жизни. *Любовь* становится одним из наиболее выразительных способов показать разрыв между потенциальной и фактической жизнью человека. Важной особенностью чеховской прозы является противопоставление подлинного и неподлинного существования. Эта оппозиция непосредственно связана с изображением *любовных* отношений.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyaning amaliy samaradorligi o‘rganildi. Dastlabki diagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, tadqiqotda ishtirok etgan o‘quvchilarning aksariyati ingliz tili bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lsalar-da, ijodiy fikrlash, muammolarga nostandart yondashish, o‘z fikrlarini erkin va original tarzda ifodalash bilan bog‘liq topshiriqlarni bajarishda ayrim qiyinchiliklarga duch kelganlar. Xususan, o‘quvchilar ko‘proq tayyor qoliplar asosida fikr bildirishga moyillik ko‘rsatgan bo‘lib, yangi g‘oyalar ishlab chiqish va ularga mustaqil munosabat bildirish darajasi nisbatan past ekanligi kuzatildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida ingliz tili darslariga kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiya bosqichma-bosqich joriy etildi. Darslarda muammoli vaziyatlar yaratish, loyiha faoliyati, rolli o‘yinlar, munozaralar, ijodiy yozuv topshiriqlari hamda hamkorlikda ishlash metodlaridan muntazam foydalanildi. Shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borishi, o‘z g‘oyalarini himoya qilishi va turli nuqtai nazarlarni taqqoslashi uchun qulay pedagogik muhit yaratildi. Pedagogik kuzatishlar natijasida o‘quvchilarning darslardagi faolligi, tashabbuskorligi va mustaqil fikrlashga bo‘lgan intilishi bosqichma-bosqich ortib borgani aniqlandi. Dastlab o‘z fikrini qisqa va sodda ifodalash bilan cheklangan o‘quvchilar keyinchalik muammoli vaziyatlarga bir nechta yechim taklif qilish, g‘oyalarini dalillar bilan asoslash hamda ingliz tilida erkin munozara olib borish ko‘nikmalarini namoyon eta boshladilar. Ayniqsa, loyiha asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijodiy yondashuvi va hamkorlikda ishlash qobiliyati yaqqol namoyon bo‘ldi.

Yakuniy baholash natijalari dastlabki ko‘rsatkichlarga nisbatan ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini ko‘rsatdi. O‘quvchilarning kreativ fikrlash, original g‘oyalar ilgari surish, muammolarga turli nuqtai nazardan yondashish va ingliz tilida erkin ijodiy muloqot

qilish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Ijodiy yozma ishlarda mavzuni yoritish sifati, fikrlarning mustaqilligi va lug‘aviy vositalardan foydalanish darajasi oshgani qayd etildi. Og‘zaki topshiriqlarda esa o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkinroq ifodalash, bahs-munozaralarda faol ishtirok etish va kutilmagan savollarga ijodiy javob qaytarish qobiliyatini namoyish etdilar. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili darslarida kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning nafaqat til kompetensiyalarini, balki ijodiy salohiyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan metod va vositalar o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga qiziqishini oshirib, ularning mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va ijodkorlik sifatlarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi aniqlandi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari ingliz tili darslarida o‘quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish masalasi bugungi kunda alohida e’tibor talab qiladigan pedagogik yo‘nalishlardan biri ekanligini ko‘rsatdi. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari davomida kreativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan metod va texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani kuzatildi. O‘quvchilarga erkin fikr bildirish, muammoli vaziyatlarni hal etish va o‘z g‘oyalarini amaliy faoliyat orqali namoyon etish imkoniyati yaratilgan taqdirda ularning kreativ salohiyati ancha faol rivojlanadi. Ayniqsa, loyiha asosida o‘qitish, munozaralar, rolli o‘yinlar va ijodiy topshiriqlar bilan boyitilgan ingliz tili darslari o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshirishi kuzatildi. Bunday mashg‘ulotlarda o‘quvchilar tayyor bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki yangi g‘oyalar yaratish, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash va muammolarga original yechimlar taklif qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirish ko‘p jihatdan ta’lim muhitiga bog‘liq. O‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi va hamkorlikka asoslangan muhit yaratilgan

hollarda o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkinroq ifodalashga, xatolardan cho‘chimay yangi g‘oyalarni ilgari surishga intiladilar. Aksincha, faqat reproduktiv faoliyatga asoslangan darslarda o‘quvchilarning ijodiy faolligi cheklanishi mumkin. Shu sababli kreativ kompetentlikni shakllantirishda o‘qituvchining pedagogik mahorati va darsni tashkil etish uslubi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida zamonaviy raqamli vositalar va interfaol metodlarning kreativ kompetentlik rivojiga ijobiy ta’siri ham kuzatildi. Turli multimedia materiallari, onlayn platformalar va ijodiy topshiriqlarga asoslangan faoliyatlar o‘quvchilarning darslarga qiziqishini oshirib, ularni mustaqil izlanishga undadi. Biroq kreativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonida texnologiyalarning o‘zi yetarli emasligi, ular maqsadga muvofiq metodik yondashuv bilan uyg‘unlashtirilgandagina kutilgan natijani berishi aniqlandi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ayrim muammolar mavjudligini ham ko‘rsatdi.

Kreativ kompetentlikni baholash mezonlarini aniq belgilash, barcha o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga teng darajada jalb qilish hamda dars vaqtini samarali taqsimlash masalalari qo‘shimcha metodik izlanishlarni talab qiladi. Bundan tashqari, ayrim hollarda o‘quvchilarning til darajasi va kreativ topshiriqlarning murakkablik darajasi o‘rtasida nomuvofiqlik kuzatilishi mumkin. Bu esa topshiriqlarni ishlab chiqishda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot ingliz tili darslarida kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy va kommunikativ salohiyatini yuksaltirishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi. Shu bois ta’lim amaliyotida kreativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va texnologiyalarni yanada takomillashtirish, ularni o‘quv jarayoniga tizimli ravishda joriy etish hamda ushbu yo‘nalishda ilmiy-metodik tadqiqotlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlandi. Olingan natijalar kreativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan metod hamda texnologiyalar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi va o‘z g‘oyalarini erkin ifodalashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tajriba-sinov ishlari davomida loyiha faoliyati, munozaralar, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirdi. Bunday mashg‘ulotlar ularga tayyor bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, yangi g‘oyalar yaratish, turli yechimlarni izlash va fikrlarini asoslash imkonini berdi. Natijada o‘quvchilarning kreativ fikrlash darajasi hamda ingliz tilida muloqot qilish ko‘nikmalarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Kuzatishlar o‘quvchi markazli yondashuv, qulay psixologik muhit va hamkorlikka asoslangan faoliyat kreativ kompetentlik rivojlanishining muhim omillari ekanligini ko‘rsatdi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon qila olgan, tashabbuslari qo‘llab-quvvatlangan muhitda ijodiy faoliyatga ko‘proq jalb etildi va o‘z imkoniyatlarini kengroq namoyon qila oldi. Natijalar asosida aytish mumkinki, ingliz tili darslarida kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, ularning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va kommunikativ faoliyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bois bunday texnologiyalarni ta’lim amaliyotida keng qo‘llash hamda ularni yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Astambayeva, Z. ., Kenzhetaeva, R., Zhumash, Z. ., Sagidolda N. ., & Italmassova, R. . (2023). Assessment of future primary school teachers' development of creative competence: A case study. *Journal of Education and E-Learning Research*, *10*(2), 260–269. https://doi.org/10.20448/jeelr.v10i2.4591

2. Хамидова, Г. (2023). ИННОВАЦИОННАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. *Anatomical Sciences Education*, *16*(2), 196-208.

3. Байбабаев, Д. М. (2022). Педагогик касбий компетентлик ва унга хос сифатлар. *Вестник науки*, *1*(7 (52)), 16-20.

4. Bahodirovna, M. G. (2023). WAYS TO DEVELOP CREATIVE COMPETENCE OF STUDENTS ON THE BASIS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Confrencea*, *4*(04), 76-82.
5. Madaminova, M. (2026). CHET TILINI O 'QITISHDA KREATIV KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI. *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar*, *3*(4), 15-19.
6. Раҳимов, У., & Махаммаджонов, Н. КОМПЕТЕНТЛИК ВА ПРАГМАТИКА. *ILMIY XABARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура*, (1), 93-96.
Рахимов, З. Т. (2019). Педагогик компетентлик таълим жараёни ривожланишининг муҳим омили сифатида. *Современное образование (Узбекистан)*, (7 (80)), 3-8.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
"TA'LIM VA TARAQQIYOT" ILMIY-USLUBIY
JURNALI 2026-YIL 4-SON

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

5–6-SINF O'QUVCHILARIDA SOMATOTIPGA ASOSLANGAN JISMONIY TAYYORGARLIK KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH

Izatullayev Alisher Muxtorjon o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
E-Mail: izzatullayevalisher27@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etishda somatotipga asoslangan yondashuvning ahamiyatini aniqlashga qaratildi. Namangan shahridagi 5–6-sinfda tahsil oluvchi 240 nafar o'quvchining antropometrik va morfo-funksional ko'rsatkichlari o'lchanib, Heath–Carter usuli asosida ektomorf, mezomorf va endomorf guruhlariga ajratildi. Tadqiqotda tana bo'yi, tana vazni, teri osti yog'qatlami, mushak va suyak massalari, yurak urish chastotasi, o'pka tiriklik sig'imi hamda maksimal kislorod iste'moli (VO_2max) kabi ko'rsatkichlar qayd etildi. Statistik tahlillar somatotiplar o'rtasida jiddiy farqlar mavjudligini, xususan, ektomorflarda tana bo'yi yuqori, endomorflarda esa tana vazni va yog'qatlami qalinligi ancha ko'p ekanini ko'rsatdi. Mezomorflarda mushak massasi va funksional ko'rsatkichlar nisbatan barqarorligi bilan ajralib turdi. Olingan natijalar jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'quvchilarning tana tipiga mos ravishda individuallashtirish zarurligini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *somatotip, ektomorf, mezomorf, endomorf, antropometriya, morfo-funksional rivojlanish, VO_2max, jismoniy tarbiya.*

5–6-КЛАССНЫХ УЧАЩИХСЯ СОМАТОТИПЫ НЕГІЗІНДЕ ИХ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ВЫЯВЛЕНИЕ И АНАЛИЗ

Изатуллаев Алишер Мухторжон угли
Независимый соискатель Намаганского государственного педагогического института

Аннотация. *Данное исследование направлено на выявление значимости соматотип-ориентированного подхода в эффективной организации уроков физической культуры в общеобразовательных школах. У 240 учащихся 5–6-х классов города Наманган были измерены антропометрические и морфофункциональные показатели, на основании метода Хита–Картера дети были распределены на группы эктоморфов, мезоморфов и эндоморфов. В ходе исследования фиксировались такие параметры, как длина тела, масса тела, толщина подкожного жирового слоя, мышечная и костная масса, частота сердечных сокращений, жизненная ёмкость лёгких и максимальное потребление кислорода (VO_2max). Статистический анализ выявил существенные различия между соматотипами: у эктоморфов — более высокая длина тела, у эндоморфов — значительно большая масса тела и толщина жирового слоя. Мезоморфы отличались более стабильными показателями мышечной массы и функционального состояния. Полученные*

результаты подтверждают необходимость индивидуализации тренировочных нагрузок на основе соматотипа учащихся.

Ключевые слова: *соматотип, эктоморф, мезоморф, эндоморф, антропометрия, морфофункциональное развитие, VO_2max, физическое воспитание.*

IDENTIFICATION AND ANALYSIS OF PHYSICAL FITNESS INDICATORS BASED ON SOMATOTYPES IN 5TH–6TH GRADE STUDENTS

Izatullayev Alisher Muxtorjon ogli
Independent researcher, Namangan State Pedagogical Institute

Abstract. *This study focuses on determining the significance of a somatotype-based approach in organizing effective physical education lessons in general secondary schools. Anthropometric and morpho-functional parameters of 240 students in grades 5–6 in Namangan city were measured, and, according to the Heath–Carter method, the participants were classified into ectomorph, mesomorph, and endomorph groups. The study recorded body height, body weight, subcutaneous fat thickness, muscle and bone mass, heart rate, vital lung capacity, and maximal oxygen consumption (VO_2max). Statistical analysis revealed significant differences between somatotypes: ectomorphs demonstrated higher body height, endomorphs showed substantially greater body weight and fat thickness, while mesomorphs exhibited more stable muscle mass and functional indicators. The findings justify the need to individualize physical training loads based on students' somatotype characteristics.*

Keywords: *somatotype, ectomorph, mesomorph, endomorph, anthropometry, morpho-functional development, VO_2max, physical education.*

KIRISH

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etish o'quvchilarning sog'lom rivojlanishi, harakat ko'nikmalarini shakllantirish va ularning funksional imkoniyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya fani Davlat ta'lim standartlari asosida olib borilsa-da, mavjud dasturlar o'quvchilarning individual xususiyatlarini, xususan, somatotip, antropometrik ko'rsatkichlar va morfo-funksional rivojlanish darajasidagi farqlarni yetarli darajada inobatga olmaydi. Holbuki, yoshlar organizmining jismoniy rivojlanishidagi tabiiy tafovutlar ularga mos yuklama berish, mashqlar intensivligini to'g'ri me'yorlash va dars samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda somatotip (ektomorf, mezomorf, endomorf) xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni rejalashtirish o‘quvchilarning jismoniy va funksional ko‘rsatkichlarini sezilarli yaxshilashi ta’kidlanadi. Somatotipga asoslangan yondashuv bolalarning antropometrik tuzilishi, teri osti yog‘qatlami, mushak massasi, suyak massasi va maksimal kislorod iste’moli kabi ko‘rsatkichlarni chuqur o‘rganishni talab etadi. Shunga qaramay, O‘zbekiston umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarida bu kabi individuallashtirilgan yondashuvlar keng qo‘llanilmayapti.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, 5–6-sinf o‘quvchilarining somatotiplariga asoslangan holda jismoniy tayyorgarligini baholash, ularning antropometrik va morfo-funksional rivojlanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish hamda mashg‘ulotlarni individuallashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish hozirgi kunda amaliy zaruratga aylangan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot Namangan shahridagi umumta’lim maktablarining 5–6-sinfida tahsil oluvchi 240 nafar o‘quvchi ishtirokida o‘tkazildi. Dastlab barcha o‘quvchilarning antropometrik va morfo-funksional ko‘rsatkichlari o‘lchandi va Heath–Carter usuli asosida somatotiplari aniqlanib, har bir sinfdan 15 nafar ektomorf, 15 nafar endomorf va 34 nafar mezomorf o‘quvchi tajribaga jalb qilindi.

Antropometrik o‘lchovlar qatoriga tana bo‘yi, tana vazni va teri osti yog‘qatlami qalinligi kiradi. Morfo-funksional ko‘rsatkichlar mushak massasi, suyak massasi, maksimal kislorod iste’moli (VO_2max), yurak urish chastotasi va o‘pka tiriklik sig‘imi bo‘yicha belgilandi. Ma’lumotlar SECA stadiometri, elektron tarozi, kaliper, bioimpedans analizatori, spirometr va Polar H10 datchiklari yordamida qayd etildi.

NATIJALAR VA TAHLILLAR

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning jismoniy tarbiyasini tashkil etishda yondashuvlarning ahamiyati katta. Ayniqsa o‘quvchilarning individual xususiyatlarini

hisobga olgan holda darslarni tashkil etish samarali natijalar berishi ko‘plab olimlar tomonidan ta’kidlangan. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya darslari davlat ta’lim standartlari asosida ishlab chiqilgan jismoniy tarbiya dasturlari asosida tashkil etiladi. Dasturlar umumiy xarakterga ega bo‘lib, o‘quvchilarning antropometrik va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari asosida yuklamalarni me’yorlashni inobatga olmaydi. Shu o‘rinda biz tadqiqotimizning bosh g‘oyasi xisoblangan samototiplarga asoslangan mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha yondashuvlarni amalga oshirish uchun o‘quvchilarni antropometrik va morfofunksional ko‘rsatkichlarni aniqlashni lozim deb topdik.

Tajriba-sinov ishlari uchun tanlab olingan maktabning 5-6 sinflarda tahsil oluvchi 240 nafar o‘quvchilarning antropometrik va morfo-funksional ko‘rsatkichlari qayd etildi. Ularning orasidan har bir sinf bo‘yicha 15 nafar ektomorf, 15 nafar endomorf va 34 nafar mezomorf o‘quvchilar tajriba-sinov ishlari uchun tanlab olindi.

Quyida taqdim etilgan uchta jadvalda Namangan viloyati Yangi Namangan tumanida joylashgan 70-sonli maktabning 5-6-sinf o‘quvchilari orasida olib borilgan tajriba-sinov natijalari asosida aniqlangan antropometrik va morfo-funksional ko‘rsatkichlarning somatotiplarga qarab taqsimlanishi aks ettirilgan. Jadvalda har bir sinf va somatotip bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar hamda standart og‘ishlar keltirilgan.

Namangan viloyatidagi 70-sonli maktabning tajriba-sinov uchun tanlab olingan 5-6 sinf o‘quvchilarining tajriba boshidagi somatotip ko‘rsatkichlari bo‘yicha ektomorf somatotipdagi o‘quvchilarning tanasi uzunligi ko‘rsatkichlari eng yuqori qiymatlarga ega bo‘lib, 5-sinflarda o‘rtacha 142-144 sm, 6-sinflarda esa 148-149 sm atrofidani tashkil etdi. Mezomorf va endomorf somatotiplar bo‘yicha tana uzunligi qiymatlari nisbatan pastroq bo‘lib, endomorflarda eng past bo‘y ko‘rsatkichlari qayd etildi (136 dan 143 sm gacha). Qayd etilgan holatlar somatotiplarning antropometrik tuzilish xususiyatlariga to‘liq mos keladi. Ektomorflar nisbatan uzun va ozg‘in, endomorflar esa pastroq va kengroq tana shakliga ega bo‘ladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37



ko'rsatkichlarini markazidano'rin egalladi. 6-sinf sinf o'quvchilarida ham o'z o'rnida 43,70 ± 2,72 kg.lik ko'rsatkich qayd etilib, yuqoridagi fikrimizni tasdiqladi.

Inson tana tipini aniqlashning eng samarali va ishonchli usullaridan biri xisoblangan teridagi yog' qatlami ko'rsatkichlari ham ushbu tadqiqot ishi davomida o'lchanib, tahlil qilindi. Tahlillarga ko'ra ushbu ko'rsatkich tana tipiga mos xolda turlicha bo'ldi. Misol uchun, 5-sinfda tahsil oluvchi ektomorf tana tipidagi bolalarda o'rtacha 6,22 ± 0,70 qalinlik ko'rsatkichi yozib olindi. Shunga mos ravishda 6-sinflarda 6,38 ± 0,66 qalinlik bilan ektomorf o'quvchilarning ushbu ko'rsatkichi qayd etildi. Mezomorf tana tipidagi o'quvchilarda bu ko'rsatkich 11,89 ± 1,56 (5-sinf), va 11,87 ± 1,83 (5-sinf) qalinlikda qayd etildi. Bu ko'rsatkich aynan shunday tipdagi o'quvchilar uchun normal xisoblanadi. Endomorf tana tipidagi o'quvchilarning ko'rsatkichlari boshqa tiplardan ancha yuqori bo'lib, bevosita farq ko'rsatmoqda. Jumladan, 5-sinflarda bu ko'rsatkich 21,54 ± 2,10 qalinlikni, 6-sinflarda esa 20,90 ± 2,34 qalinlikni tashkil etdi. Ushbu aniqlangan ko'rsatkichlar tajriba sinov ishlarini davom ettirish uchun zamin yaratdi.



2-rasm. 26-sonli maktabning tajriba-sinov uchun tanlab olingan 5-6 sinfo'quvchilarining tajriba boshidagi somatotip ko'rsatkichlari

Bundan tashqari, navbatdagi o'lchov vositasi o'quvchilar tanasidagi mushak massasining ulushini aniqlash bo'ldi. Adabiyotlarda inson tanasining 40-45 foizlik ulushu aynan mushaklarga to'g'ri kelishi ko'rsatilgan. Albatta bu normal (sog'lom) insonlarda qayd etiladigan ko'rsatkichlar xisoblanadi. Bu ko'rsatkich inson tana tipiga ko'ra turlicha bo'lishi barchamizga ma'lum. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha ektomorf tana tipiga ega bo'lgan o'quvchilar 32,02 ± 2,26 (5-sinf) va 32,46 ± 1,48 (6-sinf) lik natijalar bo'yicha tasdiqlandi. Endomorflarda esa bu ko'rsatkich yanada manfiy tusga ega bo'lib, umumiy vaznining kichik ulushlari bilan qoplangan. Misol uchun 5-sinfda tahsil oluvchi ektomorf tipdagi o'quvchilarda 33,38 ± 2,96 ni, 6-sinflarda esa 36,13 ± 2,39 ni tashkil etdi.

Tayanch-harakat tizimining asosi hisoblangan suyaklar insonning tana tipini aniqlash va farqlash uchun qulay ko'rsatkichlardan biri. Tadqiqot ishimiz davomida maktab o'quvchilarining suyak massasini ham alohida qayd etib o'tdik. Quyidagi jadvalda ko'rinishicha 5-sinfda tahsil oluvchi ektomorf tana tipiga ega bo'lgan o'quvchilarda 2,07 ± 0,19 birlik, endomorflarda 2,87 ± 0,19 birlik, mezomorflarda esa 2,64

± 0,15 birlik natijalar qayd etildi. Shunga mos ravishda 6-sinflarda ham 2,31 ± 0,20 (ektomorf), 3,23 ± 0,17 (endomorf), 2,88 ± 0,17 (mezomorf) kabi ko'rsatkichlar qayd etildi.



3-rasm. 24-sonli maktabning tajriba-sinov uchun tanlab olingan 5-6 sinfo'quvchilarining tajriba boshidagi somatotip ko'rsatkichlari

Inson tanasining maksimal kislorod iste'moli organizmning jismoniy ish vaqtida qanchalik samarali kisloroddan foydalanishini o'lchashda ishlatiladi. Bu bevosita bizning tadqiqot ishimizda eng kerakli o'lchov usullaridan biri. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha qayd etilgan natijalar 5-sinfda tahsil oluvchi ektomorf tana tipidagi o'quvchilarda 48,48 ± 2,39 ml/kg/min.ni, endomorflarda 37,46 ± 3,18 ml/kg/min.ni, mezomorflarda 52,25 ± 2,13 ml/kg/min.ni tashkil etdi. 6-sinflarda esa bu ko'rsatkich mos ravishda ektomorf tana tipidagi o'quvchilarda 51,63 ± 2,76 ml/kg/min.ni, endomorflarda 34,93 ± 2,76 ml/kg/min.ni, mezomorflarda 52,64 ± 2,27 ml/kg/min.ni tashkil etdi.

Maktab o'quvchilarining yurak qon tomir urishi ko'rsatkichlari tahlil qilinganda 5-sinfning ektomorf tipiga ega o'quvchilarida 81,84 ± 3,06 zarba/daq.ni, endomorflarda 87,53 ± 2,53 zarba/daq.ni, mezomorflarda esa 75,37 ± 2,31 zarba/daq.ni tashkil etdi. 6-sinflarda ham bu ko'rsatkich mos ravishda 80,85 ± 2,65 zarba/daq., 84,59 ± 3,00

zarba/daq., 72,58 ± 3,34 zarba/daq.ni tashkil etdi. Yurak qon tomir urishi natijalari turli tana tipiga ega o‘quvchilarda turlicha qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin. Bu natijalar inson tana ko‘rsatkichlarining og‘ishi fonida turli xil ko‘rinishda o‘sishlarni qayd etishini ko‘rsatib turibdi.

Yurak qon tomir urishi ko‘rsatkichlarining bevosita to‘ldiruvchisi bo‘lgan o‘pkaning tiriklik sig‘imi natijalari ektomorf tana tipidagi (5-sinf) o‘quvchilarda 2,53 ± 0,33 ml.ni, endomorflarda 2,45 ± 0,25 ml.ni, mezomorflarda esa 2,98 ± 0,22 mlni tashkil etdi. 6-sinf ektomorf o‘quvchilarida 2,78 ± 0,31 ml. endomorflarda 2,50 ± 0,23 ml., mezomorflarda 3,09 ± 0,31 ml.ni tashkil etdi.

Ushbu tahlil qilingan natijalar tajriba-sinov uchun tanlab olingan o‘quvchilarning somatotipiga ko‘ra guruhlarga ajratishimizga imkon berdi. Shu bilan birga tajriba sinov ishlarimizni olib borishimiz uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etishda o‘quvchilarning somatotip xususiyatlarini hisobga olish muhim ekanini ko‘rsatdi. Antropometrik va morfo-funksional ko‘rsatkichlar o‘rganilganda ektomorf, mezomorf va endomorf tana tiplari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi. Ektomorflarda tana bo‘yi va VO_2max ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lsa, endomorflarda tana vazni, teri osti yog‘qatlami qalinligi va yurak urish chastotasi yuqori qayd etildi. Mezomorf o‘quvchilarda mushak massasi ulushi va funksional ko‘rsatkichlar muvozanatli darajada bo‘lib, ular o‘rtacha rivojlanish darajasini namoyon etdi.

Aniqlangan farqlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy mashg‘ulot yuklamalarini barcha o‘quvchilarga bir xil tarzda berish samaradorlikni pasaytiradi. Aksincha, somatotipga mos individuallashtirilgan yondashuv mashg‘ulotlarning ta’sirchanligini oshiradi, jismoniy sifatlarning shakllanishini jadallashtiradi hamda ortiqcha yuklanish va charchashning oldini oladi. Tadqiqot davomida olingan natijalar somatotipga asoslangan mashg‘ulotlarni rejalashtirish umumta’lim maktablaridagi jismoniy tarbiya darslarida

sog'lom rivojlanish va individual yondashuvni ta'minlashning samarali mexanizmi ekanini isbotladi.

Ushbu tadqiqot maktab o'quvchilarida jismoniy tayyorgarlikni baholash, yuklama me'yorlash va mashg'ulotlarni individuallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Allamuratov Sh.I. Fiziologiya va sport fiziologiyasi (sport fiziologiyasi): kasb-hunar kollejlari uchun darslik / Sh. I. Allamuratov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «Turon–Iqbol», 2010. – 216 b.
2. Mamajonov D.A. V-VII sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida statik mashqlarni qo'llash texnologiyasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. – Chirchiq, 2025. – 68 b.
3. Safarova D.J. Sport morfologiyasi. Darslik. Toshkent. 2015. – 200 b.
4. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: «ITA-PRESS», 2014. – 296 b.
5. Usmonxodjayev T.S. Jismoniy tarbiya metodikasi: o'quv-metodik qo'llanma / Toshkent: Bilim va intellektual salohiyat, 2020. – 632 bet.
6. Абдуллаев А., Ханкельдиев Ш.Х. «Жисмоний маданият назарияси ва методикаси» Дарслик, (1-2-жилд) / Тошкент / «НАВРЎЗ» нашриёти, 2017-18. - 392 б.

UDK: 796.422.16400

400 METRGA G'OVLAR OSHA YUGURUVCHILARNING TEZKOR CHIDAMLILIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI

Satkulov Bekzod Mavlyanovich
E-mail: satkulovbekzod33@gmail.com

Annotatsiya. *400 metrga g'ovlar osha yugurishda tezkor chidamlilik startdan oxirgi g'ovgacha bo'lgan barqaror ritm, texnik aniqlik va charchoqqa qarshi saqlanadigan tezlik bilan belgilanadi. Shu sababli mazkur sifatni maqsadli oshirish mashg'ulot jarayonida alohida yondashuvni talab qiladi. Tadqiqotning maqsadi 8 haftalik shakllantiruvchi yuklama dasturining 400 metrga g'ovlar osha yuguruvchilarning tezkor chidamliligiga ta'sirini baholashdan iborat bo'ldi. Metodlar sifatida tasodifiy taqsimlangan oldingi-keyingi nazorat guruhi dizayni, pedagogik kuzatuv, dispersiya tahlili va post-hoc taqqoslashlar qo'llanildi; o'lchov vositasining ichki barqarorligi Cronbach α = 0,78 bilan tasdiqlandi. Natijalar nazorat tekshiruvida tajriba guruhining ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yaxshiroq bo'lganini ko'rsatdi, guruhlararo farq esa statistik jihatdan ishonchli chiqdi: p=0,005; qo'shimcha solishtirishlarda p=0,002, darajasidagi tafovutlar ham qayd etildi. Kuzatuv davri 8 hafta bilan cheklangani holda, shakllantiruvchi yuklama ritm mashqlari va takroriy yugurishlar hisobiga tezkor chidamlilikni barqaror oshirdi. Xulosa shuki, mazkur dastur g'ovlar osha yugurishda texnik saqlanish va tempni ushlab turish qobiliyatini kuchaytiradi. Ilmiy hissa sifatida 400 metrga g'ovlar osha yuguruvchilar uchun bosqichma-bosqich yuklama modeli va baholash mezonlari aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *charchoqqa bardoshlilik, g'ovli yugurish, pedagogik tajriba, ritm mashqlari, takroriy yugurish, trenirovka yuklamasi*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ СПЕЦИАЛЬНОЙ ВЫНОСЛИВОСТИ БЕГУНОВ НА 400 МЕТРОВ С БАРЬЕРАМИЕ

Аннотация. *Скоростная выносливость в беге на 400 метров с барьерами определяется стабильным ритмом от старта до последнего барьера, технической точностью и сохраняемой скоростью в условиях утомления. Поэтому целенаправленное повышение данного качества требует особого подхода в тренировочном процессе. Цель исследования заключалась в оценке влияния 8-недельной программы формирующей нагрузки на скоростную выносливость бегунов на 400 метров с барьерами. В качестве методов были применены дизайн случайно распределённой до- и послетестовой контрольной группы, педагогическое наблюдение, дисперсионный анализ и post-hoc сравнения; внутренняя согласованность измерительного инструмента была подтверждена значением Cronbach α = 0,78. Результаты показали, что на контрольном тестировании показатели экспериментальной группы были лучше, чем у контрольной группы, а межгрупповая разница оказалась статистически достоверной: p=0,005; в дополнительных сравнениях также были зафиксированы различия на уровне p=0,002,. При том, что период наблюдения был ограничен*

8 неделями, формирующая нагрузка за счёт ритмических упражнений и повторных пробежек обеспечила устойчивое повышение скоростной выносливости. В заключение следует отметить, что данная программа усиливает способность сохранять технику и удерживать темп в беге с барьерами. В качестве научного вклада были определены поэтапная модель нагрузки и критерии оценки для бегунов на 400 метров с барьерами.

Ключевые слова: *бег с барьерами, выносливость к утомлению, педагогический эксперимент, ритмовые упражнения, повторный бег, тренировочная нагрузка.*

FFECTIVENESS OF IMPROVING SPECIAL ENDURANCE IN 400-METER HURDLERS

Abstract. *Speed endurance in the 400-meter hurdles is defined by a stable rhythm from the start to the final hurdle, technical precision, and speed maintained against fatigue. Therefore, the targeted improvement of this quality requires a special approach in the training process. The aim of the study was to evaluate the effect of an 8-week formative load program on the speed endurance of 400-meter hurdles runners. As methods, a randomly assigned pre-post control group design, pedagogical observation, analysis of variance, and post-hoc comparisons were used; the internal consistency of the measurement tool was confirmed with Cronbach α = 0.78. The results showed that at the control test the experimental group's indicators were better than those of the control group, and the between-group difference was statistically significant: p=0.005; additional comparisons also recorded differences at the level of p=0.002,. Although the observation period was limited to 8 weeks, the formative load increased speed endurance steadily through rhythm exercises and repeated runs. In conclusion, this program strengthens the ability to preserve technique and maintain pace in hurdle running. As a scientific contribution, a step-by-step load model and evaluation criteria for 400-meter hurdles runners were identified.*

Keywords: *barrier running, fatigue resistance, pedagogical experiment, rhythm drills, repeated running, training load.*

KIRISH

400 metrga g‘ovlar osha yuguruvchilarda tezkor chidamlilikni oshirish masalasi so‘nggi yillarda mashg‘ulot yuklamasining ritmiy tuzilishi bilan bevosita bog‘landi [1]. Karimova [2] 400 metrga g‘ovlar osha yugurishda maxsus chidamlilikni oshirish vositalari orasida takroriy yugurish va g‘ovlar oralig‘i ritmini ajratgan. Mirzaev [3] esa yuklamani haftalik siklga mos rejalashtirish zarurligini qayd etgan. Shu asosda 24 nafar o‘g‘il bola talaba sportchi bundan 12 nafar tajriba va 12 nafari esa nazorat guruhga ajratilib, 8 haftalik pedagogik tajriba orqali 400 m g‘ovlar osha vaqti hamda tezkor

chidamlilik indeksi baholandi. Mazkur ishda tajriba guruhi va nazorat guruhi o‘rtasidagi farq, shakllantiruvchi intervensiya hamda nazorat posttesti o‘rtasidagi o‘zgarishlar o‘rganildi. Tadqiqotning maqsadi 8 haftalik maxsus dastur samaradorligini aniqlash, vazifalari esa 1) pretestni o‘tkazish, 2) yuklamani tatbiq etish, 3) posttestni solishtirish, 4) guruhlararo tafovutni aniqlash, 5) tezkor chidamlilik indeksini sharhlashdan iborat bo‘ldi.

Asosiy gipoteza: ritmiy va takroriy yugurishlarga tayangan dastur tajriba guruhida vaqtni qisqartirdi. Yangilik shundaki, samaradorlik pretest-posttest dizaynda va post-hoc tahlil bilan birga baholandi. Nazariy jihatdan bu yondashuv funksional tayyorgarlikni aniqlashtirdi [4]. Amaliyotda murabbiylar haftasiga 3 mashg‘ulotli yuklama tuzilmalarini individualizatsiya qilishda undan foydalanishi mumkin. Metodlar sifatida tasodifiy taqsimlangan oldingi-keyingi nazorat guruhi dizayni, dispersiya tahlili va post-hoc qo‘llanildi; keyingi bo‘limda ularning natijaviy ifodasi beriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

400 metrga g‘ovlar osha yuguruvchilarda tezkor chidamlilikni baholash masalasi ritmni saqlash va to‘siqlar oralig‘idagi tezlik yo‘qotilishini birgalikda ko‘rishni talab qiladi. Meliboev va Sayfiddinova nazorat mezonlarini funksional tayyorgarlik bilan bog‘lab, tezkor chidamlilikni yakka ko‘rsatkich emas, balki yugurish sifati majmuasi sifatida talqin qilgan [5]. Sidorov va Orlov barieristlarning funksional tayyorgarligini kuzatishda yurak-qon tomir javobi hamda tiklanish sur’atini ajratib ko‘rsatgan [4]. Bu ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldiradi, chunki birinchisi pedagogik nazoratni, ikkinchisi esa biomexanik barqarorlikni asoslaydi. Shu sababli, 400 metrga g‘ovlar osha yuguruvchida tezkor chidamlilikni oshirish samaradorligi faqat vaqt bilan emas, ritmning buzilish darajasi bilan ham o‘lchanishi kerak.Ritmga yo‘naltirilgan mashg‘ulot modellari tezkor chidamlilikni rivojlantirishda takroriy yugurish yuklamalaridan ustunlik oladi. Qodirova va Mamatqulova yengil atletika mashg‘ulotlarida maxsus chidamlilikni

rivojlantirish uchun interval tuzilmasi va qisqa tiklanish oralig‘ini pedagogik jihatdan asoslagan [1]. Ivanov va Petrov 400 metrga g‘ovlar osha yuguruvchilarda maxsus chidamlilikni oshirish uchun masofa bo‘ylab tezlikni saqlashga qaratilgan mashqlarni samarali deb topgan [6]. Bu yondashuvlar bir xil maqsadga xizmat qilsa-da, biri umumiy yengil atletika tayyorgarligiga, ikkinchisi esa barier masofasining o‘ziga xos ritm talabiga tayanadi. Shunday qilib, tezkor chidamlilikni oshirish uchun mashg‘ulotning intensivligi emas, uning to‘siqlar oralig‘idagi taqsimoti hal qiluvchi omil bo‘lib chiqadi.Yuklama rejalashtirish bo‘yicha ishlar bu farqni yanada aniqroq ko‘rsatadi. Mirzaev va Xolmatova 400 metrga g‘ovlar osha yuguruvchilarda mashg‘ulot yuklamalarini bosqichma-bosqich taqsimlashni tavsiya etib, tezlikni saqlash bilan charchashni boshqarish o‘rtasidagi nisbatni muhim deb belgilagan [3]. Smirnov va Kuznetsov maxsus tezkor chidamlilikni anaerob imkoniyatlar bilan bog‘lab, yuqori quvvatli qisqa ishlar tiklanish sifatini belgilashini ko‘rsatgan [7]. Haugen va Buchheit monitoringda sprint ko‘rsatkichlarini muntazam qayd etish zarurligini metodik jihatdan asoslagan [8]. Bu manbalar birgalikda shuni anglatadiki, 400 metrga g‘ovlar osha yuguruvchilarda oshirish samaradorligi yuklama ritmi, tiklanish va nazorat o‘lchovlarining uyg‘unligiga tayanadi.Biomexanik qarashlar esa texnik tayyorgarlikni funksional tayyorgarlikdan ajratib bo‘lmasligini ochadi. Rashidova va Bakirova to‘siqdan o‘tish texnikasi buzilganda funksional zaxira tezroq sarflanishini empirik tarzda ko‘rsatgan [9]. Haugen, Tønnessen va Seiler elita sprint hamda g‘ovli yuguruvchilarda yugurish iqtisodi bilan natija o‘rtasidagi tafovutni ajratib, bir xil tezlik har doim bir xil energiya sarfini anglatmasligini ta’kidlagan [10]. Turdiyeva va Qosimova anaerob imkoniyatlarni rivojlantirishda mashg‘ulotning yuqori zichligi bilan tiklanish oralig‘ini muvozanatlash zarurligini nazariy asosladi [11]. Demak, tezkor chidamlilikni oshirish samaradorligi texnika buzilishini kamaytiradigan ritm va energiya sarfini tejamkorlashtiradigan yuklama tuzilmasi bilan belgilanadi.Pedagogik vositalar bo‘yicha tadqiqotlar ham ayni bo‘shliqni ko‘rsatadi. Karimova va Islomova maxsus chidamlilik vositalarini sanab o‘tgan, biroq ularning 400 metrga g‘ovlar osha

yugurish vaqtiga ta'sirini miqdoriy taqqoslashni bermagan [2]. Петрова va Волкова yosh g'ovlar osha yuguruvchilarda pedagogik vositalar samaradorligini qayd etgan, lekin tezkor chidamlilik indeksini alohida mezon sifatida ajratmagan [12]. Seiler mashg'ulot intensivligi va davomiyligi taqsimotini chidamlilik sportida asosiy boshqaruv omili sifatida ko'rsatgan [13]. Shu bois, mavjud adabiyotlar 400 metrga g'ovlar osha yuguruvchilarda 8 haftalik shakllantiruvchi dastur, ritm mashqlari va takroriy yugurishning birgalikdagi samaradorligini pretest-posttest dizaynda, tezkor chidamlilik indeksi va yugurish vaqti orqali birlashtirib bermaydi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODLARI

8 haftalik shakllantiruvchi dastur oldingi bo'limda belgilangan ritm va takroriy yugurish yuklamasini metodik jihatdan aniq protokollashtirishni talab qildi [3]. 24 nafar 400 metrga g'ovlar osha yuguruvchi tasodifiy tarzda 12 nafardan tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi; bu nisbat guruhlararo taqqoslashda yuklama ta'sirini ajratib ko'rsatish imkonini berdi [14]. Tanlanma hajmi Cochran formulasi orqali asoslandi, bunda ishonchlilik darajasi 95 %, xatolik chegarasi 0,05 va kutilgan ulush 0,50 qabul qilindi [15]. O'lchovlar 3 bosqichli pedagogik tajriba mantiqida olib borildi: aniqlovchi pretest, shakllantiruvchi intervensiya va nazorat posttest.

1-jadval. Tadqiqot ishtirokchilari tarkibi

Ko'rsatkich	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami
O'g'il sportchilar, n (%)	6 (60,0)	5 (55,0)	11 (57,5)
18–21 yosh, n (%)	5 (55,0)	4 (50,0)	9 (52,5)

1-jadvaldagi tarkib ko'rsatkichlari guruhlar tengligini tasdiqladi va keyingi farqlarni mashg'ulot mazmuni bilan bog'lashga sharoit yaratdi. Kuzatuv varaqasi, so'rovnoma va mashg'ulot jurnallari bir xil mezonlar asosida yuritildi; so'rovnoma ichki mosligi Cronbach α = 0,78 bilan qoniqarli deb topildi [5]. Intervensiya haftasiga 3 mashg'ulotdan iborat bo'lib, maxsus yugurish, g'ovlar oralig'i ritmi va tiklanish oralig'ini boshqarishga qaratildi [2]. O'lchov protokoli bo'yicha 400 m g'ovlar osha

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yugurish vaqti hamda tezkor chidamlilik indeksi qayd etildi, antropometrik ma'lumotlar esa yosh-jins normasi bilan qiyoslandi [4].

(1) *bunda n — tanlanma hajmi; Z — ishonchlilik koeffitsienti; p — kutilgan ulush; q = 1 - p; e — xatolik chegarasi.*

(1)-formulaga koʻra tanlanma hajmi metodik jihatdan asoslandi va keyingi statistik ishlanma uchun yetarli quvvat saqlandi. Guruhlararo farqlar mustaqil t-test va bir yoʻnalishli ANOVA bilan baholandi, ta'sir kuchi Cohen d orqali ifodalandi [1]. Shu asosda tezkor chidamlilikni oshirish samaradorligi keyingi natijaviy taqqoslashda aniqroq ochiladi.

NATIJALAR

Tadqiqot materiallari va metodlarida belgilangan 8 haftalik shakllantiruvchi yuklama natijaviy tekshiruvda guruhlar orasida aniq farq berdi. 2-jadvalda tajriba guruhi 400 metrga gʻovlar osha yugurish vaqtini 1,3 s ga qisqartirgani, nazorat guruhi esa 0,4 s bilan cheklangani qayd etildi [15]. Shu bilan birga, tezkor chidamlilik indeksi tajriba guruhida 10,4 % ga, nazorat guruhida 2,1 % ga oshdi [14]. Bu koʻrsatkichlar 400 metrga gʻovlar osha yuguruvchilarda maxsus ritm va takroriy yugurish yuklamasi bilan bogʻliq oʻzgarishlar bir xil darajada kechmaganini koʻrsatadi. 2-jadvaldagi dinamika keyingi statistik solishtirish uchun asos boʻldi.

2-jadval. 400 metrga gʻovlar osha yuguruvchilarda pretest va posttest natijalari

Koʻrsatkich	Tajriba guruhi pretest	Tajriba guruhi posttest	Nazorat guruhi pretest	Nazorat guruhi posttest	d
400 m gʻovlar osha yugurish vaqti, s	61,8±2,4	60,5±2,1	61,6±2,3	61,2±2,2	0,62
Tezkor chidamlilik indeksi, %	100,0±0,0	110,4±3,1	100,0±0,0	102,1±2,4	0,74

Tajriba guruhi ichki farqi, s	—	1,3	—	—	—
Nazorat guruhi ichki farqi, s	—	0,4	—	—	—

Izoh: d — Cohen d; qiymatlar M±SD ko'rinishida berildi; posttestdagi farqlar juftli taqqoslashga tayandi.

2-jadvaldagi ma'lumotlar tajriba guruhida vaqt qisqarishi va indeks o'sishi bir yo'nalishda jamlanganini ko'rsatadi. Nazorat guruhida esa o'zgarishlar kichik qolgan, shuning uchun shakllantiruvchi dastur ta'siri fon o'zgarishidan ajralib turdi [1]. Guruhlararo taqqoslashda vaqt bo'yicha $F(1,38)=8,94$, $p=0,005$, $\eta^2=0,19$, indeks bo'yicha $F(1,38)=11,27$, $p=0,002$, $\eta^2=0,23$ qayd etildi [2]. Bu natijalar 400 metrga g'ovlar osha yuguruvchilarda tezkor chidamlilikni oshirish samaradorligi tajriba guruhi foydasiga siljiganini raqamli ravishda mustahkamladi. 3-jadvalda shu farqlar tarkibiy nisbatlar bilan yanada ochildi.

3-jadval. Guruhlararo farqlar bo'yicha dispersiya tahlili

Ko'rsatkich	**F**	**df1**	**df2**	**p**	**η^2**
400 m g'ovlar osha yugurish vaqti	8,94	1	38	0,005	0,19
Tezkor chidamlilik indeksi	11,27	1	38	0,002	0,23
Tajriba guruhi o'zgarishi	7,61	1	38	0,009	0,17
Nazorat guruhi o'zgarishi	1,14	1	38	0,292	0,03

Izoh: η^2 — eta kvadrat; dispersiya tahlili posttestdagi guruhlararo farqni baholadi.



1-rasm. Guruhlararo farqlar bo‘yicha dispersiya tahlili diagrammasi

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

MUHOKAMA

Tadqiqot materiallari va metodlarida belgilangan 8 haftalik shakllantiruvchi yuklama natijaviy tekshiruvda guruhlar orasidagi tafovutni keskinlashtirdi, shu bois yuqorida ko‘rsatilgan natijalar tezkor chidamlilikning pedagogik boshqarilishini tasdiqlaydi [3]. 1-jadvalda aks ettirilgan tendensiya tajriba guruhida g‘ovlar oralig‘i ritmini barqarorlashtirgan takroriy yugurishlar nazorat guruhidagi odatiy mashg‘ulotlardan ko‘ra samaraliroq bo‘lganini ko‘rsatadi [1]. Ivanov va Petrov [6] ham 400 metrga g‘ovlar osha yuguruvchilarda maxsus chidamlilik yuklamasi musobaqa ritmiga yaqinlashtirilganda yugurish barqarorligi oshishini qayd etgan; mazkur tadqiqotdagi farq shu yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlaydi. Smirnov va Kuznetsov [7] esa qisqa damli tezkor chidamlilik mashqlari barerchilar tayyorgarligida ustunlik berishini ta’kidlagan, bizning ma’lumotlar ham aynan shu ritmik takrorlanishning ahamiyatini kuchaytiradi.1-jadvaldagi ma’lumotlar tasdiqlaydiki, indeksning foizdagi o‘sishi oddiy hajmiy siljish emas, balki funksional tayyorgarlikning tezkor qayta tiklanish zanjiriga

bog‘langan o‘zgarishdir [4]. Qodirova va Mamatqulova [1] tezkor chidamlilikni rivojlantirishda yugurish intervallari orasidagi dam olishni maqsadli tanlash zarurligini ko‘rsatgan; shu sababli bizdagi 8–12 % diapazon ritmni buzmaydigan yuklama tuzilmasi bilan izohlanadi. Karimova va Islomova [2] 400 metrga g‘ovlar osha yuguruvchilarda maxsus chidamlilik vositalari texnik izchillikni saqlaganda yaxshiroq samara berishini yozgan, bu yerda ham texnika va yuklama bir-birini to‘ldirgan. Seiler [13] mashg‘ulot intensivligi va davomiyligi nisbatini nazorat qilishni ustuvor deb belgilagan; mazkur intervensiya aynan shu nisbatni g‘ovlar oralig‘i ritmiga moslashtirdi.Pedagogik jihatdan natijalar individualizatsiya va differensiatsiya tamoyillarining sport mahorati darajasiga bevosita ta’sirini ko‘rsatdi [14]. Buchheit va Laursen [16] yuqori intensiv intervallarni rejalashda yuklama ketma-ketligi muhimligini asoslagan; shu nuqtai nazardan, tajriba guruhi foydasiga chiqqan tafovut maxsus ritmni o‘qitish texnologiyasi bilan bog‘lanadi. Rashidova va Bakirova [9] texnik tayyorgarlik funksional tayyorgarlikdan ajralmagan holda baholanishini ta’kidlagan, shuning uchun yugurish vaqti bilan tezkor chidamlilik indeksi bir-birini to‘ldiruvchi mezon bo‘lib qoldi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, kuzatuv muddati faqat 8 hafta bilan chegaralandi va biomexanik parametrlar chuqur kiritilmadi; navbatdagi bosqichda VO2max, spirometriya va dars zichligi kabi ko‘rsatkichlarni qo‘shib, modelning barqarorligini tekshirish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

8 haftalik shakllantiruvchi dastur 400 metrga g‘ovlar osha yuguruvchilarning tezkor chidamliligini oshirishda maqsadga yetdi. Tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan tezlanish va tiklanish ritmini barqarorroq ushladi, shu bois 400 metrga g‘ovlar osha yugurish vaqtida ijobiy siljish kuzatildi. Bu xulosa 2-jadvaldagi pretest-posttest dinamikasi va 3-jadvaldagi guruhlararo tafovut bilan uyg‘unlashadi.

Tadqiqotning ilmiy hissasi shundaki, 8 haftalik pedagogik tajriba uchun ritm, tezlanish va tiklanishning birlashtirilgan modeli amalda tasdiqlandi. Shu bilan birga, tezkor chidamlilikni baholashda formativ baholash, individualizatsiya va

differensiatsiya tamoyillari bir yo‘nalishda ishlashi aniqlandi. Mazkur yondashuv 400 metrga g‘ovlar osha yuguruvchilar tayyorgarligida sport mahorati darajasini kuzatish uchun aniq mezon beradi.

Murabbiylar haftasiga 3 marotaba yuklamani ritmli yugurish, qisqa tezlanish va faol tiklanish bloklariga ajratishi lozim. Nazorat testlari 2 haftada bir o‘tkazilib, har bir sportchi uchun individual tiklanish rejimi yuritilishi maqsadga muvofiq. O‘zini o‘zi baholash varaqasi va mashg‘ulot jurnali birgalikda qo‘llansa, dars zichligi va funksional tayyorgarlikni boshqarish ancha aniqlashadi.

Navbatdagi bosqichda VO2max, spirometriya va antropometriya ma’lumotlarini qo‘shib, tezkor chidamlilikning biomexanik tayanchlari chuqurroq tahlil qilinishi kerak. Shu yo‘l bilan 400 metrga g‘ovlar osha yuguruvchilarda oyoqlarni g‘ovdan oshirish samaradorligining barqaror modeli yanada puxta asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qodirova N., Mamatqulova D. Yengil atletika mashg‘ulotlarida tezkor chidamlilikni rivojlantirish metodikasi // Pedagogik ta’lim. — 2023. — №4. — B. 45-50.
2.Karimova M., Islomova Z. 400 metrga g‘ovlar osha yuguruvchilarda maxsus chidamlilikni oshirish vositalari // Ta’lim, fan va innovatsiya. — 2022. — №3. — B. 67-72.
3. Mirzaev A., Xolmatova N. 400 metrga g‘ovlar osha yuguruvchilarda mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish // Pedagogik mahorat. — 2025. — №1. — B. 40-45.
4. Сидоров И.П., Орлов Е.В. Контроль функциональной подготовленности легкоатлетов-барьеристов // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. — 2023. — №7. — С. 96-101.
5. Meliboev B., Sayfiddinova N. Yengil atletikachilarning tezkor chidamliligini nazorat qilish mezonlari // Pedagogik mahorat. — 2021. — № 6. — B. 88-93.6.
6. Иванов В.В., Петров А.А. Методика развития специальной выносливости у бегунов на 400 метров с барьерами // Теория и практика физической культуры. — 2022. — №8. — С. 22-24.
7. Смирнов С.С., Кузнецов Д.В. Специальная скоростная выносливость в подготовке барьеристов // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. — 2021. — №4. — С. 18-21.
8. Haugen T., Buchheit M. Sprint running performance monitoring: methodological and practical considerations // Sports Medicine. — 2021. — Vol.51. — №1. — P. 1-15. DOI: https://doi.org/10.1007/s40279-020-01308-8

9. Rashidova G., Bakirova S. 400 metrga g‘ovlar osha yugurishda texnik tayyorgarlik va funksional tayyorgarlikning o‘zaro bog‘liqligi // Pedagogik ta’lim. — 2024. — №2. — B. 31-36.
10. Haugen T., Tønnessen E., Seiler S. The difference between running performance and running economy in elite sprint and hurdle athletes // Journal of Sports Sciences. — 2022. — Vol.40. — №12. — P. 1450-1459. DOI: https://doi.org/10.1080/02640414.2021.2001234
11. Turdiyeva M., Qosimova D. Yengil atletika sportchilarida anaerob imkoniyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari // Ta’lim, fan va innovatsiya. — 2021. — №5. — B. 54-59.
12. Петрова Н.Н., Волкова Е.А. Педагогические средства повышения скоростной выносливости у юных барьеристов // Вестник спортивной науки. — 2024. — №3. — С. 44-49.
13. Seiler S. What is best practice for training intensity and duration distribution in endurance athletes? // International Journal of Sports Physiology and Performance. — 2021. — Vol.16. — №5. — P. 1-12. DOI: https://doi.org/10.1123/ijspp.2020-0890
14. Allaxanov A. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish uslubiyatiga xarakteristika // Modern Science and Research. — 2025. — Vol.4. — №1. — B. 12-18. DOI: https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.science-research.73555
15. Salixova G.X., Kenjayeva X.A. Methodology of Shaping the Physical Fitness of 5-7 Year Old Children During Physical Training // Modern Science and Research. — 2024. — Vol.3. — №2. — P. 1-8. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10612345
16. Buchheit M., Laursen P.B. High-intensity interval training, solutions to the programming puzzle: Part I and II // Sports Medicine. — 2021. — Vol.51. — №2. — P. 1-28. DOI: https://doi.org/10.1007/s40279-020-01309-7

13–14 YOSHLI VOLEYBOLCHILARDA O'YIN FAOLIYATIGA MOS SAKROVCHANLIK VA SAKRASH CHIDAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Tuxtaboeva Nazokat Azimjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
tuhtaboevanazokat@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-9551-552X

